

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

IQTISODIY XAVFSIZLIK

fanidan

O'QUV QO'LLANMA

**60410400 - "Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim
olayotgan talabalar uchun**

Mazkur O'quv qo'llanma "Iqtisodiy xavfsizlik" fani bo'yicha ma'ruza darslarini o'tkazish uchun mo'ljalangan bo'lib, ushbu fan namunaviy va ishchi o'quv dasturidan o'rin olgan barcha mavzular bo'yicha amaliy va nazariy masala va topshiriqlar o'rin olgan. O'quv qo'llanmada Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari, fanni chuqur o'rganish va mustahkamlashga qaratilgan nazorat savollari, va glossarylar ham kiritilgan. O'quv qo'llanmadan tinglovchilarning zaruriy tayyorgarlik darajasi bilimlariga qo'yiladigan talablar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va mazkur fanni o'qitishning Namunaviy dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanma 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 5233800 - Moliya va moliyaviy texnologiyalar, 5231500 - Baholash ishi, 5232000 - Byudjetining g'azna ijrosi, 5232100 - Korporativ moliya, 5232700 - Investitsion loyihalarni moliyalashtirish, 5232800 - Elektron tijorat, 5234400 - Xalqaro valyuta kredit munosabatlari yo'nalishi talabalari, magistrantlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va iqtisodiyot ilmiga qiziquvchilar uchun mo'ljalangan.

Данное учебное пособие предназначено для проведения лекций по предмету «Экономическая безопасность» и включает практические и теоретические задачи и задачи. В учебное пособие включены также вопросы экономической безопасности, контрольные вопросы, направленные на углубленное изучение и закрепление предмета, глоссарии. Учебное пособие подготовлено на основании требований к знаниям обучающихся необходимого уровня подготовки, Закона Республики Узбекистан «Об образовании», Национальной программы подготовки кадров и Типовой программы преподавания данного предмета. Учебное пособие 5230100 - Экономика (по отраслям и отраслям), 5233800 - Финансы и финансовые технологии, 5231500 - Оценочная работа, 5232000 - Казначейское исполнение бюджета, 5232100 - Корпоративные финансы, 5232700 - Финансирование инвестиционных проектов, 5232800 - Электронная коммерция, 5234400 - Предназначен для студентов, аспирантов, научных сотрудников, преподавателей и всех, кто интересуется экономикой.

This textbook is intended for lectures on the subject "Economic Security" and includes practical and theoretical tasks and tasks. The textbook also includes issues of economic security, control questions aimed at in-depth study and consolidation of the subject, glossaries.

The textbook has been prepared on the basis of the requirements for the knowledge of students of the required level of training, the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", the National Training Program and the Model Program for teaching this subject. Study guide 5230100 - Economics (by branches and branches), 5233800 - Finance and financial technologies, 5231500 - Appraisal work, 5232000 - Treasury budget execution, 5232100 - Corporate finance, 5232700 - Investment project financing, 5232800 - E-commerce, 5234 400 - Designed for students, graduate students, researchers, teachers and anyone interested in economics.

KIRISH

Iqtisodiy xavfsizlik bu mamlakat iqtisodiyotining asosiy himoya tizimi bo'lib, bu tizim davlatni tashqi va ichki iqtisodiy xavf-xatarlarni ko'ra bilish va shu xatarlardan himoyalanih yo'llarini o'rganadi. Iqtisodiy xavfsizlik rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan, umuman davlatning qanaqa holatdaligiga qaramasdan har bir davlatning barqarorligi, iqtisodiy o'sishini himoyalashi uchun eng muhim tizim hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya va muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi, bozor tizimida xatar borligidan va bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo'lmasligini, undan saqlanish zarurligini bildiradi.

Iqtisodiyot globallashtgan, eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri kuchaygan sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni o'z ishlab chiqarishi bilan ta'minlab bo'lmaydi. Shunday sharoitda eksport-import aloqalarining muntazamligini strategik sherikchilik asosida ta'minlash mamlakat iqtisodiyoti xavfsizligini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda turli xil iqtisodiy tahdidlarga qarshi chora-tadbirlar, islohotlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini yanada jadallashtirish natijasida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishib kelinmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini turli tahdidlardan himoya qilish, jamiyat hayot faoliyatining bir qancha sohalarida kehadigan jarayonlarni, shu jumladan korrupsiya va xufyona iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalari ishlab chiqish, chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali xavfsizlikni ta'minlash hozirgi sharoitlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa global jahon iqtisodiyotida hali – beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolar sharoitida ushbu masalalarning dolzarbligi yanada ortadi. Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarni oldini olish masalasi yuzaga keladi.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ahamiyati kattadir. Shu boisdan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va mamlakat iqtisodiyotiga xavf soluvchi omillarga qarshi kurashish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda "Iqtisodiy xavfsizlik" fanida o'rganiladigan mavzular va nazariy-amaliy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Iqtisodiy xavfsizlik" fani iqtisodiy xavfsizlikning shakllanish mexanizmini, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy, me'yoriy, ilmiy va uslubiy asoslarini o'rganadi.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlik alohida o'ringa ega bo'lib, uning holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Bizga ma'lumki, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarbligi uning xavfsizlik va texnologiya, barqarorlikni ta'minlash masalalari, jahon hamjamiyatining zamonaviy sharoitlarida asosiy tahdid va iqtisodiy tizimdagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun mamlakatda xavfsizlik va texnologiyani rivojlantirish, unda bo'ladigan tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"dagi PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan dasturning "Iqtisodiyotni yanada rivojlanirish va liberallashtirish" deb nomli uchinchi yo'nalishning 3.2-bandida "Tarkibiy o'zlashtirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish" vazifalari belgilangan. Dasturning 5-bo'limi "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" nomli yo'nalishning 5.1-bandida O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suverentiteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish,

axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish; davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston qurolli kuchlarining jangovor qudrati va salohiyatini oshirish; atroftabiiy muhit, aholi salomatligi va genefondiga zarar etkazadigan ekologik muammolarning oldini olish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Shundan kelib chiqib qayd etish lozimki, mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur o'quv qo'llanmada mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik rivojlanishining institutsional yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalar bayon etilgan¹.

Iqtisodiy xavfsizlik fanining maqsadi talabalarga iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va uning munitsipial shakllanishini baholashga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan zarur bilimlar berishdan iborat. Ushbu fanning vazifasi talabalarga iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslarini o'rgatish; iqtisodiy xavfsizlik tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish uslublari va vositalarini tushuntirish; iqtisodiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish; iqtisodiy xavfsizlikdarajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib tahlil qilish va ularni baholash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish.

Iqtisodiy xavfsizlik fanini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- haqiqiy faktlarni iqtisodiy nuqtai-nazardan tahlil qilish va izohlash imkonini beradigan iqtisodiy xavfsizlikbo'yicha bilimlarga ega bo'lish;
- iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. usullari va uni shakllanish omillarini tushunish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

- iqtisodiy xavfsizlikni darajasini belgilovchi tizim indikatorlaridan foydalanib milliy va mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasini monitoring qilish va baholash qobiliyati;

- iqtisodiy xavfsizlikni rivojlanishiga erishishda analitik mulohazalardan foydalana bilish;

- iqtisodiy muammolarni topish va hal qilish uchun analitik tadqiqotlardan foydalanish;

- iqtisodiy xavfsizlikni muammolarni jamoaviy ravishda tushunish va tahlil qilish;

- turli iqtisodiy muammolarning ahamiyatini, shuningdek ushbu muammolarini hal qilishga qaratilgan siyosatning ijtimoiy ta'sirini baholay olish;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni tahlil qila olishi, bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyatini hamda uni qo'llashda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi talablari va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan hamda "Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'nalishlarining "Iqtisodiy xavfsizlik" fanining o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, ushbu o'quv qo'llanmada o'qitishning yangi ta'lim texnologiyasidan foydanilgan holda har bir mavzu bo'yicha maqsadi, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo'yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar, glossariylar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

"Iqtisodiy xavfsizlik" fanining o'quv qo'llanmasi asosan oliy o'quv yurtlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishining – Iqtisodiy xavfsizlik talabalari uchun

mo'ljallangan. Bundan tashqari, iqtisodiy xavfsizlik muammolari bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi soha xodimlari ham foydalanishlari mumkin. Ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq muammolar, masalalar va ularni joriy etish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz. Muallif "Iqtisodiy xavfsizlik" fanining o'quv qo'llanmasi sifatida unga bildirilgan fikr, mulohazalar hamda takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar va ularni keyingi nashrlarga tayyorlash va chop etish jarayonida yordam berganlarning barchasiga samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

I-BOB. “IQTISODIY XAVFSIZLIK” FANIGA KIRISH, IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA TARKIBIY ELEMENTLARI

1.1. Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi, obyektlari, subyektlari.

1.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tamoyillari.

Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy elementlari.

1.3. Iqtisodiy xavfsizlikning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

1.1. Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi, obyektlari, subyektlari.

O'tgan asrning 90-yillari boshidan milliy xavfsizlik va uning ajralmas qismi bo'lgan iqtisodiy xavfsizlik muammosi o'ta keskinlashdi. Bunday xolat noan'anaviy qarorlar qabul qilishni hamda asos bo'lib xizmat qilgan yondashuvlarni qaytadan ko'rib chiqishni talab etadi. Masalaning bunday qo'yilishiga birinchidan, O'zbekistonda amalga oshayotgan tub o'zgarishlar, ikkinchidan mamlakatdagi demokratik jarayonlar uning ham tashqi, ham ichki munosabatlariga tegishli ekanligi sabab bo'ladi.

Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarining qaror topishi bilan bir paytda vujudga keladi. “Xavfsizlik” tushunchasi Rober ma'lumotnomasiga ko'ra 1190 yilda paydo bo'ldi. Bu tushuncha o'zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holatini ifodalagan. Ushbu ma'noda mazkur termin G'arbiy Evropa halqlari leksikonida XVII asrgacha qo'llanilgan. Tarixning keyingi davrlarida davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan bog'liq ravishda xavfsizlik tushunchasi moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda davlat qurilishi, boshqarish organlari tendentsiyalariga mos keladigan real xavf-xatarning yo'qligi natijasida vujudga keladigan tinchlik holati ma'nosini anglatgan. XX asrning oxirlariga kelib, “xavfsizlik” va “milliy xavfsizlik” tushunchalari bizning leksikonimizda tez-tez qo'llana boshladi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va

boshqa ommaviy qirg'in qurollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og'irligi, yangi yuqumli xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum emirilganidan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo'linishi barham topgandan keyingi davlatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o'zgarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

“Xavfsizlik” tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, turli ma'nolarda talqin etiladi. Shunga qaramasdan ularda umumiy g'oya ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalaniş, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf-xatar namoyon bo'lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, portlashlar va larzalar, inqirozlar, tangliklar, qo'zg'olon, urush, qurolli to'qnashuvlar kiradi.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo'lmasin ularning barchasi umumiylik xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-xatardan himoyalaniş sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayot-faoliyatining normal amal qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi .

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning murakkablashuvi va globallashuvi, xalqaro terroristik tashkilotlarning faollashganligi, iqtisodiy va uyushgan jinoyatchilik miqyoslarining bir muncha kengayganligi, ekologik sharoitning yomonlashganligi xatto barqaror iqtisodiy tizimlar uchun ham xavf tug'dirishi mumkin bu muammolarga jiddiy qarash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Bunday sharoitda dunyoning ko'pgina mamlakatlari milliy xavfsizlik konsepsiyalarini ishlab chiqdilar. O'zbekistonda ishlab chiqilgan konsepsiyada milliy xavfsizlik fuqarolar, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlarining hamda tabiatiga ko'ra xilma-xil bo'lgan faoliyat turlarining ichki va tashqi

xavflardan himoyalanganligi deb talqin qilinadi. Ayni paytda iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir bo‘lagi bo‘lib yuzaga chiqadi. Iqtisodiy xavfsizlikning bunday o‘rni iqtisodiyotning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Tarix sabog‘i shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotda barqarorlik mavjud ekan, insonlarning barcha hayotiy faoliyatlarida ham barqarorlik ta‘minlanadi. Demak, makroiqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash xavfsizlikning barcha tizimining bazaviy elementi sifatida yuzaga chiqadi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi o‘zbek iqtisodiyoti boshqaruv organlari leksikasida yangilik bo‘lib xorijiy mamlakatlar boshqaruv tuzumlari faoliyati amaliyoti uchun esa avvaldan qo‘llanib kelinayotgan tushuncha bo‘lib, juda keng sharhlanadi. Chunonchi, iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta‘min etuvchi asosiy bo‘g‘inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta‘minlash yo‘llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig‘indisidir. Konseptual ko‘rinishda u davlat iqtisodiy potensial holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Kuchsiz va samarasiz iqtisodiyot davlat xavfsizligini ta‘minlashi mumkin emas. Bu ijtimoiy nizolarga to‘la jamiyatda, ayniqsa yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunki “iqtisodiy xavfsizlik” va “ijtimoiy xavfsizlik” o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanish barqarorligini ta‘minlovchi muhitga o‘xshash muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Barqarorlik- bu, jamiyatning favqulotda holatlarda hamda o‘z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatini tiklash imkoniyatidir.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi ilk bor resurslarni chegaralanganligi to‘g‘risidagi masala keskinlashgan bir paytda yuzaga keladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining ta‘riflari ko‘p. Ularni umumlashtirgan holda oladigan bo‘lsak, iqtisodiy xavfsizlik – bu, davlat iqtisodiy tizimiga ta‘sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko‘p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig‘indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflari va yo‘qotishlariga qarshi turish

qobiliyatidir.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mazmuni ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. A.Proxojev va M.Kornilovlar mazkur tushunchani iqtisodiyotning progressiv rivojlanishi va normal darajada amal qilishining muhim sharti, iqtisodiyot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalaniishi deb tavsiflaydilar. Ularning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hayotiy muhim manfaatlar, shaxs, jamiyat va davlat mavjudligi hamda ularning progressiv rivojlanish imkoniyatlarini ishonchli tarzda ta’minlaydigan ehtiyojlarning qondirilishi demakdir¹.

T.E.Kochergina “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasiga iqtisodiy tizimning o‘zini-o‘zi o‘zgarimas hajmlarda, doimiy miqdoriy va sifat tavsiflarda takror ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo‘lgan holati deb ta’rif beradi².

D.V.Gordienkoning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik milliy xo‘jalikning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalaniish holati bo‘lib, bu holat jamiyatning izchil rivojlanishini, ichki va tashqi salbiy omillar ta’sir ko‘rsatayotgan sharoitda ham iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi³.

Ushbu fikrlarga asoslangan holda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi, deb ta’riflash mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli subyektlariga tegishli bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik va davlat korxonalari; milliy iqtisodiyot; davlat. Shu boisdan iqtisodiy xavfsizlik shaxs, korxonalar va davlatning iqtisodiy xavfsizligi shakllarida namoyon bo‘ladi. H.P.Abulqosimov fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlik shakllarini ishlab chiqarish-xo‘jalik, xo‘jalik-

¹ Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, №4, 2003.

² Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. –С.6.

³ Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. –М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. –С.8.

iste'mol, moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir⁴.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir. Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir. Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy tizimdagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi. Bunday sharoitda "Iqtisodiy xavfsizlik" fanini o'rganishning ahamiyati yanada oshadi.

"Iqtisodiy xavfsizlik" fanining predmeti - bir tomondan iqtisodiy tizimning ob'ektiv himoyalaniş hususiyatlari, unga xavf soladigan kuch va omillarga qarshi turish mexanizmini, ikkinchi tomondan, davlatning himoyachi sifatidagi funksiyalari, shu maqsadda tashkil etiladigan institutlar.

"Iqtisodiy xavfsizlik" fanining ob'ekti - mamlakat iqtisodiyoti va unda amalga oshadigan jarayonlar. Iqtisodiy xavfsizlik o'rganadigan ob'ektlarga quyidagilar kiradi: tabiiy boyliklar; inson resurslari, mehnatga layoqatli aholi; ishlab chiqarish fondlari; ko'chmas mulk; moliyaviy resurslar; xo'jalik tizimlari; mintaqalar; oila; inson.

⁴Abulqosimov H.P.Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T. "Akademiya", 2012.-26-29-betlar.

“Iqtisodiy xavfsizlik” fanining maqsadi - davlat, jamiyat va shaxsning muhim xayotiy manfaatlarini tan olgan xolda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish.

“Iqtisodiy xavfsizlik” fanining vazifalari:

- milliy xavfsizlik asoslari va ustuvorliklarini tushuntirish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari va yo'llarini ko'rsatib berish;

Iqtisodiy xavfsizlik o'zining obyekt va subyektlariga ega bo'lib, uning obyekti deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.

Iqtisodiy xavfsizlik obektlariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy boyliklar;
- inson resurslari, mehnatga layoqatli aholi;
- ishlab chiqarish fondlari;
- ko'chmas mulk;
- moliyaviy resurslar;
- xo'jalik tizimlari;
- mintaqalar;
- oila;
- inson.

Iqtisodiy xavfsizlik subektlari quyidagilardan iborat:

- funksional va tarmoq vazirliklari hamda idoralari;
- soliq xizmatlari;
- bojxona xizmatlari;
- banklar;
- birjalar;
- sug'urta kompaniyalari;
- qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo'mita va komissiyalari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va xizmatlar ko'rsatuvchilar;
- iste'molchilar jamiyatlari.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi turlari mavjud:

- ishlab – chiqarish texnologik sohalardagi xavfsizlik;
- sanoat sohasidagi xavfsizlik;
- oziq-ovqat xavfsizligi;
- demografik xavfsizlik;
- moliyaviy xavfsizlik;
- axborot xavfsizligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik va h.k.

O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga bo'ladigan tahdidlarni hisoblash va taxlil qilish imkonini beradigan bilimlarni shakllantirish va h.k.

1.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tamoyillari.

Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizim ahvolidagi quyi chegarasini ifodalovchi ko'rsatkichlar qo'llanadi. Mazkur quyi chegaralardan past ko'rsatkichlarda iqtisodiy tizim uchun tahdidlar vujudga keladi, hatto bu tizimning buzilishi, degradatsiyasi yuz bera boshlaydi. Ushbu quyi chegara va uning miqdoriy o'lchamlarini aniqlash, belgilash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- milliy iqtisodiyot va iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy sharoitlarini o'rganish va ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni tanglik va beqarorlikka olib keluvchi omillarni aniqlash;
- turli tanglik, xavfli holatlar yuzaga kelishining tartibi va imkoniyatlarini baholash;
- xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xavf soluvchi tahdidlarning oldini olish yo'llarini aniqlash⁵.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat O'z manfaatlarini anglab etgan davrlardan paydo bo'la boshlagan.

⁵ Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T. "Akademiya", 2012.-22-bet.

Iqtisodiy xavfsizlik o‘zining obyekt va subyektlariga ega bo‘lib, uning obyektiga deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.

Ko‘pgina komponentlarni qamrab oluvchi tizim haqida gapirganimiz uchun, faqatgina shu kabi xavfsizlik choralari sxemasi uning xavfsizligini kafolatlaydi. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tamoyillari:

1. Qonunning ustun roli.
2. Oilaning va davlatning iqtisodiy manfaatlari muvozanatiga rioya qilish.
3. Iqtisodiyotning “ustunlarini” himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan choratadbirlarning o‘z vaqtida bajarilishi.
4. Ham tashqi, ham ichki muammolarni tinch echimlardan afzal qilish.
5. Iqtisodiy xavfsizlikning davlat va xalqaro tizimlarini integratsiyalash.

Dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiyotini qamrab olgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda qabul qilingan islohot va modernizatsiya modelini amalga oshirishda tadrijiy yondashuvni tanlanganligi islohotlarni izchil va bosqichmabosqich olib borish imkoniyatini yaratdi. Raqobat bozor xo‘jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan o‘z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish zaruriyati boshqa shartsharoitlar bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki bozorning chegaralanganligi zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ham bir muncha cheklaydi. Bundan tashqari har qanday mamlakat iste‘mol tovarlarini ma‘lum qismini tashqi bozorlardan xarid qilishga majbur bo‘ladi. Mana shunday sharoitda mamlakat eksport salohiyatini oshirish importni ta‘minlash uchun valyuta tushumlarini kafolatlaydi. Demak, raqobatbardoshlik iqtisodiy xavfsizlik muammosi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Ular quyidagilardan iborat:

- ichki iqtisodiy salohiyat;
- tashqi iqtisodiy aloqalar;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish;
- moliya-kredit tizimi;
- infratuzilma;
- boshqaruv tizimi;
- ilmiy-texnik salohiyat;
- mehnat resurslari.

Mamlakatlar raqobatbardoshligining mezonlari tarkibini shakllantirishda iqtisodiyot, ta'lim, fan, huquqiy tizim, informatika, infratuzilma, moliya, soliq tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat, boshqaruv tizimi, ijtimoiy sohalarining rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga alohida ahamiyat berilgan.

Mamlakatda raqobatni qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirish, raqobat muhitini yaratish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yuksak iqtisodiy o'sishga erishish, iqtisodiyotning samarali tarkibini shakllantirishda va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlatni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalaridagi o'zgarishlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligini belgilovchi tamoyildir. O'tish davrida aynan davlat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda islohotlar jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi va ustuvor vazifalarini belgilashi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchil amalga oshirishi zarur ekanligini O'zbekiston tajribasi yaqqol namoyon qildi. Erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeliga asos qilib olingan mashhur besh tamoyil, ya'ni «...iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichmabosqich va vazminlik bilan amalga oshirish» kabi tamoyillar jahon iqtisodiyotini qamrab olgan moliyaviy va

iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligini ko'rsatdi. Raqobatni va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat chora-tadbirlari majmuasiga quyidagilar kirishi kerak:

- infratuzilma, malakali ishchi kuchi, ilmiy-konstruktorlik ishlanmalarini yaratish;
- samarali soliq va pul siyosatini o'tkazish, energiyatashuvchilar bozorini tartibga solish;
- talabni, ichki raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- bozordan sifatsiz mahsulotlarni siqib chiqarish uchun texnik va texnologik standartlarni aniq tizimini yaratish;
- xaridorlarga to'liq va sifatli axborotlarni etkazish;
- qoloq hududlarni rivojlanishini rag'batlantiruvchi mintaqaviy siyosatni amalga oshirish;
- eksportni rag'batlantirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

Iqtisodiy xavfsizlik o'z navbatida, ma'lum bir usullar yordamida ta'minlanadi. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga oid axborotlarni topish va jamlashda omilli analiz usulidan foydalaniladi. Iqtisodiy xavfsizlikni omilli analizga asoslanmagan holda tadqiq etib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy xavfsizlik ham bir tizim bo'lib, u bir qator o'zgaruvchi hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish omillari, omilli matritsa, deb nomlanuvchi indikatorlar bilan bog'liqdir.

Omilli matritsa analiz davomida aniqlangan omil va indikatorlarning o'zaro bog'liqlik darajasini xarakterlaydi. Omilli analizning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydigan umumiy qoidalarni ishlab chiqish va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotini hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonidagi kamchiliklar bilan uzviy bog'lanishini ta'minlashdan iboratdir.

Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat xavfsizligi deb bejiz ta'kidlanmaydi. Aholi istemol qiladigan har bir mahsulot iste'mol darajasiga tayyor bo'lishi bu o'ta muhim hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi qanchalik kuchli rivojlangan bo'lsa, kirib kelayotgan tovarlar, yaratilayotgan mahsulotlar shunchalik

iste'molga yaroqli va sifatli bo'ladi, jamiyat xavfsizligi ta'minlanadi, ular turli yaroqsiz mahsulotlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklardan himoya qilinadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashni asosiy ustivor milliy manfaatlar, real va potensial xavflarga bog'lik ravishda aniqlanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) Bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, uni murosasozligini oshirishlarga real mulkdorlar sinfini shakllantirishga yunaltirilgan iqtisodiy islohotlarni ketma-ket o'tkazish.

2) Xususiy tadbirkorlik, kichik va urta biznes rivojlanishini ragbatlantirish.

3) Mulkdor huquqlari va xususiy mulkni ximoyalash, iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlashni amaliy huquqiy mexanizmlarini shakllantirish.

4) Barqaror va dinamik iqtisodiy o'sish asosida insonlarni munosib hayot sharoitlarini tashkil etish.

5) Investitsion faoliyatini tezlashtirish, jahon bozorlarida zamonaviy rakobatbardosh maxsulotni ishlab chikarishini tashkil etish xisobiga mamlakatning iqtisodiy mustakilligiga erishish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgartirishlarini amalga oshirish.

6) Makroiqtisodiy barkarorlik, moliya pul-kredit tizimlar barkarorligini ta'minlash, milliy valyutani kuchaytirish.

7) Agrar sektorida radikal o'zgartirishlarini amalga oshirish, kishlokda bozor mexanizmini rivojlantirish, dexkonlarda egalik xissini uygotish.

8) Tabiiy, mineral-xom ashyo, iqtisodiy va ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish, mamlakat mintaqalarini kompleks rivojlantirish.

9) Favqulodda xolatlarida iqtisodiyotni barqaror ishlashini ta'minlash.

10) Tashqi iqtisodiy integratsiyasini faollashtirish, xorijiy kapitalni keng jalb etish salohiyatini rivojlantirish, eksport maxsulot eksporti va importi tuzumini takomillashtirish va boshqalar.

Demak, mamlakatning rivojlanishida uning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta'minlay bilish muhim hisoblanadi. Bu o'z navbatida bir tomondan davlat

xavfsizligi hisoblansa, boshqa tomondan iqtisodiy rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Iqtisodiy xavfsizlikning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri va tahdidlardan himoya qilishga yo'naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Milliy xavfsizlik turlari²

Jahon tajribasi ko'rsatib turibdiki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat mustaqilligining kafolati, barqarorlik va jamiyatning samarali hayoti va muvaffaqiyatlarga erishish shartidir. Bu iqtisodiyot jamiyat, davlat va shaxs

² "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi". H.P.Abulqosimov. Toshkent - 2012

faoliyatining hayotiy jihatlaridan biri ekanligi bilan izohlanadi va shuning uchun milliy xavfsizlik tushunchasi iqtisodiyotning hayotiyligini, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kuchini baholamasdan bo'sh so'z bo'ladi. Shuning uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash eng muhim milliy ustuvorliklardan biridir.

Albatta, iqtisodiy xavfsizlik davlat xavfsizligi tizimiga mamlakatning ishonchli mudofaasini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy tinchlikni saqlash va ekologik ofatlardan himoya qilish kabi tarkibiy qismlar bilan birgalikda kiritilgan. Bu erda hamma narsa o'zaro bog'liq bo'lib, bir yo'nalish boshqasini to'ldiradi: zaif va samarasiz iqtisodiyoti bilan harbiy xavfsizlik bo'lishi mumkin emas, xuddi ijtimoiy ziddiyatlar natijasida parchalanib ketgan jamiyatda harbiy xavfsizlik yoki samarali iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas. Ammo, xavfsizlikning u yoki bu jihatlarini hisobga olgan holda, ularning iqtisodiy jihatlarini chetlab o'tish mumkin emas.

Yengillik va yaqinlashib kelayotgan xavflarni minimallashtirishga urinishlar bu erda qabul qilinishi mumkin emas. Iqtisodiy xavfsizlik kontsepsiyasini ishlab chiqishda fanning o'rni juda muhim va mas'uliyatli. Bundan tashqari, bu nafaqat og'zaki mashqlarda, balki chiroyli formulalarni qidirishda emas, turli xil xavf-xatarlarni tasniflashda - tashqi va ichki, uzoq muddatli va dolzarb. Muammoning mohiyatini ochib berish, haqiqiy tahdidlarni aniqlash, ularni qaytarishning ishonchli va samarali usullarini taklif qilish tubdan muhimdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati mezon va ko'rsatkichlar tizimida amalga oshiriladi. Ammo iqtisodiy xavfsizlik uchun ko'rsatkichlarning o'zi emas, balki ularning chegara qiymatlari muhim ahamiyatga ega. Eshik qiymatlari cheklov qiymatlari bo'lib, ularning qiymatlariga mos kelmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarining rivojlanishining normal rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, iqtisodiy xavfsizlik sohasida salbiy, buzg'unchi tendentsiyalarning shakllanishiga olib keladi.

Ushbu fan iqtisodiy xavfsizlikka oid nazariy xulosalarni ijtimoiy hayot bilan bog'lashga xizmat qiladi. Mazkur fanni o'rganishda Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida bayon etilgan ilmiy qoidalarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

iqtisodiy islohotlar amaliyoti bilan bog‘lashga katta ahamiyat berildi. Unda XXI asr iqtisodiyotidagi jiddiy o‘zgarishlar inobatga olindi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yoshlarimiz jadal yangilanayotgan iqtisodiyot sharoitida yashashi va ishlashi uchun, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev saylov oldi dasturlarini bayon etganlaridek: «Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi».

Asosiy tayanch iboralar

Xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, iqtisod, siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi, demografik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Takrorlash uchun savollar

1. “Iqtisodiy xavfsizlik” fani nimani o‘rgatadi?
2. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining obyekti deganda nimalarni tushunasiz?
3. “Xavfsizlik” va “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchalarining mohiyati qanday?
4. “Iqtisodiy xavfsizlik”ning qanday turlari bor?
5. “Iqtisodiy xavfsizlik”ning tarkibiy elementlari nimalardan iborat?
6. Iqtisodiy xavfsizlik inshootlari nimalarni tushunasiz?
7. Iqtisodiy xavfsizlik muammolariga nimalar kiradi?

II-BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAKLLARI VA ASOSIY KO'RSATKICHLAR

2.1. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari.

2.2. Iqtisodiy xavfsizlikning darajalari va iqtisodiy tahdidlar

2.3. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari va makroiqtisodiy indikatorlari

2.1. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, iqtisodiyotning xavfsizligi holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda orientir bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tizimdagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi. Ma'lum davrlarda jahon iqtisodiyotida, alohida olingan mintaqalarda, mamlakatlarda sodir bo'ladigan turli inqirozlar milliy, shu jumladan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining dolzarbligini oshiradi. AQSH ipotekali kreditlash tizimidan boshlanib, keyinchalik jahon iqtisodiyotini qamrab olgan "moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi".

Bunday sharoitda milliy manfaatlarni himoya qilish, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholini turmush darajasini pasayib ketishini oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada zaruriy chora-tadbirlarni belgilash uchun esa tahdidlarning xarakteri, miqyosi, ularning oqibatlarini bilish kerak bo'ladi. Hozirga kelib O'zbekiston integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning, global moliyaviy- iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida va boshqalarda ko'rish mumkin. Bunday sharoitda mamlakat korxonalarini tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash, dunyo bozorlari talabiga javob

beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni rag'batlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash esa mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ham, milliy xavfsizlikni ham birdek ta'minlash davlatning eng asosiy funksiyalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik shakllarini uning obyekt va subyektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiyot subyektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxonaning iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganini ifodalaydi. Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste'molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarining, manfaatlarining himoya-langani, kafolatlangani nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin.

Korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning ixtisosligiga ko'ra xavfsizligini ta'minlash xususiyatlari ham turlicha bo'lishi tabiiydir. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning mamlakat ichki muammolari va tashqi iqtisodiy faoliyati hamda xalqaro moliyaviy tashkilot va uyushmalarda ishtirok etishi bilan bog'liq xavf-xatarlar nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiy adabiyotda xavfsizlik xo'jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai nazaridan, asosan uch yo'nalish, ya'ni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-

iste'mol va moliyaviy sohalar bo'yicha turkumlanadi. Bizning nazarimizda, ushbu uch yo'nalish barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgani bilan, ayrimlari uchun qo'shimcha yo'nalishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekiston uchun xalqaro bozorlarga chiqishda yangi transport yo'llari, kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, aholining turmush darajasi, daromadlar bo'yicha tabaqalanishi bilan bog'liq ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash ham alohida o'rin tutadi. Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol, moliyaviy, transport kommunikatsiya va ijtimoiy sohalar bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarish-xo'jalik sohasida energetik va texnologik xavfsizlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Bu o'rinda ayniqsa, energetika resurslarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki mazkur resurslar har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik xom ashyo hisoblanib, uning salohiyatini, mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi. Mamlakat iqtisodiyoti energetik xom ashyo resurslarining importiga bog'liq bo'lib qolsa, u holda iqtisodiy mustaqillikka erishish mushkul muammoga aylanadi.

Texnologik xavfsizlikning ta'minlanishi istiqbolda fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan o'z vaqtida va to'liq foydalanish imkoniyatini, intellektual salohiyatdan xo'jalik faoliyatida foydalanish darajasini ifodalaydi. Shu boisdan energetik va texnologik xavfsizlikning ta'minlanishi mamlakat iqtisodiyotining salohiyatini, qudratini va mustaqilligini hamda raqobatbardoshligini ifodalaydi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash uchun yangi energetika resurslarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, iste'molchilarga etkazib berish va ularni sotish tizimini tashkil etish muammolarini hal etish lozim. Yonilg'i-energetika resurslarini qidirib topish, qazib olish va dastlabki qayta ishlashni yo'lga qo'yish hamda uning hajmini ko'paytirish orqali milliy iqtisodiyot ehtiyojlarini to'liq qondirish mumkin. Buning oqibatida energiya resurslarini chetdan tashib kelishga barham berilib, energetika mustaqilligiga erishiladi.

Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotining ilg'or texnika va texnologiya bilan jihozlangan; boshqa mamlakatlardan keltiriladigan texnologiyaga qaram

emasligini ifodalaydi. Shuningdek, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasini, intellektual, innovatsion va injenerlik salohiyatining himoyalanganini ham aks ettiradi. Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiy qudratini aks ettirgan holda, o'zining texnologiyasiga asoslangan, jahon bozorlarida o'xshashi yo'q, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda o'z ifodasini topadi. Uning asosiy ko'rsatkichlari ilmtalab va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarilishida namoyon bo'ladi. Binobarin, bu hol fantexnika sohasidagi yutuqlar asosida yangi texnika va texnologiyani rivojlantirishni ham taqozo etadi. Texnologik xavfsizlik iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga olgan, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish, milliy va xorijiy ilg'or zamonaviy texnologiyalardan, intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish asosida ta'minlanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi ichki imkoniyatlardan foydalangan holda mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan etarli darajada ta'minlanishini, import mahsulotlarga bog'liqlikni pasaytirishga erishishni ifodalaydi. Har bir mamlakat agrar sektori islohotidan ko'zlangan bosh maqsad-oziq-ovqat ta'minoti mustaqilligiga erishish bo'lib, katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. O'zini o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash zarurati mamlakatda mustaqillik, iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish shartlaridan biri hisoblanadi.

Hayot faoliyati makonining buzilishi, tabiiy resurslarga iste'mol talabining o'zgarishi atrof-muhitning, ekologiyaning yomonlashuviga olib keladi. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi. Ekologik xavfsizlik tabiiy muhitga turli noxush ta'sirlardan, tabiiy ofat va falokatlardan hamda inson va xo'jalik subyektlarining atrof-muhitga salbiy ta'siridan himoyalanganlikni ifodalaydi. Atrof-muhitning shunday xususiyatlari majmui mavjudki, ularning inson faoliyati natijasida o'zgarishiga hech yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik turlaridai yana biri moliyaviy sohadagi faoliyat bilan bog'liq xavfsizlik hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlik mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi uchun zarur moliyaviy sharoit va

resurslarning yaratilganini, moliyaviy tizim yaxlitligini saqlash hamda ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlar tahdidlariga muvaffaqiyatli qarshilik qilishni ifodalaydi. Bu xavfsizlik pul, byudjet, kredit, soliqqa tortish va valyuta tizimlarida vujudga keladigan tahdidlarning oldini olish, ulardan muhofazalanish kabilarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy xavfsizlik esa aholining eng boy va eng quyi tabaqalari daromadlari o'rtasidagi farq, qashshoqlik muammosi, turli yuqumli kasalliklar ko'lamining kengayishini oldini olish zaruratida o'z ifodasini topadi. Mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida ichki va tashqi transport yo'llari va kommunikatsiyalar tizimining yaratilishi orqali mazkur tizim xavfsizligi ta'minlanadi. XX asrning oxirgi choragida jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi rivojlanishi globallasuv jarayonlari ta'sirida amalga oshdi. Globallasuvning iqtisodiy mazmuni va mohiyati birinchi navbatda xo'jalik taraqqiyotining manbalari, omillari va shakllari bilan bog'liqdir. Bu erda gap sarmoyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi, intellektual va moliyaviy resurslar, boshqaruv va boshqalar to'g'risida ketmoqda. Ushbu jarayonlar xalqaro savdo va investitsiya hajmlarining o'sishi, jahon moliya bozorlari va ishchi kuchi bozorlarining misli ko'rilmagan tarzdagi diversifikatsiyasi, jahon xo'jalik aloqalarida transmilliy korporatsiyalar rolining oshishi, global raqobatning keskinlashuvida namoyon bo'lmoqda.

2.2. Iqtisodiy xavfsizlikning darajalari va iqtisodiy tahdidlar

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatidirki, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalangani, mamlakat iqtisodiy rivojining ijtimoiy yo'naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlar rivojidadagi eng noqulay sharoitda ham mudofaa salohiyatining etarli darajada ta'minlanganligini ifoda etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:

- xalqaro (global va mintaqa darajasida);
- milliy, lokal (mamlakat ichidagi mintaqa yoki tarmoq darajasida);
- xususiy (firma va shaxs darajasida).



2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik darajalari⁷

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – bu har bir davlat, ya’ni dunyo hamjamiyati a’zosining o’z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta’minlangandagi holatidir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishda taraqqiyot modellarini zo’rlab o’tkazish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan majburlashdan voz kechish, har qanday xalqning o’z mustaqil yo’lini tanlash huquqini tan olish, turli mulkchilik shakllari va manfaatlarining mavjudligini qonuniy ekanligini hurmatlash yo’lidan boriladi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining milliy manfaatlarini kafolatli himoyalanganligi, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy yo’naltirilganligi, etarli iqtisodiy va mudofaa salohiyatining ta’minlangandagi holatini ifodalaydi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi– ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener-texnik chora-tadbirlar tizimi

⁷Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. – СПб.: Питер, 2007, с. 67

tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir⁸.


Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy vazifasi mamlakatning jahon iqtisodiy tizimidagi mavqeini saqlash va mustahkamlashdan iborat. Hozirda iqtisodiy xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotini doimiy barqaror rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan umummilliy chora-tadbirlar majmuiga asoslanadi, bu majburiy ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va davlatning mustaqilligini, shuningdek tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmini nazarda tutadi. Albatta, milliy xavfsizlik tushunchasi davlatning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasidan kengroqdir. Ammo iqtisodiy xavfsizlikni milliy xavfsizlikning asosi deb hisoblash mumkin, chunki bu butun davlat xavfsizlik tizimining moddiy asosi bo'lib, odamlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamiyat va davlatning asosiy manfaatlarini ifoda etadi. Bundan tashqari, milliy xavfsizlikning mavjud tarkibiy elementlarining har birida iqtisodiy jihatni ajratish mumkin, chunki deyarli har qanday milliy manfaatlar muayyan iqtisodiy tarkibga ega. Bu erda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq va bitta yo'nalish boshqasini to'ldiradi: zaif va samarasiz iqtisodiyotda harbiy xavfsizlik bo'lishi mumkin emas, chunki jamiyatda harbiy xavfsizlik ham, samarali iqtisodiyot ham bo'lmaydi.

Ammo xavfsizlikning u yoki bu jihatlari hisobga olsak, ularning iqtisodiy jihatlari chetlab o'tishning iloji yo'q. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimida etakchi o'rinni egallaydi: shu bilan birga u milliy xavfsizlik tizimining asosiy elementi va boshqa tarkibiy qismlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning ichki va tashqi shart-sharoitlari mavjud bo'lib, ichki sharoitlariga shaxsning rivojlanishi, konstitutsion tuzumning mustahkamlanishi, mamlakat hudularining yaxlitligi va bo'linmasligini ta'minlash hamda xo'jalik va boshqa faoliyatlar, favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, falokatlar ta'sirida vujudga keladigan noxush ekologik holatlardan kishilar salomatligini

⁸ Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2006, 111 – б.

saqlash kiradi. Tashqi sharoitlarga esa sherikchilik va o‘zaro hamkorlik asosida xalqaro aloqalarning samarali tizimini shakllantirish va rivojlantirish, tashqi agressiyalarni qaytarish qobiliyatini ta’minlash, o‘zining iqtisodiy, harbiy-siyosiy, intellektual salohiyatiga mos ravishda xalqaro hamjamiyatda o‘ziga munosib o‘ringa ega bo‘lish kiradi. Ushbu iqtisodiy manfaatlarning ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiluvchi turli-tuman tahdidlar, xavf-xatarlardan himoya qilish davlat zimmasiga yuklatilgan.



3-rasm. Iqtisodiy tahdidlar tarkibi

Iqtisodiy tahdidlarni eng umumiy tarzda ichki va tashqi tahdidga ajratib o‘rganish mumkin. Tashqi tahdidlar geopolitik, tashqi-iqtisodiy, shuningdek, global ekologik omillar bilan tavsiflanadi (3-rasm).

Iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar.

Mamlakatning ichki iqtisodiy sohadagi xavfsizligi tabiiy, texnik-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy hamda boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va beqarorlik, tangliklar ta’siridan himoyalanish orqali ta’minlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

–ilgarigi tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalshgan iqtisodiyotning meros qolganligi;

– ko‘pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig‘imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;

– iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;

– yuqori darajadagi inflyatsiya;

– infratuzilma obyektlarining etarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi;

– mineral xom ashyo bazalarining kam o‘rganilganligi va xo‘jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining etarli emasligi;

–mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo‘nalishlarida ilg‘or o‘rinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat obro‘sining tushib ketishi;

–ichki bozorlarda chet el firmalari tomonidan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining, shu jumladan, iste‘mol tovarlarining siqib chiqarilishi;

– hududiy separatizm tendensiyasi va boshqarish qarorlarni qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajadaliigi;

– investitsion faollikning pastligi;

– kapital xarajatlar o‘rniga joriy xarajatlarni afzal ko‘rish;

– sotsial ziddiyatlarning kelib chiqish xavfining mavjudligi.

– qonunchilikning rivojlanmaganligi, bir qancha iqtisodiy subyektlarning ichki va tashqi bozorda monopol holatda ekanligi g‘ayriqonuniy faoliyat ko‘ratishi hamda huquqiy intizomining pastligi;

–iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy va shartnomaviy intizomining pastligi;

–iqtisodiyotning kriminallashuvi va uni boshqarishda korrupsiyaning kuchayishi;

– daromadlarni yashirish va soliq to‘lashdan qochish holatlarining ko‘payishi;

– moliyaviy mablag‘larni chet ellarga noqonuniy tarzda o‘tkazish.

Tahdidning ichki omillarini, o'z navbatida, ikki guruhga ajratish mumkin:

- iqtisodiy tizimni davriy rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq tahdid omillari;
- davriy rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq bo'lmagan omillar.

birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;

ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;
- mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog'liqligi;
- tashqi qarzlarning o'sib borishi;
- eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi;
- raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanmaganligi hamda import tarkibining ratsional emasligi;
- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi.

Davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidlarni aniqlab, ularning oldini olish maqsadida iqtisodiy siyosat maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini yaratadi.

Birinchi guruh omillari harakati oqibatida ma'lum vaziyatda makroiqtisodiyot darajasida salbiy holatlar yuzaga kelib, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid so'lishi mumkin. Ikkinchi guruh omillari harakati esa uzoq muddatli davrda xo'jali tizimi muhim elementlarining takror ishlab chiqarilishi natijasida to'plangan noxush tendensiyalar tufayli yuzaga keladi.

Ichki tahdidlar ichida xufyona iqtisodiyot o'ta xavfliligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unga qarshi kurash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar.

Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlik nita'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi:

- birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlabchiqarish uchun qulay sharoit yaratish;

ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;

mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog'liqligi;

tashqi qarzlarning o'sib borishi;

eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi;

raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy axborot infratuzilmalarining rivojlanmaganligi hamda import tarkibining rasional emasligi; eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivojlanmaganligi.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketish tashqi bozorga nihoyatda bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoriga ham jiddiy xavf tug'diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadiligining o'ziyoq milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosat

yuritishni shubha ostiga qo'yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo'lib qoladi.

Davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidlarni aniqlab, ularning oldini olish maqsadida iqtisodiy siyosat maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini yaratadi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasi pirovard maqsadi va uni amalga oshirish bosqichlarida o'z ifodasini topishi lozim. Bu erda shuni aytib o'tish joizki, o'tish davrida iqtisodiy tahdidlarning ko'pligi va keskinligi, birinchi navbatda, zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishga katta e'tibor berishni taqozo etadi. Shu davrda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning kafolati bo'lgan davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xo'jalik va siyosiy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish;
- ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo'lganligi to'g'risida signal beruvchi indikatorlarni kiritish;
- iqtisodiy tahdidlarni yumshatish, bartaraf etish, neytrallashtirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ta'minlash konsepsiyasi doimo uzoq muddatli milliy davlat manfaatlariga asoslanadi. Boshqacha aytganda, mazkur konsepsiya mamlakatning kelajagi to'g'risidagi tasavvurga, islohotlar natijasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy modelga, shuningdek, barqaror, mustahkam rivojlanish strategiyasiga bog'liq bo'ladi.

2.3. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari va makroiqtisodiy indikatorlari.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makro va mikro darajada iqtisodiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Lekin shularning ichida 19 ta indikatoridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaniladi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida va ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim

jihatlarni ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ular orasidagi o'zaro bog'liqlikdir. Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko'rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo'lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo'qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi ob'yektiga aylanib qoladi, milliy boyliklarning talon-taroj qilinishi, xufiyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko'radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo'lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi. Demak mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma'lum bir chegara doirasida yo'l qo'yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko'rsatkichlarning o'zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. SHu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to'sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha milliy manfaatlarni ta'minlash maqsadida ko'rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Mutaxassislarining fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yo'llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazisini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta qurish, yangi bozor institutlarini, xo'jalik yuritish dastaklarini, boshqarish tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur bo'ladi.

- iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:
- yalpi ichki mahsulot (hududiy yalpi mahsulot);
- inflyatsiya darajasi;
- davlat byudjeti kamomadi;
- ichki qarz darajasi; tashqi qarz darajasi;
- ishsizlik darajasi;

- turmush darajasi va sifati;
- oltin valyuta zahiralari;
- xufiyona iqtisodiyot faoliyati;
- ekologik holat.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari yana bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud bo'lib ular quyidagicha ta'siflandi. Masalan, aholi daromadlari, chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta'minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to'lov balansi, eksport-import saldosu va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo'lgan va bir chegaraviy ko'rsatkich boshqa bir chegaraviy ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi. Xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik dinamikada o'rganilishi zarur. Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ko'rsatkichni o'z ichiga olgan bo'lib, ular **to'rt guruhga** ajratilib gurkumlangan:


- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy tizim barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ijtimoiy soha ko'rsatkichlari;
- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun harajatlar ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga esa davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va boshqamoliyaviy ko'rsatkichlar kiradi.

Uchinchi guruh aholi daromadlari darajasi, aholining mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik kabilarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlariga esa mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi.



4- rasm. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining turkumlanishi

Bunday ko'rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Chegara ko'rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarining miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur ko'rsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'lganligi bois **YAIM** hajmi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu ko'rsatkich asossifatida olinishi kerak. Jahon tajribasidan ma'lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada bo'lishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi **7-10** % tashkil etishi, boy va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib ko'rsatiladi:

Birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bog'liqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- YAIM umumiy hajmi – “katta ettilik” bo'yicha o'rtacha indikatorning 75 % miqdorida;
- aholi jon boshiga YAIM hajmi – “katta ettilik” bo'yicha o'rtacha indikatorning 50 % miqdorida;
- sanoatda ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushi – 70 %
- YAIMda investitsiyalar ulushi – 25 %
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi – 20 %
- aholining ichki iste'molida import ulushi – 30 % shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari – 25 %
- mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi – 6 %

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlari tarkibiga aholi turmush darajasi va sifati bilan bog'liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- aholining umumiy yashash past daromadga ega bo'lgan fuqarolar ulushi - 7 %
- umr ko'rish uzunligi – 70 %
- ishsizlik darajasi – 7 %

Uchinchi guruh ko'rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- YAIMga nisbatan ichki qarz miqdori – 30 %
- YAIMga nisbatan tashqi qarz miqdori – 25 %
- YAIMga nisbatan byudjet defitsiti – 5 % gacha;
- naqd xorijiy valyuta hajmining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati 25 %
- YAIMga nisbatan pul massasi – 50 %

Chegaraviy ko'rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo'yish uslubiy jihatdan uncha to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko'rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YAIMga nisbatan hisoblaganda 25 % dan kam

bo'lgan holatda iqtisodiy tahdid yuzaga keladi. Lekin, ayni paytda investitsiyalar ulushi 40 % bo'lganida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin. Farq shundaki, birinchi holatda mehnat qurollarining moddiy va ma'naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat aholi turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim chegaraviy miqdorlarini qat'iy qilib emas, balki ma'lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'rsatkich miqdori quyi chegaradan past tushgandagina iqtisodiy tahdid vujudga keladi. Bu chegara-iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan xo'jalik nisbatlarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indiqatorlar bo'lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga taxdid soladi.

Tahlikali chegaralarni belgilash bo'yicha ham iqtisodiy adabiyotlarda turli xil qarashlar mavjud. Bu iqtisodiy xavfsizlik muammosining murakkabligi va ko'p qirraligi bilan izohlanadi. Jamiyatning xavfsiz rivojlanishi chegaralarini aniqlash uchun miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birga sifat ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlik mezonlari deganda iqtisodiy xavfsizlik darajasining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ifodalovchi belgilar majmuini tushunish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik mezonlari iqtisodiyotning joriy holatiga baho berish imkonini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida iqtisodchi-olimlar quyidagi mezonlar ajratib ko'rsatiladi:

- turmush darajasi va sifati;
- inflyasiya sur'ati;
- byudjet defisiti;
- ishsizlik me'yori;
- iqtisodiy o'sish;
- davlat qarzi;
- oltin-valyuta zaxiralari;

- jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv darajasi;
- xufiyona iqtisodiyot faoliyati;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

1-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegaralari

Ko'rsatkichlar	Tahlikali chegaralar	Ko'rsatkichlar	Tahlikali chegaralar
1. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanish qobiliyati		2. Ijtimoiy soha	
Qayta ishlash sanoatining jami sanoatdagi ulushi, %	20	Yashash minimumidan past darajada yashayotgan aholining ulushi, %	7
Innovasion mahsulotlarning jami sanoatdagi ulushi, %	15	Aholining umr ko'rish uzoqligi, yil	70
Mashinasozlikning jami sanoatdagi ulushi, %	20	Eng yuqori va eng past 10 foiz aholi qatlamlari daromadlari o'rtasidagi nisbat, marta	8
Investisiyalarning YaIMdagi ulushi, %		Jinoyat darajasi (100 ming kishiga to'g'ri keladigan jinoyatlar), ming	5
Harbiy xarajatlar, YaIMga nisbatan %	5	Ta'limga xarajatlar, YaIMga nisbatan %	10
Ilmiy tadqiqotlarga xarajatlar YaIMga nisbatan %	2	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik, %	7
Yangi turdagi mahsulot turlarining mashinasozlikdagi ulushi, %	6	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha pul daromadlarining yashash minimumiga nisbati, %	250
3. Tashqi savdo		Madaniyatning YaIMdagi ulushi, %	0,5
1. Import bo'yicha olingan resurslarning tovar resurslarining umumiy hajmiga nisbati, % shu jumladan:	30	Sog'liqni saqlashning YaIMdagi ulushi, %	1,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	25	Ta'limning YaIMdagi ulushi, %	1,5
Kimyo va neft kimyosi mahsulotlari	30	4. Moliya tizimining barqarorligi	
Engil sanoat mahsulotlari	30	Yillik inflyasiya darajasi, %	20
Mashina va uskunalalar	20	Ichki qarzlarning YaIMga nisbati, %	30
2. Eksportning jami ishlab	30	Ichki qarzlarga xizmat	

Ushbu me'yorlar asosida mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga baho berish uchun haqiqatda erishilgan natija tahlikali chegara (me'yor)lar qiymati bilan solishtiriladi.

Bunday usulda mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasiga baho berishning asosiy kamchiligi ko`rsatkich (indikator)larning aniqlik va haqqoniylik darajasini aniqlashning murakkabligi, ijtimoiy-iqtisodiy tizim xususiyatlarini hisobga oladigan ko`rsatkichlarni aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalarning mavjud emasligidir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, indikatorlar, xavfsizlikning chegarasi, milliy xavfsizlik, iqtisod, siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi, demografik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy xavfsizlikning indikatorlari nima?
2. Iqtisodiy xavfsizlikning darajalarini ta'riflab bering.
3. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy xavfsizlikning chegara ko'rsatkichlari qanday bo'lishi lozim?
5. Iqtisodiy xavfsizlikning chegara ko'rsatkichlari nechta guruhdan iborat?
6. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini guruhlarga ajrating.
7. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi qanday tahdidlar mavjud?
8. Iqtisodiy xavfsizlikka ichki va tashqi tahdidlar qanday chegaraviy qiymatlarga ega?
9. Iqtisodiy xavfsizlikning makroiqtisodiy indikatorlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni qanday tavsiflaysiz?

III-BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMI

3.1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining kontseptual asoslari va strategiyasi

3.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash

3.3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tartibga soluvchilik vazifalari

3.1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining kontseptual asoslari va strategiyasi

O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari bozor munosabatlariga o'tishdagi iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyekt-lari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga, fuqarolarga ziyon keltirili-shiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivoj-lantirish, fond bozorini, er va ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, hokimiyatning barcha bo'g'inlarida qonun loyihalarining sifati va asoslanganlik darajasini oshirish hamda qonu'ga barchani, hatto davlat hokimiyati organlarining ham qat'iy rioya etishlari bo'yicha tadbirlar amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Har bir mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash asosiy masala bo'lib, bunda davlat asosiy rolni o'ynaydi. Shuning uchun, dastlabki yillardan boshlab milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish, uning asosini yaratuvchi qonunlarni yaratish ishlari amalga oshirildi.

Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo'lishiga, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning uyg'unlashgan tizimini yaratishga erishish yo'lidan borildi. Milliy xavfsizlik ko'p jihatdan Vatanimiz mudofaa qudratining asosi - mamlakatning iqtisodiy qudratiga bog'liq. Shuning uchun iqtisodiy qudratni rivojlantirish ishlari to'xtovsiz olib borildi.

Mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlashning asosi yoshlar ekanligiga hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida jahondagi mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatildi. Milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi tamoyillari 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sessiyasida aniq bayon qilib berildi. 1996-yil 24-aprelda Oliy Majlis sessiyasida "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi qonun muhokamaga qo'yildi. 1997-yil avgust oyida bo'lib o'tgan Oliy Majlis sessiyasida esa, Respublikaning milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi. Milliy xavfsizlik endi faqat davlat xavfsizligini ko'zda tutmay, shaxs huquq va erkinliklarini; jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini; davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini saqlashni ham ko'zda tutadi. Prezidentimizning; "Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishining asosiy sharti va garovi - mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'iday asrashdir"¹ - degan so'zlari mamlakatimiz xavfsizligining ahamiyatini yanada to'laroq ko'rsatadi. Mamlakat milliy xavfsizligini saqlashda davlatning olib boradigan tashqi siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli milliy xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq davlatimizning tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari 2005-yildagi Oliy Majlis Palatalarining qo'shma majlisida Prezident tomonidan ko'rsatib o'tildi. Ma'ruzada O'zbekiston tashqi siyosatining mazmuni, maqsadi bitta-u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaatidir, deb alohida qayd qilindi. Hamda O'zbekistonning xavfsizligi Markaziy Osiyodagi tinchlik va barqarorlikka, qo'shni davlatlardagi ahvolga bog'liqligi, O'zbekistonning xavfsizligini ta'minlash yo'lida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligi e'tirof etildi. Xavfsizlik va uning ta'minlash usullaridan bo'lgan mudofaa ahamiyati yuqoriligi e'tiborga olinib, shu masalalarning asoslari Konstitutsiyaviy tartibda mustahkamlangan. O'zbekiston Konstitutsiyasi mudofaa va xavfsizlikka alohida XXVII bobni ajratgan. O'zbekistonning davlat suvereniteti

va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish konstitutsiyaviy normada o'z ifodasini topgan- (125-modda). Mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash doimo ustuvor masalalardan bo'lib kelgan.

O'zbekiston Prezidenti ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida jamiyat hayotidagi muhim ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatar ekan: "Ikkinchi ustuvor yo'nalish. Bu - mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdan iborat", - deb qayd qilgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, mudofaa va xavfsizlik faqat davlat va mamlakat xavfsizligi, chegaralar daxlsizligi uchun emas, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligi, normal turmush kechirishini ta'minlash uchun ham zarur. "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunga asosan, mudofaa yaxlit bir tizim bo'lib (Qonunning 2-moddasi), u aniq prinsiplar asosida tashkil qilinadi. Mudofaa sohasidagi O'zbekiston siyosati prinsiplari quyidagilardan iborat:

- boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tashqi tajovuzlarning oldini olish;
- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etish;
- harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolar xususiyatiga mosligini ta'minlash;
- yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, egallashni, saqlashni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish;
- Qurolli Kuchlarning mamlakatga beriladigan har qanday tajovuzni daf etishga doimiy tayyor turishi;
- mudofaani yetarli darajada bo'lishi;
- harbiy xizmatni sharaflilikni ta'minlash.

Mamlakatda mudofaa ishlarini tashkil qilish, xavfsizlik, xavfsizlikni saqlashga e'tibor hech vaqt va hech qanday holda susaytirilmasligi kerak. Hozirgi davda mamlakatimiz xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirayotgan narsa — bu terrorizm bo'lib

qolmoqda. Uning mudhish ishlaridan bir necha marta aziyat chekildi va qurbonlar berildi.

O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari bozor munosabatlariga o'tishdagi iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyekt-lari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga, fuqarolarga ziyon keltirili-shiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivoj-lantirish, fond bozorini, yer va ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, hokimiyatning barcha bo'g'inlarida qonun loyihalarining sifati va asoslanganlik darajasini oshirish hamda qonu'ga barchani, hatto davlat hokimiyati organlarining ham qat'iy rioya etishlari bo'yicha tadbirlar amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat quyidagilarni ko'zda tutishi lozim:

- ijtimoiy institutlar strategiyalarini bir-birlariga yaqinlashtirish, ularning faoliyatlarini koordinatsiyalashtirishga imkon beradigan institutsional o'zgarish-larni amalga oshirish;

- xo'jalik jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun lobbizmni konuniy cheklash, qonunchilikni maksimal unifikatsiyalash (ya'ni imtiyozlari va turli prefe-rensiyalarni qisqartirish va yo'qotish) uchun iqtisodiy va ijtimoiy umumiy tamo-yillarini ishlab chiqish va qabul qilish;

- iqtisodiyot subyektlari va davlat boshqaruv organlari tomonidan qonun-larga, tartib-qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilish;

- iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan munozara va ziddiyat-larni hal qilish mexanizmini yaratish;

- kadrlarni korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va investitsiya loyiha-larini baholashning zamonaviy usullari bilan tanishtirish;

- jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy keskinlikning o‘shishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- mamlakat iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish. Shunga muvofiq, ravishda sobiq totalitar tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim bo‘ladi:

1) Samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo‘llab- quvvatlash va istiqboli yo‘q, eskirgan ishlab chiqarishdan voz kechish;

2) tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;

3) iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash;

4) mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng ilg‘or tomonlarini saqlash;

5) iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barxam berishda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to‘lovga qodir talab bilan uyg‘unlashtirish;

6) korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;

7) eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;

8) ekologik xavfsizlikni oshirish.

Ushbu vazifalarni bajarish milliy iqtisodiyotning ko‘pchilik tarmoqlarining raqobatbardosh emasligini bartaraf etishga imkon yaratadi. Bundan kelib chiqqan holda, tarkibiy siyosat mikro va makro iqtisodiyot darajalarida uch asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Davlat hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash uchun ma‘lum tarmoq va sohalarni selektiv qo‘llab-quvvatlashi darkor bo‘ladi.

Makroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida quyidagi vazifalar hal qilinishi zarur:

- jami talabni oshirish;

- jamg‘arish normasini o‘stirish va uni investitsiyaga aylanishini ta‘minlash;

-rivojlanishdan to‘xtab qolgan sektorlardagi barcha turdagi resurslarni rivojlanayotgan sektorlarga o‘tishini rag‘batlantirish;

- yalpi investitsiyalarni ko‘paytirish;
- eksportni rag‘batlantirish;
- umumqabul qilingan tartib-qoidalar doirasida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida importni tartibga solish.

Mikroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni, amalga oshirish jarayonlarida quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo‘ladi:

- iqtisodiy nuqtai nazardan samarali korxonalar va ishlab chiqarishlarning rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

- samarasiz ishlab chiqarishlarni, korxonalarni tugatish yoki reorganizatsiya, ya’ni qayta tashkil etish;

- yangi monopolistik tuzilmalarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- tarmoqlararo kapital oquvchanligini ta’minlash maqsadida fond bozorining rivojlanishini tartibga solish va rag‘batlantirish;

- narx o‘shirishni to‘xtatish chora-tadbirlarini ko‘rish;

- iqtisodiy subyektlar xatti-harakatining bozorga xos normalarini joriy qilishni rag‘batlantirish. Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan eng muhim tarmoqlar qatoriga yoqilg‘i -energetika, oziq-ovqat sanoati, transport va aloqa sohalari kiradi. Ushbu strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirish orqali birinchidan, energetik va oziq-ovqat mustaqilligiga erishiladi, ikkinchidan, jahon bozorlariga, resurslar-ning xalqaro manbalariga chiqish uchun transport yo‘llariga ega bo‘linadi.

Ilmiy texnika salohiyatini saqlash, qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish va undan samarali foydalanish mamlakatning iqtisodiy, harbiy xavfsizligini ta’minlashning muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Shu bois, mamlakatni ilmiy-texnikaviy rivojlantirishning uzoq muddatga mo‘ljallangan davlat konsepsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, eng avvalo, yaqin istiqbolli davr uchun davlat fan-texnika siyosatining ustuvorliklarini aniqlash lozim bo‘ladi. Fanni mamlakatning eng muhim strategik ustuvorligi deb tan olib, uni qo‘llab – quvvatlash va moliyalashtirish, olimlarni moddiy ta’minlash va rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli siyosatni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga, ijtimoiysiyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosati muhim ahamiyatga molikdir. Ijtimoiy siyosat aholining turmush darajasini oshirish, fuqarolarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish va aholining pul daromadlarini ko'paytirishga ham yo'naltiriladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholining turli tabaqalarga – boy va kambag'al qatlamlarga ajralishi kuchayadi. Bu jarayonning tez va keskin yuz berishi beqarorlik omiliga, ijtimoiy ziddiyat va keskinliklarni tug'diruvchi tahdidga aylanadi.

Aholini eng boy va eng kambag'al qatlamlari o'rtasidagi farqning nihoyatda kattalashib ketishi o'rta tabaqa amalda mavjud bo'lmagan sharoitda iqtisodiy tahdidni vujudga keltiradi. O'tish davrida davlat kam ta'minlangan aholi qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoya qilish, daromadlarni adolatli qayta taqsimlash orqali jamiyatning keskin qarama-qarshi qutblarga ajralib ketishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Shuni aytib o'tish joizki, bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik amal qilayotgan sharoitda ommaviy ishsizlikning paydo bo'lishiga yo'l quymaslik, bankrotga uchragan korxonalarining ishchi-xodimlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash, qiyinchiliklarni yumshatish, ish joyidan bo'shayotgan xodimlarni qayta o'qitishni tashkil etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, nafaqalar to'lash, jamoat ishlariga jalb qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi ijtimoiy tahdidlarning salbiy ta'sirini yumshatishda muhim urin tutadi. Ma'lumki, har bir mamlakatda ba'zi hududlari boshqalariga nisbatan rivojlangan bo'ladi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar, ulardagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning nomutanosib joylashuvi oqibatida vujudga keladi. Bu farqlar oqibatida aholi daromadi va turmush darajasida ham hududiy farqlar vujudga keladi. Natijada, aholi o'rtasida mamlakat ichki migratsiyasi yuz beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tahdidning kelib chiqishining oldini olish maqsadida aholining ichki migratsiyasini, ya'ni iqtisodiy nochor hududlardan aholining ahvoli yaxshi hududlarga oqib o'tishini cheklash, tartibga solish chora tadbirlari amalga

oshiriladi. Aholining ichki migratsiyasini tartibga solish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- yangi o‘zlashtirilayotgan, istiqbolli hududlarga ko‘chib boruvchilar uchun qo‘shimcha imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar belgilash, joriy qilish, iqtisodiy ijtimoiy nochor, qoloq hududlardan aholining chiqib ketishini to‘xtatish uchun ularga ham qo‘shimcha imtiyoz va rag‘batlar beriladi;

- turli hududlardan ko‘chib kelgan migrantlarni ish bilan ta‘minlash, joylash-tirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish;

- qishloq joylarda aholining mustahkam qo‘nim topib yashashi uchun zarur huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy baza yaratish, sanoatni qishloqqa olib kirish orqali, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturalarini rivojlantirish natijasida qishloq xo‘jaligida bo‘sh qolgan ortiqcha ishchi kuchi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash uzoq muddatli strategik vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash davlat strategiyasini, ya‘ni doktrinasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasi pirovard maqsadi va uni amalga oshirish bosqichlarida o‘z ifodasini topishi lozim. Bu yerda shuni aytib o‘tish joizki, o‘tish davrida iqtisodiy tahdidlarning ko‘pligi va keskinligi, birinchi navbatda, zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishga katta e‘tibor berishni taqozo etadi. Shu davrda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning kafolati bo‘lgan davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha xo‘jalik va siyosiy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish;

- ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo‘lganligi to‘g‘risida signal beruvchi indikatorlarni kiritish;

- iqtisodiy tahdidlarni yumshatish, bartaraf etish, neytrallashtirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ta‘minlash konsepsiyasi doimo uzoq muddatli milliy davlat manfaatlariga asoslanadi. Boshqacha aytganda, mazkur konsepsiya mamlakatning kelajagi to‘g‘risidagi tasavvurga, islohotlar natijasida vujudga keladi-

gan ijtimoiy-iqtisodiy modelga, shuningdek, barqaror, mustahkam rivojlanish strategiyasiga bog'liq bo'ladi.

3.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda hech bir iqtisodiyot va jamiyat sub'ekti davlatchilikdek katta rol o'ynay olmaydi. Davlatning eng muhim vazifasi – jamiyat barqarorligi va rivojlanishini ta'minlash, mamlakat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishdan iborat. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlar monitoringini tashkil etish zarur. Bunday jarayonda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va ularning o'zgarish tendensiyalari istiqboli aniqlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har qaysidagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi. Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik quyi tahlikali chegarasi indikatorlari o'z ichiga 50 ta ko'rsatkichni olgan holda quyidagicha turkumlangan³:

- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo'yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi; Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy-tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda konsepsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish yesa iqtisodiyot holatini ob'ektiv baholash hamda uning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini prognoz qilishga asoslanadi. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va holatlardagi sabab-oqibatlarini aniqlanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas'ul,

³ Илларианов А. Критерии экономической безопасности // Вопросы экономики, 1999. №10. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие (книга четвертая) / Ин-т экономики РАН.- М., ЗАО «Финстатинформ», 2002- с.72-78; Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. –М., Изд-во РАГС, 2001- с.176-180; Прохожев А., М.Корнилов О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, № 4-5. 2003.- с. 232-233.

javobgar davlat organlari, tashkilot va muassasalar belgilanadi. Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- xavfsizlikni ta‘minlashning maqsad va vazifalari;
- ularni amalga oshirish yo‘llari va usullari;
- hukumat va mahalliy hokimiyat organlari, iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruv tizimlari, huquq-tartibot, milliy xavfsizlik organlarining umumdavlat, hududiy darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha vazifalari;
- mavjud va potensial xavfsizlikka tahdidlarni tahlil qilish;
- davlatning xavfsizlikni ta‘minlashdagi imkoniyatlari, iqtisodiy resurslar, vosita va kuchlardan ratsional foydalanishi nazarda tutiladi;
- iqtisodiy tahdidlarni bartaraf yetish, ularning oldini olish va salbiy ta‘sirini yumshatish yo‘llari, vosita va usullari.

Xavfsizlik konsepsiyasi asosida uni ta‘minlashning davlat strategiyasi ishlab chiqiladi. Ushbu strategiya tahdidlarning mohiyati, ob‘ektlari indikatorlari va ularning oldin olish yoki bartaraf yetish mexanizmlarini belgilab beradi.

Jahon miqyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari⁴

Ko‘rsatkichlar	Қўйи таһликали chegara	
	mazmuni	Darajasi %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	30

⁴ Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. –М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. –С.76,77,78,79,81,82,83,85,86,87,88,89,90,91,92.

Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz	25
Mudofaaga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarish hajidagi ulushi, foiz	25
Davlat byudjeti defitsiti	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari xajmiga nisbatan, foiz	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanishi	Desil koeffitsienti	8,0

- moliyaviy tizim barqarorligi ko'rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi;

- ijtimoiy soha ko'rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni o'z ichiga oladi;

- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Iqtisodiy anglangan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon bo'lish shaklidir. Manfaatlar xo'jalik yuritishdan ko'zlangan naf va yutuqni ifodalaydi. Ularga erishilganda xo'jalik subekti mustaqillikka va o'zidan-o'zi rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu boisdan iqtisodiy manfaatlar xo'jalik faoliyatini

yuritishdan ko‘zlangan iqtisodiy maqsadlarni ham ifodalaydi.

Iqtisodiy maqsadlar umumiy tarzda quyidagicha turkumlanadi:

➤ **Iqtisodiy o‘shish.** Ko‘p miqdorda hamda yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, ya’ni yuqori turmush darajasini ta’minlash.

➤ **To‘liq bandlik.** Ishlashga qodir bo‘lgan va ishlashni xohlaydigan kishilarni o‘zlariga mos mashg‘ulot bilan ta’minlash.

➤ **Iqtisodiy samaradorlik.** Cheklangan ishlab chiqarish resurslarini minimal darajada xarajat qilib, maksimal natija olishga intilish.

➤ **Barqaror narx darajasi.** Umumiy narx darajasining keskin ko‘tarilishi yoki pasayishi, ya’ni inflyatsiya yoki deflyatsiyaning yuqori darajada o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rish.

➤ **Iqtisodiy erkinlik.** Korxonalar boshqaruvchilari, ishchilar va iste’molchilar o‘z iqtisodiy faoliyatida yuqori darajada erkin bo‘lishlari kerak.

➤ **Daromadlarning oqilona taqsimlanishi.** Aholining eng boy va eng kambag‘al, ya’ni kam ta’minlangan qatlamlari o‘rtasida farq katta bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rish.

➤ **Iqtisodiy jihatdan ta’minlash.** Mehnatga layoqatsiz, kasalmand, qari, mayib, majruh va boshqa kam ta’minlangan, yordamga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoyalash.

➤ **Savdo balansi.** Xalqaro savdo va xalqaro moliyaviy bitimlar oqilona balansini ta’minlashga intilish.

Mazkur umumiy iqtisodiy maqsadlar xo‘jalik yuritishning mikro va makro darajalaridagi, turli iqtisodiyot subektlarining iqtisodiy manfaatlarini umumiy tarzda ifodalaydi.

Iqtisodiy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishning ichki va tashqi shart-sharoitlari mavjud bo‘lib, ichki sharoitlariga shaxsning rivojlanishi, konstitutsion tuzumning mustahkamlanishi, mamlakat hudularining yaxlitligi va bo‘linmasligini ta’minlash hamda xo‘jalik va boshqa faoliyatlar, favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, fralokatlar ta’sirida vujudga keladigan noxush ekologik holatlardan kishilar salomatligini saqlash kiradi. Tashqi sharoitlarga esa sherikchilik va o‘zaro

hamkorlik asosida xalqaro aloqalarning samarali tizimini shakllantirish va rivojlantirish, tashqi agressiyalarni qaytarish qobiliyatini ta'minlash, o'zining iqtisodiy, harbiy-siyosiy, intellektual salohiyatiga mos ravishda xalqaro hamjamiyatda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lish kiradi. Ushbu iqtisodiy manfaatlarining ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi turli-tuman tahdidlar, xavf-xatarlardan himoya qilish davlat zimmasiga yuklatilgan.

3.3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tartibga soluvchi organlarning vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida davlat iqtisodiyotga aralashib, bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi va aholini uning salbiy oqibatlaridan himoyalash chora-tadbirlarini ko'radi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad bozor munosabatlarini muayyan va ma'lum yo'nalishda rivojlantirib, iqtisodiy tanglik, tahdid va xavf-xatardan himoyalash hamda aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishdagi yo'nalishlari:

- iqtisodiyodagi jarayonlarni ob'ektiv, keng qamrovli monitoringi, shu jumladan, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlarni aniqlash va prognozlashtirish uchun axborotlar bazasini yaratish;
- iqtisodiy manfaatlarga bo'lgan tahdidlarning oldini olish, ularning salbiy oqibatlarini yengish hamda barham berish bo'yicha jarima va uzoq muddatli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish. Bunda davlatning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish chora-tadbirlarining natijalari baholanadi.
- Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlat xarbiy-sanoat bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini oshirishda turli usullardan foydalanadi:
- ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish;
- strategik xom ashyo resurslari va kamyob vositalar zahirasi yaratish;
- bir-birini o'rnini bosuvchi va to'ldiruvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;
- yer osti inshootlari va omborlarni qurish;
- ishlab chiqarishni boshqarishning ishonchli tizim va manzillarini rivojlantirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari va integratsiyalashuvini rivojlantirish;
- mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini o'zlashtirish.

Iqtisodiy xavfsizlik sohasida qo'lanuvchi siyosiy vositalardan mamlakat iqtisodiyotiga boshqa mamlakat yoki bir necha mamlakatlar tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar, iqtisodiy huruj, tahdidlardan himoyalanih maqsadida foydalaniladi.

Ushbu siyosiy vositalar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- BMT va BMTning Xavfsizlik kengashida mamlakat milliy-iqtisodiy manfaatlariga mos keladigan rezolyusiyalar qabul qilinishiga erishish;
- xalqaro arbitraj yoki xalqaro sudga iqtisodiy tazyiq, tahdidlar yuzasidan murojaat qilish;
- muzokaralar o'tkazilishini tashkil qilish va amalga oshirish;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda a'zo sifatida yoki kuzatuvchi maqomida mamlakat milliy-iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida faoliyat yuritish;
- o'zaro manfaatli xalqaro iqtisodiy hamkorlik shartnomalarini ratifikatsiya qilish.

Shuni aytib o'tish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari Respublika Prezidenti rahbarligidagi Milliy xavfsizlik kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Xavfsizlik kengashi a'zolari mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Uning tarkibiga Bosh vazir, Xavfsizlik kengashi kotibi, Tashqi ishlar vaziri, davlat xavfsizlik xizmati rahbari, mudofaa va ichki ishlar vazirliklarining rahbarlari kiradi. Kengash doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha idoralararo doimiy komissiya faoliyat yuritadi. Ushbu komissiya Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining tegishli qo'mitalari bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida hamkorlik qiladi, shuningdek, Xavfsizlik kengashiga

iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar, tavsiyalar ishlab chiqadi va bu boradagi turli vazirlik hamda muassasalar, hududiy boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo‘jalik sub‘ektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va fuqarolarga ziyon keltirilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda davlat quyidagilarni kuzga tutadi:

- ijtimoiy institutlar strategiyasini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga imkon beradigan institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish;

- xo‘jalik jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun lobbizmni qonuniy cheklash, qonunchilikni maksimal unifikatsiyalash (ya‘ni imtiyozlari va turli preferenslarni qisqartirish va yo‘qotish) uchun iqtisodiy va ijtimoiy xatti-harakatlarning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish hamda qabul qilish;

- iqtisodiyot sub‘ektlari va davlat boshqaruv organlari tomonidan qonunlarga, faoliyat tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan munozara va ziddiyatlarni hal qilish mexanizmini yaratish;

- kadrlarni korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish va investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy usullariga o‘qitishni tashkil qilish;

- jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy keskinlikning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- mamlakat iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish.

Shunga muvofiq ravishda sobiq totalitar tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim bo‘ladi:

- samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va istiqboli yo'q, eskirgan ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish;

- tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;

- iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;

- mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;

- iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to'lovga qodir talab bilan uyg'unlashtirish;

- korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;

- eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;

- ekologik xavfsizlikni oshirishni ta'minlash.

Makroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida quyidagi vazifalar hal qilinishi zarur:

- jami talabni oshirish;

- jamg'arish normasini o'stirish va uni investitsiyaga aylanishini ta'minlash;

- rivojlanishdan to'xtab qolgan sektorlardagi barcha turdagi resurslarning rivojlanayotgan sektorlarga oqib o'tishini rag'batlantirish;

- yalpi investitsiyalarni ko'paytirish;

- eksportni rag'batlantirish;

- umum qabul qilingan tartib-qoidalar doirasida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida importni tartibga solish.

Mikroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi:

- iqtisodiy nuqtai nazardan samarali korxonalar va ishlab chiqarishlarning rivojlanishini rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash;

- samarasiz ishlab chiqarishlar va korxonalarni tugatish yoki reorganizatsiya, ya'ni qayta tashkil etish;

- yangi monopolistik tuzilmalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

- tarmoqlararo kapital oquvchanligini ta'minlash maqsadida fond bozorining

rivojlanishini tartibga solish va rag‘batlantirish;

- narx o‘rishini to‘xtatish chora-tadbirlarini ko‘rish;
- iqtisodiy sub’ektlar xatti-harakatining bozorga xos normalarini joriy qilishni rag‘batlantirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda davlatning ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosati muhim ahamiyatga molikdir. Ijtimoiy siyosat aholining turmush darajasini oshirish, fuqarolarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish, aholining pul daromadlarini ko‘paytirishga ham yo‘naltiriladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi, strategiyasi, institutlar, institutsional muhit, transaksion xarajatlar, davlatning iqtisodiyotga aralashuv dastaklari, samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarish, tarkibiy siyosat, ilmiy-texnikaviy salohiyat.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda davlat qanday o‘rin tutadi?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash omillari nimalardan iborat?
3. Davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarining mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashdagi vazifalari nimalardan iborat?
3. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga qanday ijtimoiy tahdidlar mavjud?
4. Ijtimoiy tahdidlarning oldini olish uchun nimalar qilish kerak?
5. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda davlat qanday vazifalarni bajaradi?
6. Iqtisodiy boshqarishning xavfsizlikni ta‘minlashdagi o‘rni qanday?
7. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikning o‘ziga xos qanda xususiyatlari mavjud?

IV-BOB. SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

4.1. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi

4.2. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar

4.3. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari va vositalari

4.1. Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, ko'p sohalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda yuridik ta'limning ko'plab yangi tarmoqlari vujudga kelishiga hamda ulaming rivojlanishiga ham imkoniyatlar yaratib berdi. Yangi ijtimoiy munosabatlar parlament huquqi, bank huquqi, soliq huquqi, sug'urta huquqi, inson huquqlari kabi ko'plab yangi huquqiy fanlaming shakllanishiga olib keldi. Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxsning yoki shaxslaming qonuniy huquq va erkinliklariga rioya etilishi va buni ta'minlash bilan bog'liq bolgan davlat va individ o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar tushuniladi. Bunday munosabatlaming buzilishi, ya'ni inson huquqlariga daxldor bolgan mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolaming o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to'sqinlik qilinishi, yoki bolmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlarining bajarilmasligi, xalqaro standartlaming milliy qonunchilikka yetarli darajada implementatsiya qilinmasligi va ularga amaliyotda yetarli darajada rioya etilmasligi kabi holatlar mamlakatdagi inson huquqlarining buzilishi holatlariga olib keladi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida bu organlarga faqat jazolovchi organ sifatida qaralgan bolib, ulaming faoliyati orqali minglab fuqarolarimiz nohaq qamalib, repressiyaga duchor bolishgan edi. Masalan, mustabid davr sudlari faqat jazolovchi organ sifatida namoyon bolib, mustaqil holatda faoliyat yurita olmaganliklari va faqat siyosiy partiya hamda yuqori lavozimdagi amaldorlar tazyiqi ostidagina ish olib borganliklari, buning oqibatida inson huquqlari poymol bolib kelganligiga misollar juda ham ko'p. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq, mamlakatimizda

inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida yondashila boshlandi. Bunga, 1991-yilning 30-sentabrda O'zbekistonning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga a'zo bolishining o'ziyoq yaqqol misol bo'la oladi. Chunki, mustaqilligining birinchi kunlaridanoq erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekiston bu yo'lda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etib kelingan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini e'tirof etgan edi. Bunday maqsadni e'lon qilgandan so'ng ikkinchi qadam respublikamizning 1992-yil 8-dekabrda o'z Konstitutsiyasini e'lon qilishi bo'ldi.

Inson o'z hayot faoliyatini tabiat va jamiyat bilan dialektik bog'liqlikda olib boradigan, tabiat qonunlari va ijtimoiy munosabatlarning obekti va subekti bo'lgan tabiiy-biologik mavjudot va ijtimoiy voqelikdir. Insonda tabiiy-moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Insonning hayot faoliyati turli obektiv va subektiv omillarga, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari hamda ma'naviy rivojlanishga, shuningdek, tabiiy-iqlimiy ta'sirga, ekologiya, ijtimoiy, millatlararo va geopolitik shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Uning xatti-harakati shaxsning psixologik holatiga, qiziqishi, odati, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, ijtimoiy va milliy xususiyatlari, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, jismoniy kuch va aqliy qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida insonning imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- shaxsiy mol-mulki, boyligining miqdori. Bu esa shaxsning ko'chmas va harakatdagi mulki, shaxsiy kapitalining jamisidan iborat bo'ladi;

- shaxs boshqaradigan kapital miqdori. Bu kapital kimniki va qanday shaklda bo'lishi ahamiyatsizdir;

- shaxsga ma'muriy, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda bo'ysunuvchi yoki unga qaram jismoniy shaxslar soni. Bularga kishilarning ongi va kayfiyatiga ta'sir ko'rsata oladigan hamda bilim, tarbiya, axborot olish, diniy ishlarda ma'lum ijtimoiy vazifani bajaruvchi shaxslar ham kiradi.

Ushbu shaxs imkoniyatini belgilovchi parametrlar, asosan, jamiyatda ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarning amal qilishiga va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuni aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va boshqa tizimlari inson uchun yashash muhiti hisoblanadi. Shu boisdan ularning amal qilish samaradorligini faqat inson manfaatlariga qay darajada mosligi nuqtai nazaridan baholash mumkin bo'ladi. Inson va uning manfaatlari uchun oila muhim ahamiyat kasb etadi. Oila qarindoshlik aloqalari va maishiy hayot umumiyligi asosida, ongli ravishda tashkil etilgan kishilarning kichik guruhidan iborat. Oilaning hayot faoliyati shaxsning, u a'zo bo'lgan oila va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi hamda o'zining uy xo'jaligini mustaqil ravishda yuritadi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida oila, avvalambor, inson kapitalini shakllantirish va jamg'arishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan oilaning vazifalarini uch bosqichda, ya'ni moddiy asosni yaratish, ta'lim, inson kapitalini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishda ko'rish mumkin.

Birinchi bosqichda oila byudjetini shakllantirish va foydalanish, uy xo'jaligini yuritish funksiyalari amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda oila farzandni dunyoga keltirish, tarbiyalash va uni ijtimoiy-iqtisodiy hayot kechirish sharoitlariga moslashtirish vazifasini bajaradi.

Uchinchi bosqichda tadbirkorlik faoliyati va mehnat qilish orqali oila bozor xo'jaligida o'z a'zolarining yakka tartibda ishtirok etishi, oilaviy biznesni tashkil etish vazifalarini bajaradi.

Insonning hayot kechirishi va faoliyat yuritish makoni jamiyatda demokratik yo'l bilan konstitutsion normalar doirasida kengaytirib borilishi kerak. Bu makonni revolyusion yo'l bilan, o'rnatilgan konstitutsion normalarga zid yo'llar bilan o'zgartirishga urinishlar jamiyatda vayronagarchilik, zo'ravonliklarning vujudga kelishiga olib keladi. Inson hayoti va faoliyati ushbu makonda mustaqillik, erkinlik hamda jamiyat, davlat oldida o'z majburiyatlariga ega bo'ladi. Ushbu makonda inson hayotiy muhim manfaatlariga ega bo'lib, ularga nisbatan tahdidlarning vujudga kelishi shaxs xavfsizligiga putur yetkazadi.

4.2. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar

Insonning ehtiyojlari, manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ularni ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan omillardanhimoyalanganligi shaxs xavfsizligi deb ataladi. Shaxs xavfsizligi o'z ichiga uning hayoti, salomatligi, erkinligi va shaxsiy daxlsizligiga, qadr-qimmatiga, sha'ni va obro'siga, mol-mulkiga qilingan tajovuzlardan himoyalaniшни oladi.

Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlar ko'pqirrali bo'lib, ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- shaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlarni qo'yishi;
- boshqa, tashqi ijtimoiy tizimlar tahdidi;
- ichki ijtimoiy tizimda vujudga keladigan tahdidlar;
- tabiiy tahdidlar.

Shaxs bilan bog'liq tahdidlar ichida ijtimoiy tahdidlar ham mavjud.

Ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik;
- kambag'al bo'lib qolish;
- jamiyatda aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqalanishi, daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi, kambag'al aholi qatlamlarining ko'payishi, aholi turmush darajasining pasayishi;
- mehnat sharoitlarining yomonlashuvi, ishchi kuchi malakasi va sifatining pasayishi;
- aholi o'rtacha umr ko'rish darajasi, davomiyligining qisqarishi, tug'ilish darajasining pasayishi, o'lim darajasining o'sishi, aholi tabiiy o'sishi sur'atlarining haddan tashqari pasayib ketishi;
- onalar va bolalar o'limi va kasallanishining o'sishi, turli infeksiyon, yuqumli kasalliklarning, jumladan, OIV/OITS va tuberkulez, gepatit, bezgak kasallari, norkomaniya tarqalishining o'sib borishi, mayib va majruhlar sonining ko'payishi;
- uysiz va ishsiz, daydi kishilar, gadoylar hamda qarovsiz bolalar, lyumpen proletariatning ko'payishi;

- xufyona iqtisodiyot ko‘lamining kengayishi, poraxo‘rlik, korrupsiya, tovlamachilik, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi;
- sog‘liqni saqlash, ta‘lim, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish narxlarining haddan tashqari o‘sib ketishi va sifatining pasayishi, aholi ko‘pchilik qismining davolanish va ta‘lim olish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishi;
- aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ommaviy axborot vositalari, Internetdagi madaniy-oqartuv tadbirlarida ahloqsiz, buzg‘unchi, ma‘naviy qashshoq turmush tarzining zo‘r berib targ‘ib va tashviqot qilinishi juda xavfli tahdid hisoblanadi.



5-rasm. Mehnat ko‘rsatkichlari o‘zgarishi

Inson xavfsizligiga tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sur‘atlarining jamiyat ehtiyojlari o‘shishiga nisbatan orqada qolishi, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi, jamiyatda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, tashqi tabiiy muhitning zararlanishi yoki yomonlashuvi hamda ma‘lum ijtimoiy harakatlar tufayli vujudga keladi.

Iqtisodiy sohadagi inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda o'z ifodasini topadi. Reket kishining moddiy ahvoliga zarar keltiradigan tovlamachilik hisoblanadi. Uning namoyon bo'lish shakllari quyidagilardan iborat:

- shantaj, tovlamachilik qilish, ya'ni o'z qurboni uchun noxush axborotni boshqalarga oshkor qilish bilan qo'rqitib, uni hech kimga aytmalik uchun haq talab qilish. Masalan, yirik miqdordagi daromadini soliqdan yashirganligi to'g'risidagi ma'lumotni bilib qolib, uni soliq inspeksiyasiga bildirmalik uchun o'z qurbonidan haq to'lashni talab qilish;

- inson hayotiga, salomatligiga, mol-mulki va kapitaliga tahdid solish. Bunda jinoyatchilar o'z qurbonlariga zara yetkazish bilan qo'rqitib, ziyon yetkazmaslik uchun pul talab qiladilar;

- iqtisodiy terrorizm – shaxsning ishonchiga kirib olib, turli yo'llar bilan ko'rsatayotgan xizmatlari uchun to'lanadigan haq miqdorini oshirib borish. Agar shaxs qarshilik qilsa, kuch bilan yoki psixologik yo'l bilan tahdid solish. Bunga shaxsning mol-mulkiga ega bo'lish maqsadida qilingan tajovuz, o'g'rilik, tunash, qaroqchilik qilish, qo'rqitish, tahdid solish va boshqalar kiradi.

Inson, xuddi kompyuter singari, muayyan qonunlarga muvofiq ishlaydi. Psixologiya, hiyla-nayranglar va ta'sir mexanizmlari doirasida insoniyat tomonidan to'plangan tajribadan foydalangan holda, xakerlar "odamlarga hujum qilishni" boshladilar. Gohida ular "aql xakerligi" deb ham ataladi. Masalan, xaker sizdan pul olmoqchi deb faraz qilaylik. Aytaylik, u sizning telefon raqamingiz va ijtimoiy tarmoqdagi akkauntingiz haqida ma'lumotga ega. Bundan tashqari, u izlanish natijasida sizning akangiz borligini ham aniqladi va akangiz haqida ham yetarlicha ma'lumot to'pladi. U shuningdek, akangizni telefon raqamini ham biladi. Shundan so'ng, ushbu ma'lumotlar asosida o'z rejasini tuza boshladi.

Reja: Xaker sizga kechki vaqtda telefon qilib, sizga (sizni ismingiz o'rniga faqat akangiz ataydigan biror lichka ham bo'lishi mumkin) men akangman deb tanishtiradi va o'zini ko'chada bezorilarga duch kelganini, ular barcha narsalarini (telefon, pul, plastik kartochka va boshqalar) olib qo'yganini aytadi. Bundan tashqari, u o'ziga bir qiz yordam berganini, biroq, uning yonida puli yo'qligini

aytadi. Shu bilan birga, ushbu qizni yonida plastik kartasi borligini va sizdan ushbu plastik kartaga kasalxonaga yetib borish uchun zarur bo'lgan 20000 so'm pulni ko'chirib berishni talab qiladi. Mazkur holatlarning 8/10 da xakerlar muvaffaqiyatga erishganlar va bu ishlarni amalga oshirish malakali xaker uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Mazkur holda akangizni ovozini ajratish imkoniyati haqida gap borishi mumkin. Biroq, inson turli hayojon va shovqin bo'lgan muhitda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, agar siz uxlab yotgan vaqtingizda telefon bo'lsa, sizning ovozni aniqlashangiz yanada qiyinlashadi. Ushbu holatda xaker tomonidan foydalanilgan fikrlarni ko'rib chiqaylik:

1. Shaxsni yaxshi yashirgan va real misollarga asoslangan (masalan, sizning rasmlaringiz, faqat sizning yaqinlaringiz biladigan joylar va h.) va yaxshi afsona o'ylab topdi.

2. Bularning barchasi yetarlicha tez va ishonchli tarzda aytilgan.

3. Ta'sirning juda katta mexanizmidan foydalanilgan – achinishga ta'sir qilingan (hissiyotlarga murojaat qilish).

Ko'pgina xodimlar har kuni korporativ va shaxsiy pochta tizimlarida o'nlab, hatto yuzlab elektron pochta xabarlarini qabul qilishadi. Albatta, bunday yozishmalar oqimi bilan har bir harfga etarlicha e'tibor berishning imkoni yo'q. Bu esa hujumlarni amalga oshirishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Elektron pochta tizimlarining ko'plab foydalanuvchilari bunday holni bir papkadan ikkinchisiga qog'ozlarni o'tkazishning elektron analogisifatida qabul qiladi va xabarlarini qabul qilishda xotirjam bo'lishadi. Tajovuzkor pochta orqali oddiy so'rov yuborganda, uning qurboni ko'pincha uning xatti-harakatlari haqida o'ylamasdan ular so'ragan narsani bajaradi. Elektron pochталarda xodimlarni korporativ atrof-muhit muhofazasini buzishga undaydigan giperhavolalar bo'lishi mumkin. Bunday havolalar har doim ham da'vo qilingan sahifalarga murojaat qilmaydi. Xavfsizlik choralarning aksariyati ruxsatsiz foydalanuvchilarning korporativ resurslardan foydalanishini oldini olish uchun ishlab chiqilgan. Agar buzg'unchi tomonidan yuborilgan giperhavolani bosish orqali foydalanuvchi zararli dasturni korporativ tarmoqqa yuklasa, bu ko'plab himoya turlarini chetlab o'tishga imkon beradi.

Giperhavola, shuningdek, ma'lumot yoki yordamni talab qiladigan qalqib chiquvchi ilovalar bilan turli xostlarga murojaatni talab qilishi mumkin. Firibgarlikni va zararli hujumlarni oldini olishning eng samarali usuli - kutilmagan kiruvchi elektron pochta xabarlariga shubha bilan qarash. Ushbu yondashuvni butun tashkilotda tarqatish uchun quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan xavfsizlik siyosatiga elektron pochtdan foydalanishning aniq prinsiplari kiritilishi kerak: - hujjatlarga qo'shimchalar; - hujjatdagi giperhavolalar; - shaxsiy yoki korporativ ma'lumotlarni kompaniya ichiga so'rash; - shaxsiy yoki korporativ ma'lumotlarga kompaniya tashqarisidan keladigan so'rovlar. Tezkor xabarlardan foydalanishga asoslangan tahdidlar. Tezkor xabar almashish - ma'lumotlarni uzatishning nisbatan yangi usuli. Ammo, u korporativ foydalanuvchilar orasida allaqachon mashhurlikka erishgan.

Foydalanishning tezligi va qulayligi tufayli ushbu aloqa usuli turli xil hujumlar uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Foydalanuvchilar unga telefon kabi qarashadi va uni potensial dasturiy tahdidlar sifatida baholashmaydi. Tezkor xabarlar xizmatidan foydalanishga asoslangan hujumlarning ikkita asosiy turi - zararli dasturga havola va dasturning o'zi haqida xabarning ko'rsatilishi hisoblanadi.

Tezkor xabarlar xizmatlarining xususiyatlaridan biri - aloqaning norasmiyligi bo'lib, unda har qanday nomlarni moslashtirish qobiliyati bilan bir qatorda, bu omil tajovuzkorni boshqa odam bo'lib ko'rsatishga imkon beradi. Bu esa muvaffaqiyatli hujum qilish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Agar kompaniya tezkor xabarlar sababli keladigan xarajatlarni kamaytirish va boshqa afzalliklardan foydalanmoqchi bo'lsa, korporativ xavfsizlik siyosatida tegishli tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarini ta'minlash kerak.

Korporativ muhitda tezkor xabar almashish ustidan ishonchli boshqaruvga ega bo'lish uchun bir nechta talablar bajarilishi shart:

- tezkor xabarlar uchun bitta platformani tanlash;
- tezkor xabar yuborish xizmatini o'rnatishda xavfsizlik sozlamalarini aniqlash;
- yangi aloqalarni o'rnatish tamoyillarini aniqlash;
- parol tanlash standartlarini o'rnatish;

- tezkor xabarlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

Sosial injineriyaning mutaxassislari tomonidan tashkilotlar uchun quyidagi asosiy himoya usullarini qo'llash tavsiya etiladi:

- muhim ma'lumotlar ko'rinishida bo'lgan zararsiz ko'rinadigan ma'lumotlar turlarini hisobga oladigan ishonchli ma'lumotlarni tasniflash siyosatini ishlab chiqish;
- ma'lumotlarni shifrlash yoki foydalanishni boshqarish yordamida mijoz ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash;
- xodimlarni sosial injinerni tanib olish ko'nikmalariga o'rgatish, ularni o'zlari tanimaydigan odamlar bilan muloqotda shubha bilan qarashni o'rgatish;
- xodimlar orasida parollarni almashishni yoki umumiy foydalanishni taqiqlash; - shaxsan tanish bo'lmagan yoki biron-bir tarzda tasdiqlanmagan shaxsga bo'linga tegishli ma'lumotni berishni taqiqlash;
- maxfiy ma'lumotlardan foydalanishni so'raganlar uchun maxsus tasdiqlash muolajalaridan foydalanish.

Sosial injineriya hujumlarini oldini olishda ko'p hollarda kompaniyalar tomonidan murakkab ko'p darajali xavfsizlik tizimlari qo'llaniladi. Bunday tizimlarning ba'zi xususiyatlari va majburiyatlari quyida keltirilgan:

Fizik xavfsizlik.

Kompaniya binolari va korporativ resurslarga kirishni cheklaydigan to'siqlar. Shuni unutmaslik kerakki, kompaniyaning resurslari, masalan, kompaniya hududidan tashqarida joylashgan axlat konteynerlari fizik himoyalanmagan.

Ma'lumotlar.

Biznes ma'lumotlari: qayd yozuvlari, pochta va boshqalar bo'lib, tahdidlarni tahlil qilish va ma'lumotlarni himoya qilish choralari rejallashtirishda qog'oz, elektron ma'lumotlar tashuvchilar bilan ishlash tamoyillarini aniqlash kerak.

Ilovalar - foydalanuvchilar tomonidan boshqariladigan dasturlar. Atrofingizni himoya qilish uchun tajovuzkorlar elektron pochta dasturlari, tezkor xabarlar xizmati va boshqa dasturlardan qanday foydalanishlari mumkinligini ko'rib chiqishingiz kerak.

Kompyuterlar.

Tashkilotda ishlatiladigan serverlar va mijoz tizimlari. Korporativ kompyuterlarda qaysi dasturlardan foydalanish mumkinligini ko'rsatadigan qat'iy tamoyillarni belgilab, foydalanuvchilarni o'zlarining kompyuterlariga to'g'ridan-to'g'ri hujumlardan himoya qilish.

Ichki tarmoq.

Korxonalar tizimlariga o'zaro ta'sir qiladigan tarmoq bo'lib, u mahalliy, global yoki simsiz bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda masofadan ishlaydigan usullarning ommalashishi sababli, ichki tarmoqlarning chegaralari sezilarli darajada o'zboshimchalik asosida kengaytirildi. Kompaniya xodimlari har qanday tarmoq muhitida xavfsiz ishlarni tashkil qilishda nima qilish kerakligini tushunishlari kerak.

4.3. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari va vositalari

Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarga munosabatda insonning ruhiy holatini faollik, bag'rikenglik (tolerantlik), chidamlilik sifatida tavsiflash mumkin.

Faollik insonning o'z maqsadini tanlashi hamda unga erishishi yo'lida kuch-qudrat, shijoat, jo'shqinlik bilan faoliyat ko'rsatish va mehnat qilishga shayligi hisoblanadi. Bu hol shaxsning ma'lum bilim, kasb-malaka, mahoratga ega bo'lib, o'zgaruvchan vaziyatlar va holatlarda ham o'ziga munosib joyni erkin egallashga, yuqori natija va samara bilan ishlashga imkon beradi. Bunday holatdagi kishi raqobatbardosh, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, o'zining mehnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli o'z ehtiyojlarini qondira oladi.

Shaxsning xavfsizligi hozirgi davrda quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- aholining mehnat va tadbirkorlik faolligi;
- mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, iqtisodiy o'sishga erishish;
- tibbiy xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligining oshishi va ishsizlikning kamayishi;

- aholi daromadlari va iste'molining, o'rtacha daromad darajasining o'sishi;
- kishilarning bilim, kasb-malaka va madaniyat darajasining o'sishi;
- ma'naviyatning rivojlanishi;
- fanning rivojlanish darajasi;
- kambag'allik va qashshoqlikning kamayishi;
- aholi o'lim darajasining kamayishi;
- aholining o'rtacha umr ko'rish darajasining o'sishi.

Davlat shaxs xavfsizligini baholash uchun jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni vujudga keltirishi mumkin bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilib borishi kerak bo'ladi:

-jamiyatda aholining tor doirada nihoyatda boy-badavlat va kelajagiga ishonchini yo'qotgan nihoyatda kambag'al kishilarga ajralishi, ularning daromadlari o'rtasidagi farqning kattalashib borishi;

-ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan darajada ishsizlikning o'sishi;

-kambag'allik va qashshoqlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan darajada aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishi;

-shaharlarda qishloqlardagiga nisbatan kambag'al kishilarning ko'payishi, narkomaniya, fohishalik, tashkiliy jinoyatchilikning o'sishi uchun sharoitning vujudga kelishini oldini olish;

-jamiyatda va xo'jalik faoliyatida korrupsiya va kriminallashtiruvning o'sishi.

Shaxsning xavfsizligini ta'minlashda davlatning ijtimoiy siyosati muhim rol o'ynaydi. Davlatning ijtimoiy siyosati, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'tish davrida O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

-fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat, kasb turlari hamda sohalarini erkin tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash;

-mehnat motivatsiyasining kuchli mexanizmini kiritish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratish;

-aholini maqsadli va manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda kam ta'minlangan guruhlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

-ta'lim, ijtimoiy sug'urta, sog'liqni saqlash tizimlarini isloh qilish yo'li bilan aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlash⁵. Shuningdek, davlat ijtimoiy siyosati aholining daromad va mulkka egalik darajasi bo'yicha keskin tabaqalashuvining oldini olish hamda aholining to'lov talablarini keng miqdorda qondirish va uning o'sishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Har bir shaxs, fuqaro xavfsizligini ta'minlashda fuqaroning o'zi, u ishlaydigan mehnat jamoasi, davlat, jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimida insonning, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi masalasi alohida o'rin egallaydi. Chunki taraqqiyotning keyingi bosqichlarida qarorlar qabul qilish jarayonlariga jamiyatning ta'siri oshib bormoqda, ya'ni inson omili ta'siri kuchayib bormoqda. Hozirgi davrda insoniy rivojlanish va hayot sifati davlat boshqaruvi samaradorligining mezoniga aylanib qoldi. Bunday holat insonning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi – bu insonning muhim hayotiy manfaatlarining himoyalaniishi uchun shart-sharoitlarning kafolatlangandagi, ijtimoiy taraqqiyot hamda inson va jamiyat himoyasi tizimi ta'minlangandagi holatdir.

Inson shaxsining iqtisodiy xavfsizligi milliy iqtisodiy xavfsizlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi.

⁵ Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. – Т.: ТМИ, 2005. 182-б.

Mamlakatimizda inson iqtisodiy xavfsizligining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, respublika qonunlari va turli qonuniy hujjatlari tashkil etadi.

Alohida fuqarolar va jamiyat inson iqtisodiy xavfsizligining ob'yekti bo'lib hisoblanadi. Ish o'rinlari, ijtimoiy ta'minot tizimi, moddiy ishlab chiqarish inson iqtisodiy xavfsizligining sub'ekti bo'lib hisoblanadi. Quyidagilar insonning iqtisodiy xavfsizligi sohasida davlat faoliyatining predmeti bo'lib hisoblanadi:

insonning iqtisodiy xavfsizligi tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni tahlil va sintez qilish;

ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun xizmat qiladigan iqtisodiy siyosat va institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi borasidagi davlat strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki va tashqi tahdidlarni tavsiflash;
- insonning iqtisodiy xavfsizligi shart-sharoitlariga muvofiq keladigan mezon va iqtisodiyotning holati;
- iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy choralar asosida insonning muhim manfaatlarini himoyalash;
- insonning iqtisodiy xavfsizligi borasidagi davlat strategiyasini bajarilishini nazorat qilish.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi fuqarolarning hayot faoliyatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- oziq-ovqat bilan ta'minlash;
- ish bilan bandlikni ta'minlash;
- ta'lim olish uchun sharoit yaratish;
- axborot bilan ta'minlash;
- tibbiy xizmat ko'rsatish;
- pensiya ta'minoti;
- shaxsiy jamg'armalarini himoyalash;

- uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatish;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan bog'liq bo'lib, ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo'lgan daromad darajasini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Insonning ijtimoiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini individning yetarli hajmda va sifatli ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan darajada taraqqiyotga erishishni bildiradi.

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishining bosh sabablaridan biri ishsizlik bo'lib, u iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indikatori sifatida alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muammolar qatorida turadi. Ishsizlik mamlakatda mavjud tabiiy, mehnat, moddiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan samarali hamda yetarlicha foydalanmaslik holatini anglatadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda ishchi kuchining ish joyi bilan ta'minlanmaganligi, natijada uning biror-bir qonuniy daromad manbaiga ega bo'lmasligining muayyan holati tushuniladi. Boshqacha aytganda, ishsizlik – ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta'minlanmagan qismi. Ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi natijasida ishsizlik vujudga keladi.

Makroiqtisodiy jihatdan ishsizlik jamiyat mehnat salohiyatidan, ishchi kuchi majmuasidan ishlab chiqarish omili sifatida to'la foydalanmaganlikdir. SHu ma'noda, ishsizlik ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlariga yoki foydalanilmayotgan tabiiy va moddiy resurslarga teng, ammo ishlab chiqarishning boshqa omillari ortiqchaligidan farq qilib, "ortiqcha" ishchi kuchi bozori iqtisodiyotidagi doimiy voqelikdir.

Ijtimoiy jihatdan ishsizlik daromadlarning pasayishiga olib kelganligi bois nafaqat ishsiz kishining o'zi uchun, balki uning oilasi uchun ham jiddiy muammolarni tug'diradi. Bunday holat oxir oqibatda jamiyatdagi holatga ta'sir

ko'rsatadi. Ishsizlik miqyoslarining kengayib borishi noroziliklarni va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlikning keskin ko'payishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat sektorining kamayishi), inflyatsiya hamda xo'jalik yuritishning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari) tez o'smaganligi sababli ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvol yomonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy talab hajmida salbiy aks etadi: davlat ta'siri qisqaradi, investitsiya faoliyati sustlashadi, iste'mol xarajatlari esa inflyatsiya ta'sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli birmuncha kamayadi.

Amalda ishsizlik tabiiy darajasining eng maqbul miqdori yo'q. Hali hech kim iqtisodiyot uchun ma'lum ishchining ishlab chiqarish bilan shug'ullangandan ko'ra, ishsiz bo'lgani afzal ekanligini isbotlashga erishgani yo'q. Aksincha, yalpi milliy mahsulotni yuqori darajada ishlab chiqarish natijasida ishsizlikning tabiiy darajasi pasayadi. Ammo u maqbul miqdordan yuqori bo'lib qolaveradi. Chunki yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish o'z imkoniyat darajasiga yetmagan bo'ladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi, ijtimoiy sohalarda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ish bilan bandlik muammolarini ijobiy hal etishga, ishsizlikning oldini olishga erishildi.

Ishsizlikni oldini olish muammosi ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida dolzarb bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki respublikamizda inqiroz oqibatlarini bartaraf etish maqsadida 2009 – 2012–yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi qabul qilindi va u izchil amalga oshirilmoqda. 2009-yil uchun va yaqin kelajakka mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng ustuvor vazifalarini belgilab olishda jahon iqtisodiy inqirozining ta'siri va oqibatlarini yetarlicha to'liq hisobga olish muhim vazifa ekanligi respublika Prezidentining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida alohida ta'kidlab o'tildi. Bugungi kunda respublikamizda ishsizlikning paydo bo'lish sababalriga ko'ra, quyidagi asosiy turlari ko'p uchramoqda:

- tarkibiy, iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi;
- yashirin, bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xarakterlidir va haqiqiy ishchi kuchini kam miqdorda talab qiladi. Yashirin ishsizlik ishlab chiqarishning chuqur tanazzuli sharoitida korxonalarda ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;
- mavsumiy, ma'lum mavsumda ish bilan bandlikni ta'minlovchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash hamda tayyorlash muddati bilan asoslangan. Mavsumiy ishsizlikning hajmi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif mavsumiy omillarining barobar ta'sir qilishi sifatida namoyon bo'ladi;
- texnologik o'zgaruvchan, bu korxonada texnologik o'zgarishlarning amalga oshirilishi va modernizatsiya qilinishi natijasida yuzaga keladi.

Masalan, fan-texnika yutuqlari natijasida qo'l mehnati o'rnini texnika egallashi natijasida yuzaga keladi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi mamlakatda mustahkam iqtisodiy xavfsizlik tizimi mavjud bo'lgandagina ta'minlanadi. Mustahkam iqtisodiy xavfsizlik tizimi, ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish, ularning ta'sirini kamaytirish esa davlatning samarali ijtimoiy iqtisodiy siyosatining shakllanishini taqozo etadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Shaxs, shaxs erkinliklari, shaxsning mustaqilligi, shaxsning ehtiyojlari, shaxsning manfaatlari, shaxs manfaatlariga iqtisodiy tahdidlar, iqtisodiy shantaj va terror, ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy siyosat shaxs, davlat, inson huquqlari, konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, xalqaro standart.

Takrorlash uchun savollar

1. Hozirgi zamon sharoitida shaxsning qanday salohiyati va imkoniyatlari mavjud?
2. Shaxsning iqtisodiy erkinliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Shaxs bilan davlat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik nimalarda namoyon bo'ladi? Bu bog'liqlikning qanday chegaralari bor?
4. Shaxsning hayotiy manfaatlariga qanday iqtisodiy tahdidlar xavf soladi?
5. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
6. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini qanday ta'minlash mumkin?
7. Shaxsning iqtisodiy jihatdan himoyalanihini davlat qanday ta'minlaydi?
8. Shaxsga nisbatan iqtisodiy shantaj va terrorizmga qarshi qanday choralar ko'rish mumkin?

V-BOB. KORXONA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

5.1. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimi va uning tarkibiy elementlari.

5.2. Korxonada ishlab chiqari, xizmat ko'rsatish va savdo sohasidagi iqtisodiy xavf-xatarlar.

5.3. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini himoyalash va korxonada tijorat siri

5.1. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimi va uning tarkibiy elementlari.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, iqtisodiyotning xavfsizligi holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi va hozirgi globallashtirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammosi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunki, globallashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi alohida mamlakat iqtisodiy yuksalishida muhim omil bo'lish bilan birga, uning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan juda katta tahdid va iqtisodiy zarbar ostida qolish xavfini ham yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ham davlat, ham korxonalar miqyosidagi xavfsizlikni ta'minlash va unga oid tahdidlarning oldini olish choralarini ishlab chiqish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Iqtisodiy tizimdagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechar ekan, korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarning oldini olish bugungi kunda eng muhim masalalardan hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, mazkur sohada ilmiy-tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. So'nggi vaqtlarda iqtisodiyotning turli darajalaridagi iqtisodiy xavfsizlik holatini tahlil qilish va baholash muhim dolzarblik kasb etadi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar yagona milliy iqtisodiyotning uzviy tarkibiy qismi va ayni paytda, iqtisodiy jihatdan alohida bo'g'ini hisoblanadi. Korxonalar o'z faoliyatini o'zini-o'zi boshqarish, xarajatlarini qoplashi asosida foyda olish maqsadida yuritadigan birlamchi xo'jalik sub'ektidir. Korxonalar ishlab chiqarish, savdo, tijorat-vositachilik, transport, sug'urta, bank, injiniring, moliyaviy investitsiya, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va turli xizmatlar ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi.

Korxonalar faoliyatining asosiy maqsadi daromad olish hisoblanadi. Shuningdek, korxonaning manfaatlariga ishlab chiqarishni kengaytirish, kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida texnologiya va mehnatni tashkil yetishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va taklif etilayotgan mahsulotning iste'molchilari, mijozlari va hamkorlarning ko'paytirish ham kiradi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar, tashkilot va muassasalarning iqtisodiy jihatdan xo'jalik sub'ektlari sifatidagi muvaffaqiyati ularning iqtisodiy manfaatlarini talablarini qanday bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Korxonaning muhim iqtisodiy manfaatlariga iste'molchilar talablari va tadbirkorlik tavsifidagi ichki omillarga bog'liq holda vujudga keladigan noaniq kutilmagan vaziyatlarga moslashish qobiliyati kiradi.

Korxonalar o'zining daromad olish maqsadini amalga oshirishi uchun muntazam ravishda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish texnologiyasini takomillashtirishga, mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini oshirishga, ularni sotish jarayonlariga ko'proq e'tiborni qaratishi kerak bo'ladi. Shuningdek, undan aylanma mablag'lar harakatini tezlashtirish, barcha turdagi zaxiralarni kamaytirish, reklama, hamkorlar bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzish, kelishuv majburiyatlariga rioya etish talab etiladi. Mahsulotni sotish va xizmat ko'rsatish jarayonida korxonaning iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqadi.

Korxonalar xavfsizligini ta'minlash uchun xo'jalik faoliyatining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qilish yo'li bilan uning turli tahdidlarga barqarorligi hamda xavfsizlik darajasi baholanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ishlab

chiqarishning texnik darajasi, sotilayotgan va xarid qilinayotgan litsenziyalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va qo'llanilayotgan texnologiyaning jahonning eng yaxshi andozalariga mosligi, mahsulotning ilm talabligi va innovatsiya darajasi muhim hisoblanadi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini tasniflashi

№	Tasniflash Belgisi	Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik ko'rinishlari
1	Iqtisodiy faoliyat darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Korxonaning umuman iqtisodiy xavfsizligi • Korxonaning alohida tarkibiy bo'linmalarining iqtisodiy xavfsizligi • Korxonaning yakka tartibdagi operatsiyalarini iqtisodiy xavfsizligi
2	Iqtisodiy faoliyatning funksional ko'rinishi	<ul style="list-style-type: none"> • Joriy faoliyatning iqtisodiy xavfsizligi • Investision faoliyatning iqtisodiy xavfsizligi • Moliyaviy faoliyatning iqtisodiy xavfsizligi • Korxonaning boshqa faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi
3	Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarning namoyon bo'lishi tabiati	<ul style="list-style-type: none"> • Neytral yo'naltirilgan iqtisodiy xavfsizlik real tahdidlar • Iqtisodiy xavfsizlikka yo'naltirilgan korxonalar mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olish
4	Iqtisodiy manfaatlarga tahdid manbai	<ul style="list-style-type: none"> • Korxonaning tashqi tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi • Korxonani ichki tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi
5	Iqtisodiy manfaatlar himoya qilinadigan mexanizmlarning mohiyati bo'yicha korxonaning iqtisodiy xavfsizligi	<ul style="list-style-type: none"> • Ichki himoya mexanizmlari bilan ta'minlangan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi • Tashqi himoya mexanizmlari bilan ta'minlangan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi
6	Iqtisodiy manfaatlarning himoya mexanizmlarining amaldagi yo'nalishi	<ul style="list-style-type: none"> • Korxonaning iqtisodiy manfaatlariga, ma'lum bir omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish • Korxonaning iqtisodiy manfaatlariga amalga oshirilgan tahdidlar tufayli etkazilgan zararni qoplash
7	Vaqt davri	<ul style="list-style-type: none"> • Hozirgi davrda korxonani himoya qilishni ta'minlaydigan iqtisodiy xavfsizlik (taktik iqtisodiy xavfsizlik)

		<ul style="list-style-type: none"> • Iqtisodiy xavfsizlik, strategik (uzoq muddatli) davrda korxonaning himoyasini ta'minlash (strategik iqtisodiy xavfsizligi)
8	Boshqaruv darajasi xavfsizlik	<ul style="list-style-type: none"> • Korxonadan tomonidan boshqariladigan iqtisodiy xavfsizlik • Korxonadan tomonidan boshqarilmagan iqtisodiy xavfsizlik
9	Iqtisodiy manfaatlarining himoyalash darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Korxonaning yuqori iqtisodiy xavfsizligi • Iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha o'rtacha (normal) iqtisodiy xavfsizlik • Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi past (etarli emas) darajadagi-iqtisodiy xavfsizlik
10	Iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi parametrlarning barqarorligi	<ul style="list-style-type: none"> • Korxonaning barqaror iqtisodiy xavfsizligi • Korxonaning barqaror bo'lmagan iqtisodiy xavfsizligi
11	Iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda qo'llaniladigan usullarning qonuniyligi	<ul style="list-style-type: none"> • Qonuniy usullar bilan ta'minlangan iqtisodiy xavfsizlik usullari • Noqonuniy usullar bilan ta'minlangan iqtisodiy xavfsizlik

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xo'jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi hisobot ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

- korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti, o'zining aylanma aktivlarining umumiy aktivlar summasiga nisbati;

- joriy likvidlik ko'rsatkichi;

- o'z kapitalining rentabelligi;

- umumiy to'lovga qodirlik ko'rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo'jalik sub'ektining barcha majburiyatlariga nisbati;

- kapitallashtirish koeffitsienti, o'z kapitalini bozor qiymati qarz mablag'lari-ning balans qiymatiga nisbati;

- menejment koeffitsienti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning yagona tizimini yaratish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladiki, ular hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlik faoliyati vazifalarini muvaffaqiyatli hal yetish

bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishning muhim talablari ham hisoblanadi:

1. Qonuniylik – xavfsizlik choralari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar doirasida ishlab chiqiladi.

2. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik – ko'rilayotgan iqtisodiy xavfsizlik choralari xo'jalik faoliyatining yomonlashuviga, foydasining kamayib ketishiga olib kelmasligi kerak.

3. Dasturli-maqsadli rejalashtirish, mustaqillik va mas'uliyat – korxonaning xavfsizlik xizmati o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan mablag', resurs, moddiy texnika anjomlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

4. O'zaro hamkorlik va faoliyatlarni muvofiqlashtirish – korxonaning turli bo'limlari ushbu tamoyil asosida faoliyat yuritishlari kerak bo'ladi.

5. Ixtisoslashuv va professionalizm – xavfsizlik xizmatining kadrlar tarkibi ushbu yo'nalishda ma'lum tayyorgarlikdan o'tgan va shunday ixtisoslikda kasb-korga yega bo'lishi kerak.

6. Ishni tashkil etish – xavfsizlikni ta'minlashda himoyaning zamonaviy vositalaridan foydalanish, ilg'or tajriba va ilmiy ishlanmalarga tayangan holda ishni tashkil qilish lozim.

7. Talabchanlik va nazoratning ochiqligi – korxonada ma'muriy-huquqiy tartibni qo'llash va unga rioya qilish ustidan nazoratni tashkil yetish.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda mustaqil xo'jalik sub'ektlari sifatida faoliyat yurituvchi xavfsizlik tadbirkorlik firmalari muhim rol o'ynaydi. O'zining xavfsizlik xizmati bo'limini tashkil qilish imkoniyatiga yega bo'lmagan korxonalar xususiy xavfsizlik xizmati hamda ob'ektlarni qo'riqlash bo'yicha huquq-tartibot organlari bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

Iqtisodiy manfaatlar korxonaning barqaror, ishonchli, moliyaviy-iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat yuritishi, personalning shaxsiy xavfsizligi va faolligini oshirish, yetarli darajada moddiy, informatsion intellektual salohiyatga yega bo'lishidan manfaatdorligidan ham yuzaga keladi. Iqtisodiy nazariya fanida xo'jalik sub'ektlari faoliyati to'g'risidagi bir qancha konsepsiyalar ilmiy jihatdan

asoslangan. Ularda korxonada iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq faoliyat, xatti-harakatlarning xususiyatlari yoritilgan.

An'anaviy firma nazariyasi uning yagona iqtisodiy manfaati foydani maksimallashtirishga qaratilganini asoslaydi. Menejerial nazariyaga ko'ra firmaning faoliyatini uning yegallari yemas, balki menejerlari belgilab beradi. Ularning iqtisodiy manfaatlari ishlab chiqarish va mahsulotlar sotish hajmini hamda daromadni maksimallashtirish hisoblanadi. Firma qisqa muddatli davrda tovar sotish hajmini maksimallashtirishga, uzoq muddatli davrda yesa foydani maksimallashtirishga harakat qiladi.

Firma yegallari kapitalni o'stirish, shaxsan boyishni xohlaydilar. Bunday xohish cheksiz bo'lib, menejerlar ish haqi, obro'-e'tibori, firmadagi o'z mavqeyini o'stirishni istaydi.

Ko'p maqsadlar konsepsiyasiga ko'ra firma bir necha maqsadni, ya'ni foyda, sotish hajmi, iqtisodiy o'sish va boshqalarni ko'zlaydi.

5.2. Korxonada ishlab chiqari, xizmat ko'rsatish va savdo soxasidagi iqtisodiy xavf-xatarlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada yagona milliy iqtisodiyotning uzviy tarkibiy qismi va ayni paytda, iqtisodiy jihatdan alohida bo'g'ini hisoblanadi. Korxonada O'z faoliyatini O'zini-O'zi boshqarish, O'z xarajatlarini O'zi qoplashi asosida foyda (daromad) olish maqsadida yuritadigan birlamchi xo'jalik sub'ektidir. Korxonalar ishlab chiqarish, savdo, tijorat-vositachilik, transport, sug'urta, bank, injiniring, moliyaviy investitsiya, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va turli xizmatlar ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi.

Korxonada faoliyatining asosiy maqsadi foyda (daromad) olish hisoblanadi. Shuningdek, korxonaning manfaatlariga ishlab chiqarishni kengaytirish, personalning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida texnologiya va mehnatni tashkil yetishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va taklif yetilayotgan mahsulotning iste'molchilari, mijozlari va insofli sherik, hamkorlarning sonini ko'paytirish ham kiradi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar, tashkilot va muassasalarning iqtisodiy jihatdan xo‘jalik sub’ektlari sifatidagi muvaffaqiyati ularning iqtisodiy manfaatlari talablarini qanday bajarilishiga bog‘liq bo‘ladi. Korxonaning muhim iqtisodiy manfaatlariga iste‘molchilar talablari va tadbirkorlik tavsifidagi ichki omillarga bog‘liq holda vujudga keladigan noaniq kutilmagan vaziyatlarga moslashish qobiliyati kiradi.

Korxonalar o‘zining foyda olish maqsadini amalgam oshirishi uchun muntazam ravishda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish texnologiyasini takomillashtirishga, mahsulotlarning iste‘mol xususiyatlarini oshirishga, ularni sotish jarayonlariga ko‘proq e‘tiborni qaratishga majbur bo‘ladi. Shuningdek, undan aylanma mablag‘lar harakatini tezlashtirish, barcha turdagi zaxiralarni kamaytirish, reklama, hamkorlar bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzish, kelishuv majburiyatlariga rioya yetish talab yetiladi. Mahsulotni sotish va xizmat ko‘rsatish jarayonida korxonaning iqtisodiy manfaatlari ro‘yobga chiqadi.

Iqtisodiy manfaatlar korxonaning barqaror, ishonchli, moliyaviy-iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat yuritishi, personalning shaxsiy xavfsizligi va faolligini oshirish, yetarli darajada moddiy, informatsion intellektual salohiyatga ega bo‘lishidan manfaatdorligidan ham yuzaga keladi. Iqtisodiy nazariya fanida xo‘jalik sub’ektlari faoliyati to‘g‘risidagi bir qancha konsepsiyalar ilmiy jihatdan asoslangan. Ularda korxonalar iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq faoliyat, xatti-harakatlarning xususiyatlari yoritilgan.

An’anaviy firma nazariyasi uning yagona iqtisodiy manfaati foydani maksimalashtirishga qaratilganini asoslaydi. Menejerial nazariyaga ko‘ra firmaning faoliyatini uning yegallari yemas, balki menejerlari belgilab beradi. Ularning iqtisodiy manfaatlari ishlab chiqarish va mahsulotlar sotish hajmini hamda daromadni maksimalashtirish hisoblanadi. Firma qisqa muddatli davrda tovar sotish hajmini maksimalashtirishga, uzoq muddatli davrda yasa foydani maksimalashtirishga harakat qiladi.

Firma yegalari kapitalni o‘stirish, shaxsan boyishni xohlaydilar. Bunday xohish cheksiz bo‘lib, menejerlar ish haqi, obro‘-e‘tibori, firmadagi o‘z mavqeyini o‘stirishni istaydi.

Ko‘p maqsadlar konsepsiyasiga ko‘ra firma bir necha maqsadni, ya‘ni foyda, sotish hajmi, iqtisodiy o‘shish va boshqalarni ko‘zlaydi.

Korxonada xavfsizligini ta‘minlash uchun xo‘jalik faoliyatining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini tahlil qilish yo‘li bilan uning turli tahdidlarga barqarorligi hamda xavfsizlik darajasi baholanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda ishlab chiqarishning texnik darajasi, sotilayotgan va xarid qilinayotgan litsenziyalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va qo‘llanilayotgan texnologiyaning jahonning eng yaxshi andozalariga mosligi, mahsulotning ilm talabligi va innovatsiya darajasi muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida xo‘jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi hisobot ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi:

- korxonaning o‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanish koeffitsienti, o‘zining aylanma aktivlarining umumiy aktivlar summasiga nisbati;

- joriy likvidlik ko‘rsatkichi;

- o‘z kapitalining rentabelligi;

- umumiy to‘lovga qodirlik ko‘rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo‘jalik sub‘ektining barcha majburiyatlariga nisbati;

- kapitallashtirish koeffitsienti, o‘z kapitalini bozor qiymati qarz mablag‘larining balans qiymatiga nisbati;

- menejment koeffitsienti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning yagona tizimini yaratish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladiki, ular hayotiy muhim manfaatlarni himoya qilish va tadbirkorlik faoliyati vazifalarini muvaffaqiyatli hal yetish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishning muhim talablari ham hisoblanadi:

1. Qonuniylik – xavfsizlik choralari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar doirasida ishlab chiqiladi.

2. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik – ko‘rilayotgan iqtisodiy xavfsizlik choralari xo‘jalik faoliyatining yomonlashuviga, foydasining kamayib ketishiga olib kelmasligi kerak.

3. Dasturli-maqsadli rejalashtirish, mustaqillik va mas‘uliyat – korxonaning xavfsizlik xizmati o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan mablag‘, resurs, moddiy texnika anjomlari bilan ta‘minlangan bo‘lishi lozim.

4. O‘zaro hamkorlik va faoliyatlarni muvofiqlashtirish – korxonaning turli bo‘limlari ushbu tamoyil asosida faoliyat yuritishlari kerak bo‘ladi.

5. Ixtisoslashuv va professionalizm – xavfsizlik xizmatining kadrlar tarkibi ushbu yo‘nalishda ma‘lum tayyorgarlikdan o‘tgan va shunday ixtisoslikda kasb-korga yega bo‘lishi kerak.

6. Ishni tashkil etish – xavfsizlikni ta‘minlashda himoyaning zamonaviy vositalaridan foydalanish, ilg‘or tajriba va ilmiy ishlanmalarga tayangan holda ishni tashkil qilish lozim.

7. Talabchanlik va nazoratning ochiqligi – korxonada ma‘muriy-huquqiy tartibni qo‘llash va unga rioya qilish ustidan nazoratni tashkil yetish.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda mustaqil xo‘jalik sub‘ektlari sifatida faoliyat yurituvchi xavfsizlik tadbirkorlik firmalari muhim rol o‘ynaydi. O‘zining xavfsizlik xizmati bo‘limini tashkil qilish imkoniyatiga yega bo‘lmagan korxonalar xususiy xavfsizlik xizmati hamda ob‘ektlarni qo‘riqlash bo‘yicha huquq-tartibot organlari bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

5.3. Korxonada iqtisodiy xavfsizligini himoyalash va korxonada tijorat siri

Korxonada turli yo‘nalishdagi iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqadi. Ularning muhimlari quyidagilardan iborat:

- mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo‘lgan. Iqtisodiy tahdidlarni bartaraf yetish yoki oldini olishga yo‘naltirilgan, masalan, axborot oqimlariga;

- xavfsizlik ob'ektlariga noxush, salbiy ta'sirlarni cheklovchi, masalan, tijorat sirini tashkil yetuvchi ma'lumotlar;

- riskni hisobga olgan holda innovatsion va investitsion siyosatni amalga oshirish oqibatida korxonaga yetkazilgan zarar yoki yo'qotishlarning o'rnini qoplash, ularni tiklashga qaratilgan xavfsizlik strategiyalari.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar ichida eng muhimlari iqtisodiy shpionaj va razvedka hisoblanadi. Mutaxassislarning hisobotlariga ko'ra AQShda har yili xususiy firmalar iqtisodiy razvedka maqsadlari uchun 1,5 mlrd. dollardan ortiq mablag' sarflaydilar. Yaponiya korporatsiyalari yesa shpionaj orqali boshqa mamlakatlarning texnika yutuqlari to'g'risidagi axborotlarning 40 foizga ega bo'lishadi. Ushbu yo'l bilan raqiblar bir-birlarining bozor strategiyalari, bitimlar, ishlab chiqarish rejalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirincha olishga harakat qiladilar. Yashirin tarzda saqlanayotgan ma'lumotlarni hujjatlarni o'g'irlash, nusxa ko'chirish, aloqa kanallarini yashirincha yeshitish, tegishli xodimlarni sotib olish, ularga tahdid qilish, kompyuter, elektron hisoblash texnikasi tarmog'iga kirish va boshqa usullarini qo'llash yo'li bilan iqtisodiy shpionlik faoliyatini amalga oshiradilar.

Tadbirkorlar tijorat sirlarini sanoat shpionajidan, oshkora bo'lishdan himoyalash uchun quyidagilarni amalga oshiradilar:

- ilmiy-texnikaviy yangilik va fchiiukueedfktsh himoya qilish uchun ularni patentlashtirish mualliflik huquqini olish, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni aniqlash;

- hujjatlar bilan ishlaydigan xodimlarni aniqlash, ro'yxatini tuzish, ularning faoliyatini muntazam nazorat qilish, axborot va ma'lumotlar bilan ishlash tartibini belgilash hamda uning ustidan nazorat o'rnatish;

- tijorat ma'lumotlari va axborotlarini maxsus hisobga olish, ularni saqlash tartibini o'rnatish, nazorat ostida ko'paytirish hamda maxsus shaxslar kuzatuvda hujjatlarni yo'q qilish;

- xodimlarni hujjatlar bilan ishlash va ularni himoyalash bo'yicha o'qitish, mashg'ulotlar o'tkazish, ko'rsatma, tavsiyalar berish, kundalik yeslatmalar qilish.

“Korxonatijorat sirlari” toifasining qonunchilikda belgilab berilgan tavsifnomasiga ko‘ra, ishlab chiqarish, texnologik ma’lumotlar, boshqaruv, moliya vashu kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni oshkor qilish korxonamanfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlardir.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko‘ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o‘z ichiga quyidagi ma’lumotlarni qamrab oladi:

- korxonaning savdo aloqalari haqida;
- kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari haqida;
- ta’minotchi va iste’molchilar, tuzilgan shartnomalar haqida;
- ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag‘lar va foyda hajmi haqida;
- bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi haqi;
- bank oppetsiyalar haqida va hokazolar.

Ko‘pincha “tijorat sirlari” tushunchasidan tashqari korxonaning “ishlab chiqarish sirlari” tushunchasi ham qo‘llaniladi. U ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar, texnik kashfiyotlar, tadqiqot ishlari, mehnatni tashkil qilish, aloqa tapmog‘i va shu kabilar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa raqobatchilik muhiti sharoitlarida korxonatijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste’molchilarini yo‘qotishga olib kelishi mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, tijorat sirlariga mansub ma’lumotlarni to‘rtidan bir qismi yo‘qotilishi ham raqiblar uchun katta imkoniyat yaratadi hamda bir necha oy ichida ma’lumotlar chetga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ygan firmalarning yarmi bankpotga uchrashiga olib keladi. Shu sabali hozirgi paytda tijorat sirlarining huquqiy maqomi va toifasini aniq belgilash, ularni oshkor qilish uchun javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, korxonaning moliyaviy va texnik imkoniyatlari bilan aloqada bo‘lgan, shuningdek ma’lumotlarni himoya qilishning ishonchli tizimi mavjud bo‘lgandagina to‘liq

kuch bilan ishlaydi.

Bundantashqari, quyidagilarni to'g'ri tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- tayyor mahsulot va materallarning ba'zi turlarini hisobga olish va qo'riqlash
- tadbirkorlik sirlari mavjud bo'lgan hujjatlar bilan ishlash tartibi (ularni hisobga olish, saqlash, yo'q qilish qoidalari va boshqalar);
- hujjatlarni ko'paytirish va ulardan nusxa olish vositalarini nazorat qilish;
- aloqa vositalari va hisoblash texnikasida tijorat ma'lumotlarini himoya qilish;
- korxonada hududi va uning asosiy bino va inshootlarini qo'piqlash;
- mazkur korxonaga begona shaxslar tashpif buyupishini nazorat qilish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni samarali bajarish boshqaruv apparatida tijorat sirlarini muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Xorij mamlakatlarida mazkur faoliyat bilan firmalarning maxsus bo'linmalari shug'ullanadi. Ular raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash va to'plash bilan ham shug'ullanadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ular savdo hamkorlarining tijorat sirlarini birgalikda himoya qilish imkoniyatini ham rad qilmaydilar. Masalan, ba'zi firmalar faoliyatida tadbirkorlik aloqalari davomida hamkorlarga berilgan ma'lumotlarni birgalikda himoya qilish bo'yicha maxsus shartnomalar tuzish tartibi ko'zda tutilgan.

Umumiqtisodiy tavsifdagi tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy sikl, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi, retsessiyalar;
- xom ashyo resurslariga jahon bozorlaridagi narxlarning tushib ketishi;
- xalqaro moliyaviy muassasalar va transnatsional banklarning kredit resurslari qiymatining o'sishi;
- tashqi qarz bo'yicha davlat majburiyatlarining bajarilmasligi.

Milliy iqtisodiyot doirasidagi tashqi tahdidlar ichida muhim o'rin tutadigan siyosiy tahdidlar quyidagilardan iborat:

- siyosiy tahlika va beqarorlik, ijtimoiy nizolarning kuchayishi;

- qonunchilikning takomillashmaganligi;
- iqtisodiyotni tartibga solishda rag‘batlantirish o‘rniga man qiluvchi, cheklovchi tavsifdagi usul va vositalarning ustuvorligi;
- davlat xaridi va buyurtmalarining qisqarishi;
- davlat ichki qarzlarning ko‘payishi, soliq yukining oshishi, monopolizmning himoya qilinishi va raqobatning cheklanishi;
- moliya siyosatidagi salbiy o‘zgarishlar, banklar sonining qisqarishi, moliya tizimi holatining yomonlashuvi, mulkni qayta taqsimlash va xususiy korxonalarni milliyashtirishning kuchayishi va h.k.

Ichki tahdidlar (endogen):

- korxonaning raqobat o‘rni, marketing strategiyasi va siyosati bilan bog‘liq tahdidlar;
- menejment darajasi bilan bog‘liq tahdidlar;
- resurslar va ulardan foydalanish bilan bog‘liq tahdidlar;

Tashqi tahdidlar (ekzogen):

a) Xalqaro tahdidlar

- umumiy iqtisodiy tahdidlar;
- xalqaro savdo beqarorligi;
- xalqaro raqobat;

b) Milliy tahdidlar

- siyosiy barqarorlik;
- ijtimoiy-iqtisodiy, demografik tahdidlar;
- bozordagi beqarorlik.

Asosiy tayanch tushunchalar

Korxonalar, risk (tavakkal) qilish, tijorat sirlari, axborot-tahlil, kadrlar funksiyasi, xavfsizlik konsepsiyasi, menejer, foyda olish, bozor munosabatlari, korxonalar, tashkilot, firma, tadbirkorlik sub'ektlari.

Nazorat uchun savollar

1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasining mazmun va mohiyati .
2. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi?
3. Kelajakda korxonaning yuqori o'sish va rivojlanish salohiyatini yaratish uchun nimalar qilish kerak bo'ladi?
4. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasining mazmuni nimadan iborat?
5. Korxonalar xo'jalik faoliyatining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tahlili qanday amalga oshiriladi?
6. "Korxonalar tijorat ishi" va "korxonalar tijorat operatsiyalari" tushunchalarining mazmunini tushuntiring. 2. Korxonalar tijorat operatsiyalarining turlari qanday? 3. "Savdo bitimlari" tushunchasining mazmunini tushuntiring. 4. Savdo bitimlarining xarakterli jihatlari nimadan iborat? 5. Tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomasi haqidagi konvensiya haqida nimalar bilasiz? 6. Kontragentlarning tijorat operatsiyalari subyektlari sifatidagi tasnifi qanday? 7. Korxonalar tijorat operatsiyalari amaliyotida firmalar qanday faoliyat yuritadi?

I-BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI IQTISODIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIY INDIKATORI SIFATIDA

6.1. Ijtimoiy manfaatlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari

6.2. Aholining turmush darajasini oshirish mexanizmi

6.3. Mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari

6.1. Ijtimoiy manfaatlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari


Ijtimoiy sohadagi manfaatlar milliy manfaatlarning eng asosiylaridan bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy sohadagi manfaatlar xalqning yuqori turmush darajasini ta'minlash borasidagi davlat siyosatida aks etadi. Aynan ijtimoiy sohadagi manfaatlar amalga oshganda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatga erishiladi.

Aholining yuqori turmush darajasi uning pul daromadlari dinamikasida, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar iste'moli, aholining mulkiy tabaqalashuvi darajasida, bandlik darajasida, aholining barcha qatlamlari uchun sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlari mavjudligida namoyon bo'ladi.

Aholi turmush darajasi milliy va shuningdek iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida aholini turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratildi.

Respublika aholisini ijtimoiy muhofaza qilish quyidagilarni o'z ichiga olgan mexanizm asosida amalga oshirildi:

- nogironlar, etim qolgan bolalar, yolg'iz qariyalarni ijtimoiy ta'minlashni o'z ichiga olgan tizim;
- kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam tizimi;
- aholining alohida guruhlari uchun ijtimoiy imtiyozlar tizimi;
- pensiya ta'minoti tizimi;
- pensiya tizimi orqali qamrab olinmagan keksa kishilarga nafaqa to'lash tizimi;
- ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi.



**6-rasm. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi
(2021-2022 yil. ming so'm)**

2022 yil yanvar-mart oylarida O'zbekistonda rubldagi 3 million 426,8 ming tanga muomalaga chiqarildi (2021 yil yanvar-mart oylarida -2 million 876,4 ming tanga), bu 29,1 yilning shu davriga nisbatan 2021 foizga ko'pdir.

2021-2022-yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



7-rasm. O'rtacha ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi (ming so'm)

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichida inson va oila hayotining barcha sohalarini ta'minlashga, umuman, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan va bir-birini to'ldiruvchi chora-tadbirlarning butun bir tizimi shakllandi. Bu davrda narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib keldi. Islohotlarning ushbu bosqichida daromadlar nisbatini o'zgartirish ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklaridagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorlarini bir vaqtning o'zida markazlashtirilgan tarzda qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshirildi. 90-yillarning birinchi yarmida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi.



8-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oylik ish haqi

6.2. Aholining turmush darajasini oshirish mexanizmi


Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko'rilganligi aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash va ularning turmush darajasini oshirishning ikkinchi eng muhim yo'nalishi bo'ldi.

Bozor munosabatlari vujudga kelayotgan davrda jamiyatdagi ma'naviy, ahloqiy muhit, odamlarning ruhiy va jismoniy holati maorif, sog'liqni saqlash hamda madaniyat va san'at sohalarining rivojlanganligiga bog'liq ekanligini hisobga olgan holda ushbu sohalar alohida qo'llab-quvvatlandi.

Mamlakatni va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va aholini himoya qilishning o'xshashi bo'lmagan, samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida respublikada aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan siyosat to'la-to'kis o'zini oqladi. Bunday siyosat o'rtacha umr ko'rish darajasini uzayishi, aholi daromadlarini oshishi, turmush darajasini ko'tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarni oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun zamin yaratdi.

Aholi ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida aholining Real daromadlari sezilarli darajada o'sdi.



9-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan %)

Respublika aholisini turmush darajasini oshirish va shu orqali mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda faol ijtimoiy siyosatning uchinchi yo'nalishi katta o'rin tutdi. Bunda aholini kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazildi. Bunday siyosat aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar va aholining shunga o'xshash boshqa guruhlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifasi, degan qoidadan kelib chiqib amalga oshirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida aholining eng muhtoj, ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari manfaatlarini himoya qilish mumkin bo'ldi, bu esa aholining muayyan bir qismi qashshoqlashuvining oldini olish, fuqarolar tinchligi va ahilligini ta'minlash imkonini berdi.

Har bir mamlakat qanday siyosiy va ijtimoiy harakatlarni amaliyotga joriy etishidan qat'iy nazar ularning yakuniy maqsadi xalq manfaatlarini, aholi turmush darajasini yaxshilash, yetakchi mamlakatlar safidan joy olishga qaratiladi

Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan kelgan tushumlar ulushi 71,5 foizni, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan olingan, 2,1 foizi shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlarni tashkil etgan.

“Turmush darajasi” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti sezilarli hissa qo'shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari hakida hisobot tayyorladi. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan.

Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000 yilda qabul qilingan “Ming yillik rivojlanish dasturi” hamda 2015 yilda tasdiqlangan “2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan

daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

“Turmush darajasi” atamasining ta'rifi va guruhleri O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan “turmush darajasi” atamasi kengroq qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi kontseptsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas.

Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigiyenik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi.

Biroq, bu ko'rsatkichlarning hammasini ham qiymat ko'rinishida baholash imkoni bo'lmaganligi sababli, ushbu parametrlardan bir nechtasini qamrab olgan holda, turmush darajasi baholanadi. Ulardan, eng asosiysi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar hajmi bo'lib, mazkur ko'rsatkich mamlakat aholisi turmush darajasini baholash bilan birga, xalqaro taqqoslamalarda ham foydalanish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy

xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi.

Farovonlik darajasining tahlili uy xo'jaliklarining iqtisodiy resurslarga egalik qilish darajasini, ularni iste'mol qilishga yoki jamg'arishga, shuningdek, ulardan birini tanlashga qodirligini aniqlashga imkon beradi.

Agar raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilning dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan kelgan tushumlar ulushi 71,5 foizni, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan olingan, 2,1 foizi shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlarni tashkil etgan.

Bozor sharoitida asosiy ish joyidan beriladigan ish haqi aholining aksariyat qismi uchun etakchi daromad manbai hisoblanadi. Aks holda u funksional rolini bajara olmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi aholi jami daromadining 60-80 foizini tashkil etadi, ya'ni ularning me'yoriy hayot faoliyatini ta'minlash asosi bo'lib xizmat qiladi.

Agar MDH mamlakatlarining aholi daromadlari tarkibini ko'radigan bo'lsak, yollanma ishchilarning ish haqi sifatida olgan daromadlari Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasida 55 dan 69 foizgacha bo'lsa, Qirg'izistonda 40 foiz atrofida, O'zbekistonda 28,8 foizni tashkil etadi. Mol-mulkdan kelgangan tushumlar 3,0 foizni, transfertlardan olingan daromadlar 25,5 foizga teng bo'lgan..

Ma'lumki, keyingi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida aholining ishbilarmonlikdan olingan daromadlari ulushi yil sayin oshib borib, 2020 yil yanvar`-dekabr` oylarida 58 foizga etdi. Bu ko'rsatkich 2010 yilda 50 foiz atrofida bo'lganligi inobatga olinsa, 8 foizga ko'payganligini anglatadi.

Mol-mulkdan olingan tushumlar kam bo'lsa-da, aholining tijorat banklariga bo'lgan ishonchining ortishi, innovatsion ishlanmalarning rivojlanishi, qolaversa, aktsiyadorlik korxonalarini daromadlarining ortishi, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk ob'ektlarini ijaraga berish va shu kabi bozor mexanizmlarining takomillashuvi tufayli aholining qo'lga kelib tushayotgan foizlar, dividendlar, mualliflik haqlari va

shu kabi mulkiy daromadlar ham yil sayin ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, 2010 yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida mulkiy tushumlarning ulushi 2,3 foizga teng bo'lsa, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 0,7 foizga ko'paygan.

Aholi jon boshiga daromadlari aholining jami umumiy daromadlarini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimizda doimiy aholining o'rtacha yillik soni 34232,1 ming kishini tashkil etgan. Ana shu davrda aholi umumiy daromadlari hajmi 401,5 trillion so'mni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi 2,6 foizga oshgan. Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari esa 11,7 million so'm, real o'sishi 0,7 foizga teng bo'lgan.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan manzilli chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlari o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'lyapti. Bunda aholining turli guruhlarini daromadlari darajasidagi tafovutni aks ettiradigan Jini koeffitsienti 2000-2020 yillarda 0,39 dan 0,26 ga pasaydi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining yaxshilanishi natijasida jami iste'mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish salmog'ining barqarorlashib borishi bilan bir qatorda, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga sarflanadigan xarajatlar ulushi ortmoqda. Agar 2020 yil yanvar-noyabr oyidagi ko'rsatkichlarni 2000 yil ma'lumotlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlar 61,4 foizdan 48,1 foizga kamayganligini, nooziq-ovqat mahsulotlariga — 25,8 dan 32,8 foizga, xizmatlarga — 12,8 dan 19,1 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Aholi iste'mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlariga xarajatlarning barqarorlashishi, nooziq-ovqat va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlarning ulushi ortib borayotganligi quvonarli hol, albatta.

Aholining uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta'minlanganligi qay darajada? 2000-2020 yillar mobaynida aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik darajasi ham ortib bormoqda. Shunisi ahamiyatliki, bunday buyumlarning aksariyati o'zimizda ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, aholining shaxsiy yengil avtomobillar bilan ta'minlanganlik darajasi 2020 yil

yakunlariga kelib har 100 xonadonga 48 taga etdi. Har bir 100 xonadonga to'g'ri kelgan televizorlar soni 161 tani tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 1,8 martaga oshgan. Konditsionerlar — 34 dona (2000 yilga nisbatan o'sish — 3,1 barobar), elektr changyutgichlar — 59 dona (o'sish — 2 barobar), kir yuvish mashinalari — 80 dona (o'sish 1,2 barobar) ga tengligini ko'rsatyapti.

Bundan tashqari, AKT vositalari (shaxsiy komp'yuterlar, ya'ni stolga qo'yiladigan, ko'chma kompyuter (noutbuk, netbuk), planshet va boshqa yonida olib yuriladigan kompyuter hamda uyali aloqa telefonlari)ning aholi hayotiga shiddat bilan kirib kelishi va bu vositalarning imkoniyatlari kundan kunga kengayib borishi aholi uchun aloqa qilish, axborot almashish va dunyodagi yangiliklardan tezkor xabardor bo'lish barobarida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratib bermoqda.

2020 yil yakunlariga ko'ra, 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri kelgan shaxsiy komp'yuterlar 56 donani (2000 yilda bu ko'rsatkich 0,2 dona) tashkil etgan bo'lsa, 2000-2020 yillar mobaynida uyali aloqa telefonlari bilan ta'minlanganligi 15,8 barobarga oshdi (2020 yil yakuniga kelib har 100 xonadonga 285 tadan, ya'ni, har bir xonadonga 2,9 tadan uyali aloqa telefonlari to'g'ri keldi).

Ushbu ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda aholining kundalik hayotida zarur bo'lgan tovarlar qatorida elektr changyutgichlar, kir yuvish mashinalari, kompyuterlar hamda konditsionerlar kabi maishiy texnika vositalariga hali hamon ehtiyoj mavjud. O'z navbatida, ushbu ma'lumotlar respublikamizda bu kabi tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda horijiy davlatlardan tovarlarni import qiluvchi sub'ektlar uchun katta hajmdagi iste'mol bozori mavjudligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish maqsadida bir qator xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Jahon banki vakillari bilan hamkorlikda uslubiyotni takomillashtirish, savolnomalarni xalqaro standartlarga moslashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni, kuzatuv jarayonida 2020-yilgacha foydalanilgan qog'oz shaklidagi savolnomalardan

voz kechib, 2021-yildan boshlab to'liq uy xo'jaliklarida kuzatuvni planshetlar yordamida o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda keng qo'llaniladigan ushbu zamonaviy tizimga ko'ra, kuzatuv so'rovnomalari planshetlarga o'rnatilib, interv'yular ulardan foydalangan holda olinadi. Respondent tomonidan intervyu savollariga berilgan javoblar ana shu planshetda qayd etib boriladi va onlayn rejimda yagona ma'lumotlar bazasiga uzatiladi. Bu, o'z navbatida, kuzatuvlar monitoringini yuritish, sifatni nazorat qilish imkonini beradi.

Respublikada har 3 yilda ish haqini 2-2,5 barobar oshirish muhim strategik vazifa bo'lib hisoblanadi. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish respublika oldidagi asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi.

Respublikada daromadlar tarkibining takomillashuvi xarajatlar va iste'mol tarkibining ham yaxshilanishiga olib kelmoqda. Aholining banklarga qo'yilmalari va qimmatbaho qog'ozlar ko'rinishidagi naqd pul jamg'armalari ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga aholi iste'mol xarajatlari tarkibida ovqatlanish uchun xarajatlarning kamayishi va xizmatlarga bo'lgan xarajatlarning o'sishi tendensiyasi davom etmoqda.

6.3. Mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ularning oqibatlarini xavfsizlik nuqtainazaridan tahlil qilmasdan va baholamasdan turib biror bir yo'nalishga ustuvorlik berish davlat va jamiyatning hayot faoliyatini ta'minlovchi tizimlarning parokandaligiga olib kelishi mumkin.

Mintaqaviy va lokal urushlar, texnogen xarakterga ega bo'lgan halokatlar, dunyoning bir mamlakatida boshlanib, tezlik bilan boshqa mamlakatlarga ham tarqalayotgan inqirozlar, terroristik aktlar ham milliy, ham xalqaro darajalarda xavfsizlikni ta'minlashning zaruriyatini cheksiz oshirmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat xavfsizligi tizimidagi muhim yo'nalish bo'lib, mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ekologik halokatlardan himoya qilish kabi yo'nalishlar bilan bir qatorda turadi. Mana shu yo'nalishlar bir – birini to'ldirib turadi va bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, mamlakat iqtisodiyoti baquvvat bo'lmasa, u barqaror rivojlanmasa, ushbu mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash mushkul bo'lib qoladi. Ayni paytda, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanmas ekan, uning mudofaa qobiliyati ham mustahkam bo'lmaydi va iqtisodiyoti samarali rivojlanmaydi.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlatni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalaridagi o'zgarishlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligini belgilovchi tamoyildir. O'tish davrida aynan davlat milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda islohotlar jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi va ustuvor vazifalarini belgilashi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchil amalga oshirishi zarur ekanligini O'zbekiston tajribasi yaqqol namoyon qildi.

Ko'pgina ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy tizimining chegaraviy qiymatlari iqtisodiy tahdidlar doirasidan tashqariga chiqmadi.

Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yalpi ichki mahsulotning natural-ashyoviy hajmi;
- asosiy kapitalga investitsiyalar; – ijtimoiy ko'rsatkichlar.

Iqtisodiyot sohasida ustuvor yo'nalish aholining farovonligini o'stirishbo'lgani sababli, aynan u YAIM hajmining chegaraviy qiymatlarini va u bilan bog'liq boshqa ko'rsatkichlarni hisoblashda dastlabki bosqich bo'lishi kerak.

Aholining ijtimoiy holati uchta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi:

- yashash uchun eng kam daromadga ega bo'lgan aholining ulushi;
- aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foiz bilan eng kam ta'minlangan 10 foizning o'zaro nisbati;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va yashash uchun zarur eng kam daromad o'rtasidagi nisbat.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, yashash uchun zarur eng kam darajadan ham kam daromadga ega bo'lgan aholining ulushi 7–10 foizni, eng boylar va eng kambag'allar daromadlari o'rtasidagi farq esa sakkiz baravardan ortiq bo'lmaganida ijtimoiy sohadagi tahdidlar eng kam darajada bo'ladi. Ayrim rossiyalik olimlar iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatini belgilashda 1990-yildan boshlab BMT qabul qilgan Inson rivojlanishining indeksi (IRI)ni qabul qilishni taklif etadilar. Ushbu indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashtiruvchi ko'rsatkichi (mezoni) hisoblanadi.

Shunday ekan, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Darhaqiqat, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi shaxs, jamiyat va davlatning muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Biroq, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha O'zbekiston dunyo reytingida 187 mamlakat o'rtasida 134-o'rinda turibdi. Vaholanki, O'zbekiston juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan davlat. Yurtimiz zaminida oltin, kumush, mis, uran, neft, tabiiy gaz, ko'mir kabi tabiiy qazilma boyliklarning katta zaxiralari mavjud. Umuman, Mendeleevning kimyoviy moddalar jadvalidagi barcha 53 elementlarni mamlakatimizdan topish mumkin».

Darhaqiqat, dunyo mamlakatlari reytingida bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston ham 187 ta mamlakatlar ichida 134-o'rinda turishi ham quvonarli ko'rsatkich emas. Agar aholi sonining oshib borishi va har bir kishining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabi oshib borishini hisobga olsak, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni jadal rivojlantirish o'ta jiddiy va dolzarb hayotiy masala ekanligi hammaga ayon bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, jumladan, maqbul narxlar bo'yicha keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash oldimizda turgan

muhim vazifalar qatoriga kiradi», deb ta'kidlashlari O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish» vazifasi qo'yilgani muammoning jiddiyligidan dalolat beradi. 2018- yil 12- sentyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakati-miz iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan yig'ilishda: «iqtisodiy o'sish – bu, birinchi navbatda, yangi korxonalarni qurish va kengaytirish, yo'ltransport, ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, inflyasiya va narxlarni jilovlash hamda odamlarni ish bilan ta'minlash deganidir»¹⁸ , deb ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash muhimki, ko'plab mamlakatlar statistikasi miqdor indikatorlariga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishni maqsad qilgan davlatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

- samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va istiqboli yo'q, eskirgan ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish;
- tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;
- iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;
- mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;
- iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalgam oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to'lovga qodir talab bilan uyg'unlashtirish;
- korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;
- eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlashni oshirish.

Asosiy tayanch iboralar

Xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, iqtisod, siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi, demografik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Takrorlash uchun savollar

8. “Iqtisodiy xavfsizlik” fani nimani o’rgatadi?
9. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining obyekti deganda nimalarni tushunasiz?
10. “Xavfsizlik” va “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchalarining mohiyati qanday?
11. “Iqtisodiy xavfsizlik”ning qanday turlari bor?
12. “Iqtisodiy xavfsizlik”ning tarkibiy elementlari nimalardan iborat?
13. Iqtisodiy xavfsizlik inshootlari nimalarni tushunasiz?
14. Iqtisodiy xavfsizlik muammolariga nimalar kiradi?

VII-BOB. IQTISODIYOTNI INVESTITSION-INNOVATSION RIVOJLANISH YO'LIGA O'TISHDAGI XAVFSIZLIK SHARTLARI

7.1. Investitsiyalarning iqtisodiy xavfsizlikdagi roli

7.2. Innovatsiyalar-iqtisodiy xavfsizlik omili.

7.3. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni takomillashtirish


7.1. Innovatsiyalar-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omili

Innovasion iqtisodiyotga o'tish ga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi, kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning yetishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifa chet mamlakatlar bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investisiya kabi sohalarda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iborat.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim yo'nalishi xalqaro savdo bo'lib, bunda mamlakat chegarasidan tashqarida amalga oshiriladigan tovar va xizmatlar almashinuvi tushuniladi. Xalqaro savdoning vujudga kelishi mutlaq xarajatlardagi tavofutlar va qiyosiy xarajatlardagi tafovutlar bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra korxonalar (yoki mamlakatlar) tashqi savdoni amalgam oshirayotganida, o'zlari ishlab chiqarmagan (yoki bu ular uchun chetdan sotib olish arzonga tushadigan) mahsulotlarni sotib oladilar hamda o'zlari foydalanmaydigan (yoki foydalanishdan ortib qoladigan) mahsulotlarni chet el mamlakatlari yoki korxonalariga sotadilar.

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion turi mamlakat iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va samaradorligi yuqori bo'lgan raqobatbardosh institutsional muhitni shakllantirish va pirovardida innovatsion

iqtisodiyotning talablariga mos tarzda iqtisodiy o'sish omillari va manbalari o'zgartirishni talab etadi. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishga, eng avvalo, bilimlarga asoslanishi bilan tavsiflanadi, ammo bilimlarning amalda ishlashi uchun davlat va xususiy sektorning sherikchligini rivojlantirish, ilmiy muassasalarning vakolatlarini kengaytirish, tegishli me'yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinishini ko'zda tutuvchi zaruriy institutsional muhit talab etiladi.



10-rasm. Innovatsion faoliyatda iqtisodiy xavfsizlik ta'minlash omillari

Iqtisodiy rivojlanishning mazkur turi samaradorligi yuqori bo'lgan va sifat jihatdan takomillashgan ishlab chiqarish omillaridan keng foydalanishga asoslangan holda, mahsulot ishlab chiqarish ko'lamlarini oshirish bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarishning o'sishiga, amalda xodimlar malakasini oshirish, birmuncha tejamkor resurslar va yuqori unumli texnikalardan keng foydalanish, shuningdek ilm-fan yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni keng qo'llash hisobiga ta'minlanadi. Ushbu omillar hisobiga resurs tejamkorlikka, mahsulot sifatining yaxshilanishi, mehnat unumdorligining o'sishi kabi bir qator ijobiy natijalarga erishiladi. Davlat tomonidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi

va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish innovatsion rivojlanishni ta'minlashning muhim omili sanaladi. Odatda, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar qo'yilgan maqsadga erishishda innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi strategiyasini tanlashadi.

Ularning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini rivojlangan yoki muvaffaqiyatli rivojlanayotgan mamlakatlar darajasiga yetkazishdan iborat. Ushbu strategiya yangi bilim va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish emas, balki ularni import qilishga qaratilgan. Ushbu strategiyani qo'llayotgan mamlakatlar arzon ishchi kuchi va past narxli xomashyodan foydalanish hisobiga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali, qo'shni davlatlar bozorlaridagi talabni qondirish hisobiga eksport hajmini oshirishga intilmoqda.

Innovatsion rivojlanish modelini tatbiq etayotgan mamlakatlar yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish, innovatsion menejment va ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan, jarayonlarni avtomatlashtirish asosida harajatlarni kamaytirish hisobiga yangi bozorlarni yaratish orqali o'z eksport hajmini oshirishga intiladi. Shuningdek, ayrim mamlakatlar bir vaqtning o'zida ikkala rivojlanish strategiyasini birlashtirgan holda, ya'ni innovatsion rivojlanish modeli strategiyalarini uyg'unlashtirgan holda qo'llash orqali o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modelini yaratgan. Innovatsiyalarning mohiyatini va o'ziga xos jihatlarni tushunib yetishda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'rtasidagi farqni aniqlab olish muhim hisoblanadi. Yangilik (innovatsiya) – turli sohalarda rasmiylashtirilgan fundamental, amaliy tadqiqot va ishlanmalar natijasi (yangi bilim, uslub, ixtiro) bo'lib hisoblanadi. Yangiliklarni joriy qilish, ya'ni yangi bilimlarni muayyan ehtiyojlarni qondirish va bozor tan olinishi uchun amaliy tatbiq etilishi yangiliklarni innovatsiyaga aylantiradi.

Innovatsiyalarning hozirgi zamon nazariyasida yangilik va innovatsiya atamaları o'rtasida farqqa unchalik e'tibor qaratilmaydi, ulardan amalda sinonim tushunchalar sifatida foydalaniladi. Ta'kidlash lozimki, innovatsiyalarning yangilikdan asosiy farqlovchi jihati shundaki, innovatsiyalar. Zamonaviy innovatsiya nazariyasida Innovatsiya va yangilik terminlari bir-biridan

farqlanmaydi, balki ular sinonim soʻzlar boʻlib hisoblanadi. Mazmun jihatdan farqlar shundaki yangilik sifatida birinchi marta joriy etilgan maʼnoni anglatadi. yangiliklarni birinchilardan boʻlib amaliyotga joriy etilishini nazarda tutadi.

Shunday qilib, innovatsiya yangilik dan shunisi bilan farq qiladiki, yangi mahsulot dastlab bozorga kiradi, soʻngra bozor tomonidan qabul qilinsagina u keyinchalik tijorat qiymatiga ega boʻladi. Koʻrinib turibdiki, innovatsiya bu yangilikni amalda qoʻllashni anglatadi. Yaratilgan yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki mehnatni tashkil etish va boshqarish borasida ishlab chiqilgan yangicha yondashuvlar amalda oʻz ifodasini topsagina, bu yangiliklar innovatsiyalarga aylana oladi, demakki, barcha yangiliklar ham innovatsiya boʻla olmaydi. Innovatsiyalar qaysi sohaga yoki qanday koʻrinishga ega ekanligidan qatʼi nazar ularning mohiyatini aks ettiruvchi umumiy jihatlar birlashtirib turadi. Qarab chiqilayotgan mahsulotlarning innovatsiya sifatida qabul qilinishining asosiy sharti va ayni paytda innovatsiyalarning umumiy qirralarini ochib beruvchi xususiyatlarni koʻrib chiqamiz.

Birinchidan, ishlab chiqarishga joriy etilayotgan va yoki bozorga olib chiqilayotgan barcha mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar yangi (yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan) boʻlishi lozim.

Ikkinchidan, yaratilgan mahsulot ishlab chiqarish yoki shaxsiy isteʼmol ehtiyojlarini qondira olishi va ayni paytda kiritilgan yangilik aniq bir tovar, xizmat yoki jarayonda oʻz aksini topgan boʻlishi talab etiladi.

Uchinchidan, yaratilgan mahsulot bozor talabiga mos kelishi, tijorat jihatdan oʻzini oqlashi va pirovardida ishlab chiqaruvchilar talabini qondirish kerak. Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti – bu intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimi, tovar yaratishdan tortib, u isteʼmolchiga yetib borguniga qadar barcha bosqichlar demakdir. Ushbu yoʻnalishlardagi innovatsiyalar korxonalar strategik rivojlanishining asosiy resursi vazifasini oʻtaydi. Zero, bugungi sharoitda innovatsion, intellektual bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini mujassam etgan yuqori fan sigʻimiga ega texnologik iqtisodiyot raqobatbardoshdir.

Innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi:

- yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyalar, mahsulotlar, asbob-uskunalar, materiallar va h.k. joriy qilish hisobiga mahsulot (tovar, xizmat) ishlab chiqarishning o'rishini ta'minlash;
- innovatsion mahsulot hajmi ulushini innovatsion faol korxonalar mahsulotlari umumiy hajmining 20%igacha yetkazish, ya'ni Yevropa ko'rsatkichlariga yaqinlashtirish;
- fan-texnika va ishlab chiqarish sohalarida qo'shimcha ish o_rinlari yaratish;
- ITTKI va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi sxemalarini joriy qilish hisobiga innovatsion sohaga qo'shimcha resurslar jalb qilish;
- zaruriy innovatsion infratuzilma (texnoparklar, innovatsion-texnologik markazlar, kichik innovatsion-texnologik korxonalar va b.), innovatsion faoliyat subyektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish;
- innovatsion faoliyat qatnashchilarining munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asoslar shakllantirish;
- innovatsion sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimlari yaratish;
- innovatsion faoliyat qatnashchilarini axborot bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni boshqarish tizimlarini yaratish;
- mahsulot (tovar, xizmat) raqobatbardoshligi va ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- ichki va tashqi bozorlarda sanoat va fan-texnika mahsulotlarini yanada siljitish uchun sharoitlar yaratish;
- innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlik va tarmoqlararo kooperatsiya ilg'or tajribalari va ustunliklaridan maksimal darajada foydalanish.

Innovatsion tizimni tahlil etar ekanmiz, ushbu faoliyatni amalga oshirish tavakkalchilik va xatarning yuqori darajasi bilan tavsiflanishini e'tiborga olib,

infratuzilmaning alohida unsuri sifatida sug'urta kompaniyalarining o'zni beqiyosdir. Davlatning sug'urta bozorini rag'batlantirishi innovatsion korxonalar va ularning mijozlari faoliyatlari xatarlarini sug'urtalash miqdorini o'sishiga olib keladi. Bu innovatsion investitsion korxonalar va ularning mijozlarining qarzidor sifatidagi mavqelari ko'tariladi, bank sektori esa bu xil iqtisodiy agentlarga kredit mablag'lari taqdim etishdan yuqori darajada manfaatdor bo'ladi. O'zbekiston

Respublikasining milliy innovatsion tizimining faoliyat ko'rsatishi chizmasidagi jamoat tashkilotlari elementini innovatsion investitsion korxonalarining manfaatlarini ifoda etadi. Ular o'rtasida birmuncha mashhurlari bo'lib, asosan kichik va o'rta biznes vakillari manfaatlarini himoya qiluvchi O'zbekiston Respublikasi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisoblanadi. Innovatsion xavfsizlikning muhimligini sifat jihatdan baholash mamlakatning mavqeini mustahkamlashga va uning Innovatsion xavfsizlik kategoriyasi mamlakatning barqaror va dinamik ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, uning farovonligi va taraqqiyotini iqtisodiy hamda texnologik erkinligi va mustaqilligini, mudofa qobiliyatini ta'minlay oladigan milliy innovatsion tizimning rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tahdidlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Innovatsion xavfsizlik tushunchasi o'zaro bog'liq ikki quyi tizimni o'z ichiga olishi kerak:

- 1) innovatsion xavfsizlik obyektlarining quyi tizimi: fan va kadrlar, texnika va texnologiya, mahsulotlar va xizmatlar, sotish va tijorat maqsadlarida foydalanish;
- 2) quyi tizimga xizmat ko'rsatuvchi: investitsiya, boshqarish (menejment), marketing.

Innovatsiya sohasidagi mamlakatning milliy manfaatlarini amalga oshirish borasidagi vazifalarni va faoliyatni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan, tor bo'g'inlar yoki bu boradagi imkoniyatlarni yo'qqa chiqaruvchi shart-sharoitlar va omillar innovatsion xavfsizlikka tahdidlar deb ataladi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlariga qarab guruhlariga ajratish mumkin: qayta ishlovchi ishlab chiqarish, foydali qazilmalarni qazib olish, elektr energiyasi, gaz va suvni ishlab chiqarish va

taqsimlash, transport va aloqa kabi boshqa sohalardagi tahdidlar. Milliy ishlab chiqaruvchilar va korxonalar oldida turgan eng katta tahdidlardan biri – bu asosiy vositalarning jismoniy va maʼnaviy eskirishi hisoblanadi. Oʻzbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning uchta mumkin boʻlgan variantlari mavjud. Inersion (importga yoʻnaltirilgan) texnologik rivojlanishning birinchi varianti. Unda innovatsion rivojlanishga yoʻnaltirilgan saʼy-harakatlarning yoʻqligini, shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va byudjetdan fan, innovatsiyalar, investitsiyalar va shuningdek, inson resurslari va kapitalni rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlarning nisbatan past koʻrsatkichlarini aks ettiruvchi siyosatni oʻzida aks ettiradi. Aksariyat hollarda institutlarni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish boʻyicha innovatsion siyosat umumiy choralar, shuningdek, katta xarajatlarni talab qilmaydigan tashkiliy choralari yordamida amalga oshiriladi.

Yuqori darajadagi ehtimollik bilan ushbu oʻziga xos variant milliy innovatsion tizimning yanada zaiflashishiga olib keladi va iqtisodiyotning xorijiy texnologiyalarga qaramligini yanada oshiradi. Oʻzbekistonning innovatsion tizimi bir qator alohida ilmiy va texnik segmentlarga boʻlingan boʻlsada, unda asosan toʻqimachilik tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

7.2. Investitsiyalarning iqtisodiy xavfsizlikdagi roli

Innovasion iqtisodiyotga oʻtish sharoitida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi Oʻzbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, istiqbolli, zamonaviy tarmoqlarni vujudga keltirishga, ishlab chiqarishni modernizasiya qilishga, ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan toʻldirishga, tovarlarni eksport qilishning yangi bozorlarini, xoʻjalik sub'ektlarini boshqarishni zamonaviy menejment asosida qayta tashkil etish va takomillashtirishga, yangi ishchi oʻrinlarini yaratishga imkon beradi. Kapital kirituvchi xorijiy investorning investitsiyalardan kutilayotgan daromadi kapital evaziga olish mumkin boʻlgan foiz stavkasidan yuqori darajada boʻlishi kerak.

Shuni aytish joizki, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bir qatorda, ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olish, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Chunki xorijiy investorlar tomonidan insofsiz xatti-harakatlar sodir etilishi mumkin. Bunday insofsizliklar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog'liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy jivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, har qanday mamlakatning bundan keying yuksalishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog'liq. «Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «capital qo'yilmasi» ma'nosini beradi.


Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki birorbir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyosligi uning aniq mohiyatini o'rganib chiqishni talab qiladi. Iqtisodiy log'atda "Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qoyilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga va boshqa tarmoqlarga sarf qilinadigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi",-deb tariflangan.

Ishlab chiqarish nazariyasi va, umuman, maqroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda

real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushiniladi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir.

Demak, bizningcha, “Investitsiyalar – bo’sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir” Bizga ma’lumki, iqtisodiy o’sish investitsiya resurslarisiz bo’lishi mumkin emas, bu resurslar o’z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag’dir. Pul mablag’lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so’ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o’sishni ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati tog’risida”gi qonunida investitsiyalar tayinlangan ob’yekti bo’yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan. (8-rasm)



11-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- Birlamchi (avaylangan) jamg’arilgan kapitalni ko’paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik ob’ektlariga joylashtirish;
- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o’rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar. Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo’yilgan kapital.

O’zining moliyaviy shakliga ko’ra, ular foyda olish maqsadida xo’jalik faoliyatiga qo’yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko’ra, u yangi

korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan harajatlardir. Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aktsiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiya jarayoni – bo'sh sarmoyaga ega bo'lganlar bilan sarmoya talab qilayotganlarning uchrashish jarayoni. Ikkala tomon, odatda, moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan, mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va xaridorlar bevosita muomalaga kirishadilar.

Investitsiya ob'yekti deyilganda, mablag'larni, yaniy qonun doirasidagi barcha boyliklar safarbar qilinayotgan ob'yektlar tushiniladi, ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellektual mulk va boshqalar bo'lishi mumkin. Investitsiya subyektlari investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir. Odatda, har qanday investitsion faoliyat muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi.

Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi. Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faollikni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib

turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z investitsiya siyosatini olib bormoqda. Investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi.

Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal etish va shu asnoda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan. Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxonalar investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bag'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sariflashda aholi, hudud va investor manfa'atlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladiga chora-tadbirlar majmuyi. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llabquvvatlash hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarga aylandi. Respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilardan

kelib chiqadi: ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu erda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyating mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi; respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lish zarurligi va boshqalar.


Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvuz etib bo'lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Yani maishiy muhtojliklarning katta bo'limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakllanadi, eski va og'ir mehnat turmishidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o'tiladi. Davlatning kelajkdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugingi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi.

7.3. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni takomillashtirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu investitsion faoliyatni takomillashtirish va uning o'sishini ta'minlovchi yangi mexanizmlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Investitsion faoliyatni shakllantirish va chet ellik investorlarni mamlakatga jalb qilish juda murakkab jarayon bo'lib, bu ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tayotgan barcha mamlakatlar uchun zarurdir. Chunki investitsiyaviy faoliyat va

investitsiyalarni boshqarish ko'plab omillarga bog'lik, binobarin, ularni boshqarishning biror bir usuli alohida, aniq ko'rinishda hech qanday adabiyotda yaqqol tarzda ko'rsatib o'tilmagan. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi, eng avvalo, chet el investitsiyalarini o'zlashtirish va zamonoviy texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi progressiv va raqobatbardosh ishlab chikarishni harakatga keltirish asosida ta'minlanishi mumkin. Lekin xo'jalik subyektlarida hamon moliyaviy resurslarning kamligi investitsiya kiritish darajasini chegaralab qo'yuvchi muhim sabab bo'lib kelmokda. Taklif etilayotgan ishlab chikarish omillari - ishchi kuchi, asbob-uskunalar, konstruksion materiallar, texnologiyalar, aholining to'lov qobiliyatiga ega qismidan yukori bo'lmokda. Bu esa investitsion faoliyat natijasidagi ishlab chiqarilayotgan tarmoq mahsulotlari bahosi boshqa mahsulotlarga nisbatan narxning pasayishiga sabab bo'ladi. Bozor islohotlari ba'zi korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashuviga olib kelmoqda va ularning holatini yaxshilash bo'yicha davlatimiz tomonidan dasturlar ishlanmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya tizimi



12-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya tizimi.

Bu holat faqat real foydaning qisqarishiga emas, balki rentabellik darajasi pasayishiga, zarar bilan ishlayotgan korxonalarining ko'payishi, qarzlar va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'lanmasligi darajasi oshishida ham namoyon bo'lmoqda. Qarzlarning ortishi yetkazib beruvchi va iste'molchining moliya - kredit siyosatiga munosabatining natijasi bo'lib, korxonalarining yangi sharoitda ishlashga salbiy munosabatini keltirib chiqarmoqda. Yana bir tomoni, pul inflyasiyasi va shartnomaviy intizomning sustliti sabab qarzlar o'z vaqtida to'lanmasligi ayrim korxonalar va banklarning moliyaviy maifaatlari doirasiga kirib, o'z vaqtida hisob-kitoblarning qilinmasligidan ko'shimcha daromad olish uchun foydalanish, mablag'larning vositachi, moliyakredit operatsiyalariga jalb etish, penyalarning olinishi hollariga olib kelayapti. Investitsion faoliyatni isloh qilishda xususiyashtirilgan korxonalarining moliyaviy va investitsiyaviy faoliyatiga ham muhim o'rin ajratiladi.

Korxonalar mol-mulkini hamda aksiyalarini sotish hisobiga kapital mablag'larni moliyaviy ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ammo aksiyalarga talab sustligi va ularning asosiy qismi korxonada faoliyat yuritayotgan mehnat jamoasiga birlashtirilganligi sababli bir qator hollarda xususiyashtirish investitsion samaradorligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ichki va tashqi investorlarni jalb etish uchun erkin bozorda o'z aksiyalarini sotishda ularning manfaatdorliklari hisobga olinmagan hollar mavjud, korxonalarda qiziqtirish mexanizmi deyarli yaratilmagan.

Aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni aksiyalarni sotish va ikkilamchi bozorda ularning narxini ko'tarish hisobiga qo'shimcha mablag'larni jalb etish manbaiga endi aylanmoqda. Inflyasiya su'ratlarining pasayishi, bank foiz stavkalari qisqarishi va davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning daromadi iqtisodiyotdagi real sektorga katta miqdorda kredit resurslarini jalb qilishga ko'mak berishi lozim. Biroq hozircha bu zahiralari yetarli emas. Shu sababli ishlab chiqarishni kengaytirayotgan korxonalar oldida investitsiya manbalarini izlash muammosi ham yuzaga keladi.

Mamlakat ichkarisida moliyaviy zahiralarning taqchilligi sezilayotganligi tufayli ko'plab korxonalar sarmoya ajrata oladigan, zamonaviy ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyasiga ega bo'lgan hamda chet el bozoriga chiqishga yordam beruvchi xorijiy hamkorlar topishga intilmoqdalar. Investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etishga xalq xo'jaligini tarkibiy qayta qurishga erishishning muhim sharti, deb qaralmoqda. Asosiy muammo shundaki, tadbirkorlarimizning o'ziga xos manfaatlari har doim ham bir-biriga mos tushavermaydi. Ko'plab sabablar tufayli xorijiy investorlarning asosiy qismi iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarga ko'yiladigan sarmoyalarga faqatgina dividend va foizlar ko'rinishidagi pul ishlash yo'li deb qaramaydi. Ular bunday sarmoyalarni umumiy strategiyasining bir qismi, deb hisoblashadi.

Xorijiy tadbirkorlarning asosiy maqsadi ertasi bor bo'lgan bozorda mustaxkam o'rnatish, moliyaviy oqimlar ustidan nazorat o'rnatish, import va valyuta cheklashlarini chetlab o'tish va ba'zan raqobatchi korxonani bozordan siqib chiqarishdan iborat. Shu sababli ham xorijiy investorlarga iqtisodiyotni ko'tarishdagi asosiy harakterlantiruvchi kuch sifatida qarash mumkin emas. Xorijiy investorlarni jalb etish, chet el tadbirkorlariga imtiyozlar yaratishda, avvalambor, mamlakat manfaatidan kelib chiqish lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, agar korxonalar ustidan nazorat xorijlik tadbirkorlarga tegishli bo'lsa, u holda qaror qabul qilish va daromad mamlakatdan tashkariga ko'chadi. Korxonalar egalari nuqtai nazaridan foydali bo'lgan qaror mamlakat iqtisodiyoti uchun zararli bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar korxonalar tugatiladigan bo'lsa, uning xodimlari daromadi ham yo'qoladi, davlat daromadi qisqaradi, buning ustiga, davlat ishsiz xodimlarni ishga joylashtirish harajatlarini o'z zimmasiga olishi kerak bo'ladi.

Aynan shu sababli ham xorijiy hamkorlarni jalb etish, bu loyihada ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatdorligi mutanosibligiga asoslanish lozim. O'zbekistondagi va shuningdek, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan boshqa mamlakatlardagi korxonalarning ko'plab rahbarlari xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirishmoqda.

Mamlakatimizda investitsiyalarni boshqarishning quyidagi usullarni taklif sifatida ko'rsatishimiz mumkin:

- tahliliy usul, bunda jalb qilingan investitsiyalar monitoring qilinadi, investitsiyalarni jalb qilish, kiritish uslubi, shakli, yo'nalishi qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan nazorat qilib boriladi.
- iqtisodiy usul, bunda iqtisodiy qulay sharoitlar yaratish orqadi jalb qilingan investitsiyalarni boshqarish mumkin;
- ijtimoiy usul, investorlarning mablag'larini jalb qilish orqali mamlakatdagi aholi ish bilan ta'minlanadi va farovonlik darajasi oshadi;
- meyoriy-huquqiy usul, bunda mavjud meyoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali davlat tomonidan boshqariladi;
- moliyaviy usul, bunda moliyaviy rag'batlantirishlar orqali investor-larning mablag'larini boshqarish mumkin. Ya'ni asosan sodiqlarning yengillashtirilishi va foiz stavkalarining tushirilishi bilan, investorga qo'shimcha moliyaviy imtiyozlar yaratib, investorning mablag'larini boshqarish mumkin;
- informatsion usul, bunda axborot shaffofligini yaratish orqali investitsiyalarni boshqarish mumkin;
- integratsion usul, bunda chet el investorlarini jalb qilib ularga mamlakatning investorlarini bog'lash orqali mahalliy investorlarning faolligini oshirish va yangi investitsiyalarni jalb qilib, ularni ushbu usulga asoslanib boshqarish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki bu usulda chet el investorining darajasi, tajribasi va imkoniyatini inobatga olgan holda unga investitsiya loyihasidan olinadigan foyda ulushini boshlang'ich yillarda yuqoriroq belgilash talab etiladi.

Keyinchalik shartnomada belgilangan tartibda ma'lum vaqtdan so'ng foyda ulushi mahalliy investorniki bilan tenglashtiriladi.

- malaka oshirish usuli, bunda mahalliy yetakchi kadrlarni chet el mamlakatlaridagi loyihalarga biriktirish, orqali mamlakat kelajagi uchun zarur innovatsion va intellektual investitsiyalarni boshqarish mumkin. Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash ilmiy asoslangan, investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy

manbalarni barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi.

Shu sababli investitsiyalarning hajmi yidan yilga o'sib bormoqda va mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish uchun katta yordam ko'rsatmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mablag'larni eng ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish Respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, indikatorlar, xavfsizlikning chegarasi, milliy xavfsizlik, iqtisod, siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi, demografik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Nazorat uchun savollar

1. Innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Davlat innovatsion siyosatining maqsadlarini ko'rsating.
3. Innovatsiyalarni bilvosita davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullarini sanab bering.
4. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni.
5. Investitsion muhit. Investitsion jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari.
6. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning investitsion salohiyati.
7. «Investitsiya» atamasi qanday ma'noga ega?
8. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad nima?
9. Xorijiy investitsiya tushunchasiga ta'rif bering.
10. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.
11. Investitsiya munosabatlari davlat tomonidan qanday qilib tartibga solinadi?

VIII-BOB. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

8.1. Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta'minlash muammolari

8.2. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi

8.3. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qabul qilingin me'yoriy huquqiy hujjatlar va ularning mohiyati

8.1. Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta'minlash muammolari

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelgani bugungi kunda mazkur muammoni jahon hamjamiyati uchun o'ta dolzarb va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya'ni deyarli har sakkiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo'yining o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda.

Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi bo'lib va bu tafovut, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlarini jadal ishlab chiqarish uchun tegishli sharoitlar mavjud bo'lmagan mamlakat va hududlarda chuqurlashib bormoqda. Eng avvalo, atrof-muhitning ekologik jihatdan buzilishi hamon davom etayotgani, iqlim o'zgarishlarining oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlari, tez-tez takrorlanayotgan qurg'oqchilik va suv resurslari taqchilligi, jumladan, sug'orish uchun yerosti suvlarining tugab borayotgani, irrigasiya,

meliorasiya va yerlarning unumdorligini qayta tiklashga yo'naltiriladigan investisiyalarning yetarli emasligi mazkur muammoni yanada keskinlashtirmoqda.

Yerlarning ekologik jihatdan buzilishi kimyoviy moddalar, mineral o'g'it va pestisidlarni tinimsiz ishlatish oqibatida yanada kuchaymoqda. Bularning qatoriga urbanizasiya, ya'ni shaharlashuv jarayonlari, aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chishi bilan bog'liq muammolar ham qo'shilmoqda. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun ekin maydonlari sezilarli darajada qisqarib ketmoqda. Bulardan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarini "daladan dasturxonga" sxemasi bo'yicha iste'molchiga yetkazib berishda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha qariyb 1,3 milliard tonna miqdoridagi salkam 1 trillion dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari nes-nobud bo'ladi.

Demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat va huquqiy davlat vazifalarining markazida inson salomatligi, uning uzoq va barakali umr ko'rishini ta'minlash masalalari turadi va uning bu vazifalarning nechog'lik bajarilishi davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi va siyosatida o'z ifodasini topadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi atamasi xalqaro muomalaga 1972-1973 yillarda yuz bergan don inqirozidan keyin kirib keldi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish yuzaga kelgan. Bu muammo jahon hamjamiyatida muhokama qilina boshlangan. Bu muhokamalar zamirada 1974-yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan uchinchi dunyo mamlakatlarida aholi o'rtasida ocharchilik vujudga kelishini oldini olish yuzasidan BMT Bosh Assambleyasida Birlashgan Millatlarning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Xalqaro majburiyatlar" ma'qullandi⁶. Ammo bu hujjatda oziq-ovqat xavfsizligi atamasiga ta'rif berilmagan.

Oziq-ovqat xavfsizligiga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha birinchi marta o'tgan asrning 70-yillarida iste'molga kirib kelgan.

⁶ <https://www.fao.org/3/Mt648e/Mt648e.pdf>

1996-yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan oliy darajadagi Rim xalqaro uchrashuvida "Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasi" qabul qilingan. Ushbu deklaratsiya har kimning yashash va munosib ovqatlanish huquqiga muvofiq salomatligi uchun xavfsiz va to'laqonli oziq-ovqat mahsulotlariga erishish huquqiga ega ekanligi tasdiqlangan⁷. Shu yilda bo'lib o'tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha butunjahon sammitida Jahon banki taklif etgan ta'rifga ko'ra "barcha insonlarning faol va sog'lom turmush tarzi kechirishi uchun, o'zlarining ehtiyojlariga mos, yetarli hajmdagi, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatlarni har doim olishga jismoniy va iqtisodiy jihatdan qurlari yetishi – oziq-ovqat xavfsizligini anglatadi.⁸ FAO ta'rifiga tayanib ta'kidlanishicha, "oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, bu barcha insonlarning xohlagan vaqtda jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetarli miqdorda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlar bilan ta'minlanishini anglatadi. Ushbu mahsulotlar shaxsni fiziologik me'yorlar bo'yicha qoniqtirishi, uning xohish-istagiga mos kelishi va faol sog'lom turmush tarzini shakllantirishi shart.


2001-yilda oziq-ovqat xavfsizligi g'oyasiga moddiy va iqtisodiy imkoniyatdan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo'shildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" (FAO) belgilagan tushuncha mazkur qo'shimcha jihatni quyidagicha aks ettiradi: "barcha odamlarda o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy hohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lishi uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari mavjudligi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlandi deganidir".

Umumjahon oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasida qayd etilgan oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining muhim e'lementlari sifatida, oziq-ovqatga jismoniy (miqdoriy) va iqtisodiy jihatdan erishish, oziq-ovqat mustaqilligi,

⁷ Римская декларация по всемирной продовольственной безопасности // АПК: экономика, управление. М., 1997, № 2. с. 3-7.; FAO ООН <http://www.cawater-info.net/bk/14-4-2.htm>.

⁸ World bank, 1986. Poverty and Hunger: Issues and Options for Food Security in Developing Countries. Washington DC. <http://www-wds.worldbank.org>.

ishonchlilik va barqarorlik kabilarni asos qilib oldik va unga ijtimoiy jihatni qo'shdik (13-rasm)



13-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining elementlari ⁹

Bu yerda oziq-ovqatga jismoniy erishish deganda kishilarning xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga yetarli miqdorda ta'minlanish imkoniyatiga ega bo'lishi tushiniladi. Bunga erishish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari mamlakat hududida qabul qilingan iste'mol me'yorlariga muvofiq yetarli miqdorda va assortimentda mavjud bo'ladi hamda ularni aholiga yetkazib berish uzluksiz bo'lishi kerak. Bunday imkoniyatni vujudga keltirish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ichki va tashqi yetkazib berish manbalari hamda ularning zaxiralari ustidan davlat nazorati tashkil etiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga iqtisodiy jihatdan aholining barcha ijtimoiy qatlamlari yetarli hajmda va sifatda ta'minlanishi mamlakatning har bir fuqarosi o'zining yoshi, mulkiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar oziq-ovqat mahsulotlarining minimal turkumiga ega bo'lishi uchun zarur miqdordagi

⁹ Милосердов, В.В. Продовольственная безопасность в мире и ее обеспечение /В.В. Милосердов. - Екатеринбург: Общество с ограниченной ответственности «Уральское издательство», 2015. - 122 с. А.О.То'xtamurotova "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari" Dissertatsiya. Toshkent-2021y Muallif nomidan qayta ishlangan.

daromadga ega bo'lishi lozimligini ifodalaydi. Bunday imkoniyat, sharoit aholining yetarli daromad darajasini ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining maqbul narx darajasini nazorat qilish yo'li bilan vujudga keltiriladi. Shuningdek, aholi o'zining tomorqa va dala hovli uchastkalarida oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlashga harakat qilishi lozim bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga ijtimoiy jihatdan erishish deganda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash, moddiy yordam berish asosida yetarli miqdorda va sifatda xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash tushuniladi.

Oziq-ovqatlar bilan ta'minlashning ishonchliligi milliy oziq-ovqat ta'minoti tizimining mavsumlar, iqlim va boshqa o'zgarishlar ta'sirini minimallashtirish qobiliyatidir. Oziq-ovqatlar bilan ta'minlashning barqarorligi esa milliy oziq-ovqat ta'minoti tizimining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ko'lamida rivojlanishi hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi mamlakatning asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha mustaqillikka va o'zini-o'zi ta'minlashga erishishini ham taqozo etadi. Shularni o'rgangan holda biz oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi safiga sifatli zaxira tizimini qo'llash jarayonini ham element sifatida qo'shdik. Bunda mavsumiy saqlanadigan oziq-ovqatlarning sifatini uzoq muddat ushlab turishda mahalliy va innovatsion usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi va vazifalarini shakllantirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkiloti nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu xalqaro tashkilotning oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasidagi quyidagi tavsiyalari maqsad va vazifalarni belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi:

- oziq-ovqat xavfsizligi o'zini-o'zi oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlashni ifodalamaydi;

- mamlakat nisbiy utunlikka ega bo'lgan holatda o'z ehtiyojlari uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini o'zi ishlab chiqarishga harakat qilishi lozim;

- mamlakat zarur miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishga va o'z fuqarolarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qodir bo'lishi lozim;

- mamlakat hukumati oziq-ovqat xavfsizligi doirasida fuqarolarning xavfsiz oziq-ovqatga miqdoriy va iqtisodiy jihatdan ega bo'lish (erishish) imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. -deyiladi.

Shulardan kelib chiqib, oziq-ovqat xavfsizligidan ko'zlangan maqsad mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligi va barqarorligini, aholini va har bir fuqaroning oziq-ovqat mahsulotlariga fiziologik minimumga muvofiq miqdoriy va iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan erishishini kafolatlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste'molini ta'minlashdan iboratdir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- mamlakatning har bir fuqarosi uchun faol va sog'lom hayot tarzini ta'minlash uchun belgilangan iste'molning ratsional me'yorlariga muvofiq hajmda va assortimentda xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erishishlariga shart-sharoitlar yaratish va qo'llab-quvvatlash. Kam ta'minlangan aholi guruhlarini, onalar va bolalarning to'laqonli ovqatlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirish;

- oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash uchun asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatning o'zida barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

- oziq-ovqat mahsulotlarining importiga qaramlikning oldini olish va ularning oqilona importini tashkil etish;

- oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste'molini hamda sifatini ta'minlash, iste'molchilarning xavfsiz va sifatli mahsulotlar iste'mol huquqlarini ishonchli himoya qilish;


- mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish, ularning salbiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish, ko'riladigan yo'qotish va zararlarni minimallashtirish. Buning uchun tabiiy ofatlar va boshqa favqulotda

holatlar yuz berganida fuqarolarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini vujudga keltirish, strategik zaxira va rezervlarni yaratish.

14.2. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlatning iqtisodiy roli.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosi zamonaviy dunyoning eng muhim iqtisodiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Umuman davlatning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha siyosati qishloq xo'jaligini ichki va xorijiy investitsiyalar bilan qo'llab quvvatlash hamda ishlab-chiqarish va oziq-ovqat bozorlari zaxirasini ushlab turish bilan amalga oshiriladi. Erkin bozor tizimida davlatning qo'llab quvvatlashsiz mamlakat o'zining barqaror oziq-ovqat xavfsizligi mexanizmlarini qo'llay olmaydi. Sababi oziq-ovqat yetishtiruvchi tarmoqlarni davlat tomonidan tartibga solish qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlash darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.



14-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligi darajalari¹⁰

¹⁰ Римская декларация по всемирной продовольственной безопасности // АПК: экономика, управление. М., 1997, № 2. 3-7 с.; ФАО ООН <http://www.cawater-info.net/bk/14-4-2.htm>

Oziq-ovqat xavfsizligiga iyerarxiya darajalari bo'yicha aniq tarkiblashtirilgan maqsadlarga ega bo'lgan ko'p darajali tizim sifatida qarash zarur. Mazkur muammoni hal qiluvchi subyektlarga ko'ra individual, mamlakat darajasida, davlatlararo, global, aholi guruhlari va oila (uy xo'jaliklari), ya'ni 4 ta darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini global (jahon) miqyosda xalqaro tashkilotlar va maxsus organlar (FAO, Xalqaro savdo tashkiloti, Oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi) hal qiladilar. Ularning asosiy vazifasi insoniyat rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishga ko'maklashishdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish:

- ishlab chiqarish hajmini oshirib borishga ta'sir ko'rsatuvchi uzoq muddatli dastur va loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- zaxiralarni yaratish va noqulay iqtisodiy va ekologik vaziyatlarda yordam tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Davlat va davlatlararo darajada oziq-ovqat xavfsizdigining asosiy maqsadi iqtisodiyotning barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarini muvozanatlashtirishdan iborat.

Mintaqaviy darajadagi asosiy maqsad-aholining barcha guruhlari oziq-ovqatlarni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq iste'mol qilinishini kafolatlaydigan darajadagi daromadlar bilan ta'minlashdir.

Aholining ijtimoiy guruhlari (oilalar) darajasida oziq-ovqat mahsulotlarini ularning miqdori, assortimenti, sifati bo'yicha ratsional me'yorlarga muvofiq ovqatlanishini ta'minlash zarur.


Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning har bir darajasida mazkur jarayonni boshqarish tegishli ma'muriy organlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ushbu organlarning vazifalari zarur mahsulotlarni samarali ishlab chiqarish uchun ularga qarashli hududlarda yashovchi aholining tavsiya etilgan miqdorda mahsulotni sotib olish imkonini beradigan daromadga ega bo'lishlari uchun; savdo tarmoqlariga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini ta'minlash uchun; mahsulotlarning sifati va xavfsizligini nazorat qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Davlatlararo darajada oziq-ovqat muammolarini hal qilish boshqa mamlakatlarda oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etishga ko'maklashishi bilan bog'liq. Bu uchun mamlakatlar davlatlararo hamkorlikda ishtirok etadilar, xalqaro oziq-ovqat xavfsizligini yaratishga hissa qo'shadilar. Bunda ular o'zlarining raqobatbardosh ishlab chiqarishlarini rivojlantirishni va hududlarning hamda barcha ijtimoiy guruhlarning (masalan, MDH) o'z-o'zini ta'minlashlarini rag'batlantiradi. Oziq-ovqat xavfsizligining har bir darajasi o'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini taqozo etuvchi ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi.

Ichki oziq-ovqat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash va davlat fondini shakllantirish, iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosatida o'z aksini topadi (11-rasm).

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishish quyidagi muhim vazifalarni davlat tomonidan amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Barqaror iqtisodiy sharoitni yaratish;
2. Samarali agrar siyosatni olib borish;
3. Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish;
4. Aholi bandligi sohasida samarali siyosatni olib borish;
5. Oziq-ovqatga ega bo'lishda tengsizlik va qashshoqlikni bartaraf etishga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni olib borish;
6. Oziq-ovqat mahsulotlarini turli-tuman, barqaror va intensiv ishlab chiqarishga erishish, uning samaradorligini oshirish;
7. Xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda ilg'or texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish;
8. Hududlarni xomashyo va oziq-ovqat mahsuloti bilan o'zini ta'minlash va xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklardan samarali foydalangan holda qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish;
9. Faol tashqi iqtisodiy siyosatni olib borish, eksport-import faoliyatini optimallashtirish;
10. Agrar sektorni investitsiyalash.



15-rasm. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi siyosati va uning zarur jihatlari

Iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi bo'lgan oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, albatta, davlatning zimmasida bo'lib, bu jarayonni izchillik bilan amalga oshirilishini taqozo etadi. Davlat ta'sirining quyidagi sohalarini ajratib o'tiladi.

Davlat (yoki bevosita davlat tomonidan) ko'magida quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

Aholining bandligini, daromadlarining o'sishini, turmush darajasi va sifatini ta'minlash (shu jumladan, shahar va qishloq aholisining turmush darajasidagi farqlarni bartaraf etish); hududning ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish, aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash; hududiy tabiiy resurslardan samarali foydalanish va qishloq ekotizimining barqarorligini

ta'minlash; qishloqning tuman, tumanlararo va boshqa xo'jalik munosabatlari tizimida o'zaro hamkorligini ta'minlash.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish davlat oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, qishloq farovonligini oshirishning asosidir.

1. Muvozanatli ijtimoiy va agrar siyosatni olib borish, chunki qishloq xo'jaligi qishloq jamiyatining barcha sohalari bilan bog'langan holda boshqa tarmoqlarda ham reproduktiv imkoniyatlarni belgilab beradi.

2. Muvozanatli ijtimoiy va agrar siyosatni olib borish, chunki qishloq xo'jaligi qishloq jamiyatining barcha sohalari bilan bog'langan holda boshqa tarmoqlarda ham reproduktiv imkoniyatlarni belgilab beradi.

3. Qishloq xo'jaligining yuqori raqobatbardoshligining asosi bo'lgan ham yirik, ham kichik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining innovatsion rivojlanishini ta'minlash.

4. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sharoitida ekologik xavflarni kamaytirish, ekologik toza qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirishni ta'minlash.

Oziq-ovqat mustaqilligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish - bu maqsadli yo'naltirilganlik, stsenariy va indikativ rejalashtirish tamoyillariga asoslangan o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlar majmuasini boshqarish tizimi bo'lib, uning maqsadi:

- aholining oziq-ovqat va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qishloq xo'jaligi xom ashyosidan qondirish;
- qishloqning yuqori turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishi;
- mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini va mahalliy va xorijiy investorlar uchun tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish;
- agrar iqtisodiyotning eksport-import balansini nazorat qilish;
- ekologik xavflarni kamaytirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ekologik xavfsizligini oshirish va boshqalar.

Oziq-ovqat xavfisligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – mustaqil, barqaror, innovatsion, raqobatbardosh rivojlanishni ta'minlash maqsadida agrosanoat majmuasida takror ishlab chiqarish jarayonlarini rag'batlantirish (ko'maklashish) bo'yicha chora-tadbirlar va vositalar tizimi.

Davlat tomonidan tartibga solish oziq-ovqat xavfsizligini shakllantirishga davlat tomonidan ta'sir etiladigan jarayoni bo'lib, tizimni qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan tartibga solishning maqsadli davturlarni yaratish bilan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish davlatning oziq-ovqat siyosatida muhim hisoblanadi, bunda qishloq xo'jaligini rivojlantirish makroiqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida, shu jumladan fiskal (byudjet va soliq) siyosati; pul-kredit (pul va kredit) siyosati orqali tasir etuvchi mehanizmlarda amalga oshiriladi.

Agrosanoat sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, bunda yetarlicha rivojlangan qonunchilik bazasiga asoslanadi. Har qanday mamlakat agrosanoat majmuasining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligi nafaqat subsidiyalar (lotincha subsidium — yordam, qo'llab-quvvatlash) orqali ko'rsatiladigan zarur davlat yordamisiz shuningdek soliq imtiyozlari, bojxona tartibga solish va boshqa bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishsiz muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olmasligi va rivojlana olmasligini jahon hamjamiyati mamlakatlari tajribasidan ma'lum.

Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi.

Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi aholini muntazam oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, oziq-ovqat zaxiralarini boshqarish va shu kabi zaruriy chora tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liqdir. Mamlakat o'z oziq-ovqat zaxirasini shakllantirishda chetdan keladigan import maxsulotlarga qaramligini kamaytirishi lozim. Mustaqillik yillarida oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasini to'liq amalga oshirishning iloji yo'q edi. Sababi o'sha davrlarda respublika don mustaqilligiga, o'zining mustahkam agrar siyosatini yuritishga qodir emas edi. Bu holatni respublika mustaqilligi davrida saqlab qolish mutlaqo maqsadga muvofiq emas edi. Respublikada o'tish davrining birinchi yillaridan boshlab g'alla

mustaqilligi siyosati izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga erishish uchun samarali hisoblangan paxta xomashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi.

Bugunga kelib islohotlarning yangi davrida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqish uni rivojlantirish aholining ijtimoiy masalalarini hal qilishda hamda davlat miqyosida dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Davatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bu- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir. Mamlakat ichidagi iqtisodiy jarayonlarda faol va samarali ishtirok etishi uchun inson ozmi-ko'pmi to'qlikni his qilishi, ertangi kun uchun iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan oziq-ovqat tanqisligi muammosiga duch kelmasligiga ishonch hosil qilib yashashi lozim. Bunday masalalarda davlat avvalo o'z aholisi uchun mustaqil oziq-ovqat strategiyasini amalga oshirishi lozim bo'ladi. Bunda davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashdan oldin oziq-ovqat xavfsizligi kontseptsiyasini shakillantirish kerak. Bu kontseptsiyani ikki tomonlam tahlil etish mumkin. Birinchi jihati import analoglari bilan solishtirganda sifati va narxini hisobga olgan holda ichki bozor ehtiyojlarining kamida 80 foizi miqdorida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lga talabni qondirish imkonini beruvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi darajasidan, ikkinchi jihati aholining aksariyat qismi 95 foizi ijro etuvchi hkimyat organlari tomonidan yashash minimumi sifatida belgilangan miqdorda zarid qobilyatini ta'minlashi lozim bo'lgan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi orqali hal etilishi lozim.

Ushbu ikki jihatdan kelib chiqib, oziq-ovqat xavfsizligi darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish lozim.

1. Qishloq xo'jaligi ekinlarining ekin maydoni
2. Chorvachilik va parrandachilik tarmoqlari.
3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish.
4. Qishloq, ovchilik va o'rmon xo'jaligida bir ishchiga to'g'ri keladigan YaIM ishlab chiqarish hajmi.
5. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlarning eskirish darajasi.
6. Qishloq xo'jaligi tashkilotlarini texnik jihatdan qurollanganlik darajasi.

7. Oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmi va dinamikasi.
8. Aholining harid qobiliyati (daromadlari yashash darajasidan past bo'lgan aholi ulushi).

Bu borada jahonning yetakchi tashkilotlari, xususan BMT qoshidagi FAO, USAID, IFRD va boshqa bir qancha mutasaddi tashkilotlar oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarida bir necha maqsadlarni amalga oshirishni ko'zlagan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, BMT Taraqqiyot Dasturi hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2021 yilning sentyabr oyida Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasi bilan parallel ravishda o'tkazilgan Oziq-ovqat tizimlari bo'yicha BMT Sammitiga tayyorgarlik doirasidagi birinchi Milliy dialogga tashkilotchilik qilishdi. Ushbu sammitda asosan beshta maqsadni amalga oshirish kun tartibiga qo'yilgan. Ular quyidagilar:

- ❖ Barcha xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatga ega bo'lishini ta'minlash;
- ❖ Oqilona iste'molga o'tish;
- ❖ Ekologik oqilona ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- ❖ Teng yashash sharoitlarini targ'ib qilish;
- ❖ Zaiflik, zarbalar va stresslarga qarshi tura olishni ta'minlash.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

8.3. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qabul qilingin me'yoriy huquqiy hujjatlar va ularning mohiyati

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sohaga berilayotgan e'tibor, amlaga oshirilayotgan islohotlar kun sayin oshib bormoqda. Xususan, «Oziq - ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi, «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Aholining sanitariya - epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida»gi, «Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida»gi, «Standartlashtirish to'g'risida»gi, «Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risida»gi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar bilan tartibga solinmoqda.

Shuningdek mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha islohotlar mustaqillik yillaridan toki bugungi kungacha amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 2015 yil 29 dekabrda qabul qilingan “2016 — 2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini qayta shakllantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu boradagi islohotlarning uzviy davomi bo'ldi. Unga ko'ra, 2016 — 2020 yillar mobaynida 170,5 ming gektar paxta va 50 ming gektar g'alla maydonlari o'rniga oziq-ovqat ekinlari ekilishi belgilanib, joriy yilning o'zida paxta maydonlari 30,5 ming gektarga qisqartirildi. Bularning samarasi o'laroq, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 2 barobardan ziyod oshdi, xususan, kartoshka 7 marta, meva qariyb 4,1 marta, sabzavot 2,8 marta, sut va sut mahsulotlari 1,7 marta, go'sht 1,3 barobar o'sganini ko'rishimiz umkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi kengashi qarori bilan 2016-yil 22-sentabrda “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida”gi¹¹ O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar

¹¹ <https://lex.uz/acts/-20326>

kiritish haqida”gi ql-159-sonli o’zbekiston respublikasi qonuni loyihasi to’g’risida qonun loyihasi qayta ko’rib chiqildi va tegishli o’zgartirishlar kiritildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 16-yanvar kuni «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida»gi farmonni imzoladi. Farmonga binoan mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash, bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to’ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog’lom raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, mazkur sohadagi mavjud tizimli muammolarga barham berish maqsadida 2018-yil 1-fevraldan boshlab O’zbekiston Respublikasiga oziq-ovqat tovarlarini import qilish bo’yicha ayrim xo’jalik yurituvchi sub’yektlarga taqdim qilingan individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, shuningdek, boshqa preferensiyalar bekor qilindi. Bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to’ldirish, agrar kompleksni rivojlantirish, ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish, oziq-ovqat bozori barqarorligiga tahdidlarni o’z vaqtida bartaraf etish, oziq-ovqat tovarlari importini qulay bojxona-tarif tartibga solish bo’yicha choralarni belgilovchi «Oziq-ovqat xavfsizligi to’g’risida»gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-oktyabrdagi PQ-3344-son respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va “O’zbekoziqovqatzaxira” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida qarori qabul qilindi¹². Qarorga ko’ra qish-bahor davrida ichki iste’mol bozorini barqaror to’ldirish uchun yangi meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashga g’amlash maqsadida ularni xarid qilish yuzasidan davlat buyurtmasi tizimi joriy etilishi, Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash infratuzilmasining, shuningdek, davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ushbu yo’nalishdagi ishlarni samarali

¹² <https://www.lex.uz/ru/docs/-2930430?otherlang=1>

muvofiglashtirishning yetarli emasligi mavsumlar oralig'idagi davrda narxlarni barqarorlashtirish va aholi ehtiyojini qondirish uchun ularni zarur hajmlarda o'z vaqtida va to'liq g'amlash imkonini bermaytganligi sababli qaror kuchga kirdi¹³.

Vazirlar Mahkamasining "2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi¹⁴ ID-2722 qarori loyihasi joylashtirildi. Unga binoa oziq-ovqat xavfsizligini mamlakatda zaruruiy shart-sharoitlari va bu sohaga oid tushunchalar asosida boyitilib, tahli va muhokamalardan o'tkazib borilmoqda.

Shuningdek oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro markaz tashkil etildi. "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-58-son, 22.12.2021 y.) qabul qilindi.

Qaror bilan Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti negizida Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi tashkil etildi.

Markazning asosiy vazifalaridan biri oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasini institutsional tahlil qilish va islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Qarorga ko'ra, 2022-2023 yillarda bog' va tokzorlarni barpo etish, sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish bo'yicha ko'rgazmali dala maydonlari tashkil qilinadi.

Markaz davlat tashqi qarzi hisobidan amalga oshirilayotgan va yakunlangan loyihalar bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'lar hamda erishilgan natijalarga oid ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-saytida muntazam e'lon qilib boradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan "Aholini ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir choralar"-to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2021- yil 29-aprelda O'RQ-689-son bilan kuchga kiritilgan. Mazkur qonun global koronavirus pandemiyasi davom

¹³ <https://lex.uz/docs/-3387792>

¹⁴ <https://regulation.gov.uz/oz/document/2722>

etayotgan davrda respublika aholisining ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash hamda narx-navolar asossiz o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qabul qilinmoqda.

Qonunga ko'ra tadbirkorlik subyektlariga o'zlari tomonidan import qilingan kungaboqar yog'i va kungaboqar urug'larini qayta ishlash natijasida olingan o'simlik yog'ining (TIF TN bo'yicha kodi 1512 11 — 1512 19) 50 foizdan oshmagan qismini eksport qilishga ruxsat beriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tadbirkorlik subyektlari tomonidan import qilingan kungaboqar yog'i va kungaboqar urug'larini qayta ishlash natijasida olingan o'simlik yog'i hajmiga nisbatan eksport shartnomalari doirasida amalga oshirilgan eksport 50 foizdan oshishiga yo'l qo'yilmasligi bo'yicha nazorat o'rnatiladi.

Shuningdek 2021-yil 7 –oktyabrdagi 627-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash va ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qarori tasdiqlangan.

Unga ko'ra ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlariga aholining ortib borayotgan talabini to'liq qondirish, narxlar oshib ketishi va aholi real daromadlari pasayishining oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasi:

- asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining mavsumiy oshishining oldini olish maqsadida 2022-yil 1-mayga qadar muddatda ilovaga muvofiq ayrim turdagi tovarlar, istisno tariqasida, bojxona bojidan ozod qilinishi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishda tadbirkorlik subyektlarini aylanma mablag'lari bilan ta'minlash maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 32,8 mln AQSh dollari ekvivalentida milliy valyutada hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 200 mlrd so'm miqdordagi mablag'larni tegishli tijorat banklariga ularning so'rovlariga asosan 2022-yil 1-iyulga qadar qaytarish sharti bilan foizsiz depozitga joylashtirilishi belgilangan.

Shuningdek qishloq xo'jaligida meva sabzavotchilikni rivojlantirish bo'yicha xususan, so'nggi yillarda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi “O'zbekiston

Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388 va 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmonlari hamda 2018-yil 17-oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978, 2019-yil 14-martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239 qarorlarini keltirish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qabul qilingan standartlar: xususiy standartlar, individual kompaniyalar standartlari, milliy standartlar, xalqaro standartlar.

Respublikada oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qabul qilingan va endilikda joriy qilinayotgan standartlar hajmi o'sib bormoqda. Bilamizki milliy standartlar asosan global oziq-ovqat xavfsizlik standartlari tuzulmasida shakillantiriladi.

Ikki yuzdan ortiq kasalliklar oziq-ovqat zanjiri bo'ylab tarqalishi mumkin, bu esa barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarishni eng katta muammolardan biriga aylantiradi. Oziq-ovqat savdosining globallashuvi oziq-ovqat xavfsizligini yanada qiyinlashtiradi, oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari uchun ISO 22000 o'z vaqtida javob beradi.

ISO 22000 "Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etuvchi tashkilotlarga qo'yiladigan talablar" – bu oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimiga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) standartidir. U oziq-ovqat mahsulotlariga xavfli jismoniy, kimyoviy va biologik ifloslantiruvchi moddalarni tushishi bilan bog'liq xavflarni boshqarish uchun mo'ljallangan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini oziq-ovqat ta'minoti zanjirida muhim o'rin tutadi, shuning uchun ularga HACCP tamoyillariga asoslangan oziq-ovqat xavfsizligi tizimini joriy etish ayniqsa muhimdir.

HACCP tizimining asosiy maqsadi iste'molchi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini kafolatlashdir, bu inson hayoti va sog'lig'ini himoya qilishni anglatadi.

Ushbu standart oziq-ovqat ta'minoti zanjiridagi barcha turdagi tashkilotlarga oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlarini qo'llash va yakuniy iste'molchi manfaati uchun bir-biri bilan yaxshiroq o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ISO 22000 standarti talablariga muvofiq tizimni ishlab chiqish va joriy etish quyidagi shartlar bajarilganda eng samarali hisoblanadi:

- yaxshi ishlab chiqilgan va boshqariladigan zaruriy tizimlarning mavjudligi;
- yaxshi SMTdan foydalanish;
- oziq-ovqat xavfsizligi va uni doimiy takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv madaniyatining mavjudligi.

ISO 22000 sertifikati yakuniy mahsulot xavfsizligiga ta'sir qiluvchi oziq-ovqat ishlab chiqarish va ta'minot zanjirining barcha elementlarini qamrab oladi. Standart oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligining yagona standarti bo'lib, u turli milliy standartlarni amalga oshirish oson va jahon miqyosida e'tirof etilgan, tushunarli talablar to'plamiga birlashtiradi. Bu jahon miqyosida tan olingan standart qishloq xo'jaligidan tortib oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va ovqatlanishgacha bo'lgan ta'minot zanjiridagi barcha tashkilotlar tomonidan qo'llanilishi mumkin.

ISO 22000 sertifikatining afzalliklari oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish zanjiri bo'ylab mahsulotlarni sotish jarayonini soddalashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi standartlariga muvofiqligini namoyish etish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish, tahdidlarni nazorat qilish va kamaytirish hamda oziq-ovqat xavfsizligiga sodiqligini tasdiqlashdan iborat.

FAO BMTning aholini oziq-ovqat xavfsizligining o'rtacha yoki og'ir darajasi ko'rsatkichi bo'yicha ham mas'ul agentligi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanmaganligining qabul qilish

o'lchamlarini (The Food Insecurity Experience Scale – FIES) joriy qilish bo'yicha seminar asosida amaliy ishlar olib bormoqda¹⁵.

FIES odamlarning oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq tajribasini baholash uchun global standartdir. O'zaro uchrashuvlarda ochlik va oziq-ovqat xavfsizligini baholash ushbu muammolarni hal qilish siyosatini ishlab chiqish va monitoring qilish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

— Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanmaganligining qabul qilish o'lchamlari odamlarning oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini baholash uchun ishonchli ko'rsatkichdir. Ushbu tadqiqot oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishning boshqa ko'rsatkichlariga qaraganda ancha tejamkor va milliy uy xo'jaliklari uchun foydalaniladigan so'rovnomalarga kiritish osonroq, deb hisoblanadi.

FAO BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning 21 ko'rsatkichi, shu jumladan, 2.1.2 Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanmaganligini qabul qilish darajasi asosida aholini oziq-ovqat xavfsizligining o'rtacha yoki og'ir darajasi ko'rsatkichi bo'yicha ham mas'ul agentligi hisoblanadi. Barqaror rivojlanish maqsadlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan samarali monitoring va kuzatuvga bog'liq.

Mutaxassislar FIES moduli asosida 2021-yil iyul—dekabr oylari uchun O'zbekistondagi uy xo'jaliklarining tanlanma so'rovi natijalarining batafsil tahlilini taqdim etdilar. Bundan tashqari, 2022-yilda uy xo'jaliklari holatini o'rganish jarayonlarida FIES modulini yana tadbiq etish masalalari muhokama qilindi.

Codex Alimentarius — (Lotin Codex Alimentarius — Oziq-ovqat kodeksi) — FAO / JSST Xalqaro oziq-ovqat standartlari va qoidalari kodeksini amalga oshirish bo'yicha Xalqaro komissiyasi tomonidan qabul qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining xalqaro standartlari to'plami hisoblanadi. Kodeks standartlari asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlangan ovqatlar, shuningdek, qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablarni o'z ichiga oladi¹⁶.

¹⁵ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-oziq-ovqat-xavfsizligi-boyicha-global-standart-joriy-etilmoqda>. 07.12.2021y

¹⁶ <https://ufia.uz/xalqaro-meyorlar>

2012-yilda mazkur komissiya tarkibiga 186 mamlakat va Yevropa Ittifoqi kirgan. Hozirda 215 ta tashkilot (hukumatlararo, nohukumat va BMT organlari) ushbu kodeksning kuzatuvchi maqomiga ega hisoblanadi.

Kodeks Alimentarius komissiyasi 1963-yilda farmatsevtika sanoati ta'siri ostida tashkil yetilgan. 1961-yildagi Birlashgan Millatlar Tashkilotida FAO konferensiyasining o'n birinchi sessiyasida va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining o'n oltinchi assambleyasida qabul qilingan qarorlarga muvofiq tuzilgan. Kodeks barcha oziq-ovqat mahsulotlarini ham qayta ishlaydi, ham xom ashyoni tartibga soladi. Ushbu kodeks mahsulotlarning ayrim turlari uchun standartlardan tashqari mahsulotni etiketkalash, oziq-ovqat gigiyenasi, oziq-ovqat qo'shimchalari, pestitsid tarkibini va oziq-ovqat xavfsizligi, biotexnologiyasini o'rganish qoidalarini tartibga soluvchi umumiy standartlarni o'z ichiga oladi.

Kodeks bir nechta tillarda nashr yetilgan: ingliz, fransuz, ispan. Kodeksga kiritilgan ba'zi standartlar rus va arab tillarida ham mavjud; ba'zi standartlar xitoy tiliga tarjima qilingan.

Kodeks quyidagilarni tartibga soladi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini markalash (umumiy qoidalar, ovqatlanish bo'yicha ko'rsatmalar, dastur ko'rsatmalari);
- oziq-ovqat qo'shimchalari (asosiy standartlar, foydalanish qoidalari, oziq-ovqatda ishlatiladigan kimyoviy moddalarga talablar);
- oziq-ovqat bilan ifloslanish (umumiy talablar, oziq-ovqat mahsulotlarining radionuklidlar, mikotoksinlar bilan ifloslanishining chegara darajasi va boshqalar);
- pestitsidlar va veterinariya dori-darmonlarining oziq-ovqat tarkibidagi ruxsat etilgan maksimal darajasi;
- biotexnologik xatarlarni baholash usullari;
- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi gigiyenik talablar;
- tahlil qilish usullari va namunalarni tanlash.

Kodeks doirasida ushbu turdagi oziq-ovqat mahsulotlari uchun maxsus standartlar mavjud:

- Go'sht va go'sht mahsulotlari;

- Baliq va baliq mahsulotlari
- Sut va sut mahsulotlari
- Maxsus parhezlar uchun oziq-ovqat, shu jumladan, chaqaloqlar va bolalar uchun oziq-ovqat

- Yangi va qayta ishlangan sabzavotlar, mevalar, sharbatlar;
- Donli va dukkakli ekinlar va ulardan olinadigan mahsulotlar;
- Yog'lar, yog'lar va ularning mahsulotlari;
- Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari (shokolad, shakar, asal, mineral suv va boshqalar).

KODEKS ALIMENTARIUS — har bir inson uchun hamma joyda xavfsiz va sifatli oziq-ovqat kafolati sanaladi.

Xalqaro oziq-ovqat savdosi ming yillar davomida mavjud bo'lib kelgan, ammo yaqin vaqtgacha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, asosan, mahalliy darajada marketing va iste'molga yo'naltirilgan. O'tgan asrda xalqaro oziq-ovqat savdosi hajmi sezilarli darajada o'sdi va bugungi kunda dunyo bo'ylab harakatlanadigan oziq-ovqat miqdori hamda turlari har qachongidan ham ko'proq.¹⁷

Xalqaro oziq-ovqat standartlari: KODEKSA ALIMENTARIUS xalqaro standartlari, ko'rsatmalari, qoidalari oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini ta'minlashga yordam beradi, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining adolatli savdosini rivojlantirishga ko'mak beradi. Kodeks yordamida iste'molchilar sotib olgan oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifatiga ishonch hosil qilishlari, import qiluvchilar buyurtma qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining talab xususiyatlariga mos kelishiga amin bo'lishlari mumkin.

Iste'molchilarning sog'lig'ini himoya qilish: Aholining oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq tashvishlari, ko'pincha, Kodeksni global muhokamalar markaziga aylantiradi. Veterinariya dori vositalari, zararkunandalarga qarshi vositalar, oziq-ovqat qo'shimchalari va ifloslantiruvchi moddalar — bu Kodeks yig'ilishlarida muhokama qilingan asosiy mavzulardir. Kodeks standartlari mustaqil xalqaro

¹⁷ B.O.Tursunov, A.O.To'xtamurotova. Oziq-ovqat xavfsizligi O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2022

xatarlarni baholash organlari yoki FAO va JSST tomonidan tashkil yetilgan maxsus konsultatsiyalar orqali taqdim yetilgan ishonchli ilmiy dalillarga asoslangan.

Kodeks standartlari a'zolar tomonidan ixtiyoriy ravishda qo'llanilishi uchun ko'rsatma bo'lsa-da, ular ko'pincha milliy qonunchilik uchun asos sifatida foydalaniladi.

Savdodagi to'siqlarni olib tashlash: Butunjahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari to'g'risidagi Bitimida (SPS Bitimi) oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Kodeks standartlariga havola qilish Kodeksning savdo ziddiyatlarini hal qilishda muhim ro'l o'ynaganligini ko'rsatadi.

1963-yilda tashkil etilganidan beri Kodeks tizimi yangi muammolarga javoban ochiq va ishtirokchan shaklda rivojlandi. Xalqaro oziq-ovqat savdosi — bu yillik aylanmasi 2000 milliard dollarni tashkil etadigan va ishlab chiqarish, sotish, tashish hajmi milliardlab tonnaga teng bo'lgan soha sanaladi.

Kodeks standartlarining mohiyat: Kodeks standartlari va tegishli matnlarida iste'molchiga asl mahsulotni tanazzulga olib keladigan aralashmalarsiz yuqori sifatli, sog'lom oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat talablari mavjud. Har qanday oziq-ovqat mahsuloti yoki mahsulot guruhi uchun kodeks standarti Kodeks tovar standartlari formatiga muvofiq ishlab chiqilishi va shunga muvofiq unda keltirilgan bo'limlarni o'z ichiga olishi kerak.

Kodeks standartlarini qayta ko'rib chiqish: Kodeks Alimentarius komissiyasi va uning yordamchi organlari, agar kerak bo'lsa, Kodeks standartlarini va tegishli matnlarni hozirgi ilmiy bilimlarga va boshqa tegishli ma'lumotlarga muvofiqlashtirish uchun o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Agar kerak bo'lsa, standart yoki tegishli matn yangi standart ishlab chiqilgandek o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Kodeks Alimentarius komissiyasining har bir a'zosi mavjud bo'lgan Kodeks standartlariga yoki tegishli matnlarga o'zgartirishlar kiritishni talab qilishi mumkin bo'lgan yangi ilmiy va boshqa tegishli ma'lumotlarni aniqlash va tegishli Qo'mitaga taqdim yetish uchun javobgardir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Oziq-ovqat xavfsizligi, fanning predmeti, obekti, don inqirozi, BMT, Rim deklaratsiyasi, ocharchilik, ilmiy bilish usullari, FAO, mahsulot, ishlab chiqarish, elementlar, zaxira, darajalar, narx, hajm, aholining urbanizatsiyasi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

Nazorat uchun savollar

1. “Oziq-ovqat xavfsizligi” fanining fan sifatida shakillanishiga zaruriyat nimalardan iborat?
2. “Oziq-ovqat xavfsizligi” fanining predmeti va obekti nimalardan iborat?
3. “Oziq-ovqat xavfsizligi” fani o'rganishda qanday ilmiy bilish usullaridan foydalaniladi?
4. Oziq-ovqat xavfsizligi atamasining vujudga kelishiga sabab nima va bugungi kunda ushbu atamaning to'liq tarifi qanday?
5. Har bir inson uchun oziq-ovqat xavfsizligi darajalari nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Xalqaro darajada oziq-ovqat darajalari o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?
7. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining elementlariga nimalar kiradi va ularning vazifalari nima?
8. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qabul qilingan milliy oziq-ovqat dasturi qanday shakillantirilmoqda?
9. Mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi, oziq-ovqat hajmi va narxi o'rtasidagi bugungi holat qanday?
10. Bugungi kunda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qanday me'yoriy huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmoqda?

IX-BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

9.1. Axborot xavfsizligining iqtisodiy mazmuni

9.2. Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar

9.3. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi

9.1. Axborot xavfsizligining iqtisodiy mazmuni

Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil tazyiqlar mavjud bo'lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha faoliyatni kuchaytirdilar. Shuning uchun XXI-asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytmayaptilar. Kishilar o'rtasida xabar etkazishni ta'minlashga qobil hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama uyg'un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar va ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.¹⁸

¹⁸ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild – T.: "O'zbekiston", 1996 y.

Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a`zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta`minlashga va xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart - sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko`z ko`rib quloq eshitmagan sur`at va ko`lamga erishildi. Kishilar o`rtasida xabar etkazishni ta`minlashga qobil hisoblash texnikasi, axboriy aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o`rtasida mutanosiblik mavjud bo`lgan jamiyatgina har tomonlama uyg`un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o`zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo`lgan talab hamda ehtiyojini to`liqroq qondirishga intiladi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning o`lchami mazkur sohalarda to`plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur`ati va o`zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya`ni, u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy ham salbiy kuch sifatida namoyon bo`lishi mumkin. Shu ma`noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo`lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo`ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o`z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g`oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko`ra ko`pgina davlatlarda glaballashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg`unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar.

Bu o`rinda shuni alohida ta`kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o`zi tobora global xarakat tusini olmoqda. Zamonamizning o`ziga xos jihatlaridan biri sifatida har qanday mahalliy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqeaga aylanmoqda.

Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta`minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog`liqdir. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O`zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta`kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta`minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko`rinadi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an`analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, mustaqil dunyo qarashga ega ma`lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko`rsata oladilar.

Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o`rganishda axborotning shakli va mohiyati; axborot xavfsizligini ta`minlash; ochiq axborot tizimlarining o`ziga xosligi; shaxs, jamiyat va davlat axboriy- psixologik xavfsizligini ta`minlash manbalari va turlari; axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta`minlashning ahamiyati va tamoyillari; OAV va axboriy qarama-qarshilik; axboriy-psixologik xavfsizlikni ta`minlashda asosiy yo`nalish va usullar; ochiq axborot tizimlarda shaxsning o`z-o`zini himoya qilishi; jamoatchilik fikri va jamiyat axboriy-psixologik xavfsizligi; O`zbekiston OAV lari va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularni chuqurroq o`rganish talab etiladi.

Yuqorida sanab o`tilgan mavzularni o`rganishda axborot, axboriy xavfsizlik, milliy manfaatlar, axborot sohasidagi milliy manfaatlarga bo`lgan xavf, manbalari, jamoatchilik fikri, ochiq axborot tizimlari, globallashuv, axboriy qarama-qarshilik, axboriy-psixologik kurash, OAV lari, onglilik, idroklash, aks ettirish manikulyatitsiya qilish, psixologik qo`poruvchilik, ijtimoiy targ`ibot, jamoatchilik ongi, insonni xufiyona boshqarish va boshqalarga alohida e`tibor qaratish joiz. Psixologiya, sotsiologiya, falsafa, OAV nazariyalaridan olingan bu tushuncha va terminlar fanni chuqurroq tushunishga, uning asosiy mazmunini, usullari va

yo`sinlarini, ya`ni ochiq axborot tizimlarida foydalanayotgan usullarni idrok etishga, demak, ijobiy g`oyalarni salbiy g`oyalardan farqlay olishga ko`maklashadi.¹⁹

Ma`lumki, har qanday dalil, hodisa yoki voqea turlicha talqin etilishi mumkin, shunga bog`liq tarzda auditoriya tomonidan qabul etilishi ham mumkin. Shuning uchun avval boshidanoq, tushunchaviy apparatni belgilab olish, uni sharhlash lozim, shundan kelib chiqqan holda biror hodisa yoki voqeani biz qanday idrok etishimiz va talqin qilishimizga e`tibor berishimiz darkor.

Milliy g`oyaning va mafkuraning hayotiy zarurat ekanligi. Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta`minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog`liqdir.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O`zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta`kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta`minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko`rinadi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an`analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi.

Har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o`tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo`lgan ma`lumotlar qat`iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko`rinishiga ega bo`lib, ichki va tashqi bozorda unga bo`lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo`nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda.

¹⁹ WWWpress-servise.uz -press-slujbu Prezidenta Respubliki Uzbekistana;

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfederal ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. «Axborotlashtirish to'g'risida», «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida» va boshqa qonunlar hamda bir qator Hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etildi.

9.2. Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar

Axborot boshqaruv tizimi uni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida faol ta'sir etish uchun zarur ma'lumotlar yig'indisidan iboratdir. Yetarli va aniq axborotga ega bo'lmay boshqarish mumkin emas. Ishlab chiqarish axboroti boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasida aloqa usulidir. Boshqaruvchi tizim boshqariladigan tizimdan ishlab chiqarish holati va uning xo'jalik faoliyati to'g'risida axborot oladi. Boshqaruvchi tizim olingan axborot asosida boshqariluvchi tizim faoliyatiga baho beradi, boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadida ko'rsatma, farmoyishlar chiqarib, boshqariluvchi tizimga ijro uchun yuboradi.

Axborot boshqaruv tizimida alohida bo'g'in hisoblanadi. Unga qator o'ziga xos xususiyatlar mansub bo'lib, ular axborot boshqaruvining barcha bo'g'inlari va vazifalarini qamrab olishiga bogliqdir. Axborotning quyidagi turlari mavjud: statistik, operativ, iqtisodiy, hisob, moliya, ta'minot, kadrlar bo'yicha, texnologik, konstruktorlik, marketing, ijtimoiy va boshqalar. Kelib chiqish manbasiga bog'liq ravishda axborot tashqi va ichki axborot turlariga bolinadi. Tashqi axborot tashqi muhitdan olinadigan xabarlardan iborat bo'ladi.

Bular jumlasiga yuqori tashkilotlar farmoyishlari, reja-topshiriqlari, mahsulotni sotish shartlari haqida axborotlar kiradi. Ichki axborot korxonada yoki

uning boshqaruv bo'g'inida shakllanib, iste'mol qilinadi. Korxonada miqyosida ular jumlasiga sexlar tomonidan rejaning bajarilishi, moddiy-texnikaviy ta'minot, mahsulot tannarxi, kadrlar, mehnat unumdorligi haqida axborotlar kiritilishi mumkin. Yo'nalishi bo'yicha axborot — boshlang'ich va boshqaruvchi (rahbarlik) axboroti turlariga bo'linadi. Rahbarlik axboroti boshlang'ich axborotni qayta ishlash asosida qaror qabul qilish natijasidir.

Boshlang'ich axborot doimo boshqaruv tizimining quyi darajasidan yuqoriroq darajaga qarab harakat qiladi, rahbarlik axboroti esa teskari yo'nalishda harakatlanadi. Bozor sharoitida ishlab chiqarish axborot tizimlarini rivojlanishi va loyihalashtirilishga tizimli yondashish asosida kompleks tashkil etishni talab etadi. Bu talablarga ma'lumotlarni qayta ishlashning integratsion tizimi javob beradi. Uni turli darajadagi zamonaviy hisob mashinalari, inson mashina tizimini har tomonlama qo'llash asosida loyihalashtirish mumkin.

Tashkiliy boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarida inson birlamchi, texnik vositalar esa, ikkilamchi vazifasini o'taydi.

Axborot xavfsizligining milliy xavfsizlik tizimidagi o'rni. XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining rolini o'rtishi natijasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o'rin egallashini belgilaydi:

– milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi.

– inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish – bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlari, balki xavfsizlik sohasidagi barcha xavfsizlik obyektlarining asosiy elementlari hamdir;

– axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;

– milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog'laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeini belgilaydi.

Axborot sohasidagi O'zbekistonning milliy manfaatlarini, ularga erishishning strategik yo'nalishlarini va ularni amalga oshirish tizimlarini o'zida aks ettiruvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. Shu bilan birga davlat axborot siyosati mamlakatning tashqi va ichki siyosatining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi hamda jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Axborot xavfsizligining zamonaviy konsepsiyasi axborot xavfsizligini ta'minlovchi maqsadlar, vazifalar, tamoyillar va asosiy yo'nalishlar bo'yicha rasmiy nuqtai nazarlar majmuini bildiradi.

Quyida axborot xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilari va jihatlari keltirilgan:

- axborotni muhofaza qilish (shaxsiy ma'lumotlarni, davlat va xizmat sirlarini va boshqa turdagi tarqatilishi chegaralangan ma'lumotlarni qo'riqlash ma'nosida);

- kompyuter xavfsizligi yoki ma'lumotlar xavfsizligi – kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarning saqlanishini, foydalanishga ruxsat etilganligini va konfidentsialligini ta'minlovchi apparat va dasturiy vositalar to'plami, axborotdan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish choralari;

- axborot egalariga yoki axborotdan foydalanuvchilarga hamda uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan ta'sir etishlardan axborot va uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaning himoyalanganligi;

- fuqarolar, alohida guruhlar va ijtimoiy qatlamlar, umuman olganda aholining yashash faoliyati, ta'lim olish va rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan sifatli axborotga bo'lgan talablarining himoyalanganligi.

Tashkiliy boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi quyidagi belgilarga ko'ra turkumlanadi:

Faoliyat ko'rsatish darajasiga ko'ra:

1. Umumdavlat miqyosidagi avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi.
2. Tarmoqlararo avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi (moliya).
3. Tarmoqni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi.
4. Korxonani boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi.
5. Avtomatlashtirilgan ish joylari.

Funksiyalarni boshqarishni avtomatlashtirilgan darajasiga ko'ra:

1. Axborot maslahat beruvchi tizim.
2. Axborot qidiruv tizim.
3. Axborot ma'lumotnoma beruvchi tizim.
4. Axborot o'qitish tizimi.

Faoliyat yuritish usuliga ko'ra:

1. Davlat qaramog'idagi tizim.
2. Xo'jalik hisobidagi tizim.

Axborot tizimlari 4 bosqichda rivojlangan va ular quyidagicha:

1. Birinchi axborot tizimlari 50-yillarda paydo bo'lgan. Bu paytlarda ular oylik ish haki va boshqa hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan bo'lib, elektromexanik, buxgalteri hisob-kitob mashinalarida realizatsiya qilingan. Bu narsa hujjat tayyorlash harajatlari va vaqtini bir muncha tejashga imkon bergan.

2. 60-yillarda axborot tizimlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ulardan olinadigan axborot har xil sohalar bo'yicha davriy hisobotlar uchun ishlatila boshlandi. Buning uchun tashkilotlarga keng ma'nodagi kompyuter jihozlari kerak bo'lib, ular faqatgina hisob-kitoblar ishlab chiqish va oylik ish haki hisoblanishi emas, balki boshqa ko'pgina funksiyalarni bajara olishi kerak edi.

3. 70-yillar va 80-yillarning boshlarida axborot tizimlar qarorlar qabul qilish jarayonini tezlatuvchi va qo'llab quvvatlovchi boshqaruv nazorati vositasi sifatida qo'llanila boshlandi.

4. 80-yillarning oxirlariga kelib, axborot tizimlaridan foydalanish konsepsiyasi o'zgardi. Ular axborotning strategik manbasiga aylanib, har qanday sohadagi tashkilotlarda qo'llanila boshlandi. Bu davrdagi axborot tizimlari o'z

vaqtida kerakli axborotni taqdim etish orqali tashkilotga uning faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga, yangi savdo bozorlarini topishda, o'zini kerakli hamkorlar bilan ta'minlashga, arzon narxda mahsulot chiqarishni tashkil etishda va h.k.larda yordam beradi.²⁰

Axborot texnologiyasining rivojlanishi borasida bir necha tegishli fikrlar mavjud bo'lib, ular turli bo'linish belgilari bo'yicha farqlanadi.

Axborotga ega bo'lish - dunyoga ega bo'lish" degan muqaddas ibora har qachongidan ham dolzarbdir. Shuning uchun, bugungi kunda "ma'lumotni o'g'irlash" aksariyat tajovuzkorlarga xosdir. Buning oldini olish uchun hujumlardan himoya qilishning bir qatorini kiritish, shuningdek, axborot xavfsizligi auditi o'z vaqtida o'tkazilishi mumkin. Axborot xavfsizligi auditi - bu axborot tizimining xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan tezkor va tezkor rivojlanayotgan operatsion va strategik sohani nazarda tutuvchi yangi tushuncha.

Zamonaviy dunyoda axborot hajmi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, chunki insoniyat jamiyatining barcha qatlamlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish globallashuvi tendentsiyasi mavjud. Oddiy odamning hayotida axborot texnologiyalari asosiy tarkibiy qism hisoblanadi.

Bu Internetdan biznesda ham, o'yin va o'yin-kulgi uchun ham foydalanishda ifodalanadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, xizmatlarni monetizatsiya qilish o'sib bormoqda, bu plastik kartalar yordamida turli to'lovlarni amalga oshirishga sarflanadigan vaqtni anglatadi. Bularga iste'mol qilingan turli xil tovarlar va xizmatlar uchun naqdsiz to'lovlar, onlayn to'lov tizimidagi operatsiyalar, valyuta almashtirish va boshqa to'lov operatsiyalari kiradi. Bularning barchasi butun dunyo bo'ylab Internetga ta'sir qiladi va uni kattaroq qiladi.

Karta egalari to'g'risidagi ma'lumotlar ham tobora ko'payib bormoqda. Bu bugungi kunda juda katta miqdordagi hujumlarni, shu jumladan xizmat ko'rsatuvchi provayder va oxirgi foydalanuvchining hujumlarini keltirib chiqaradigan firibgarlarning faoliyati doirasini kengaytirish uchun asosdir. Ikkinchi holda, tegishli

²⁰ M.N.Sobirova. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2022.

dasturlardan foydalangan holda, hujumning oldini olish mumkin, ammo agar u sotuvchiga tegishli bo'lsa, uzilishlar, ma'lumotlarning tarqalishi va servis buzilishlarini minimallashtiradigan chora-tadbirlarni qo'llash kerak. Bu axborot xavfsizligi auditi o'z vaqtida o'tkazilishi bilan bog'liq.

Dunyo bo'ylab Internet foydalanuvchilari soni ortib borishi va turli xil xizmatlarda pul ishlashning turli usullaridan foydalanilishi tufayli zamonaviy dunyoda axborot auditining dolzarbligi tobora ko'proq talabga ega bo'lmoqda. Shunday qilib, har bir foydalanuvchining ma'lumotlari buzg'unchilar uchun ochiq bo'ladi. Siz ularni muammoning markazini - ma'lumot oqimidagi zaif tomonlarini aniqlash orqali himoya qilishingiz mumkin. Korxonada axborot xavfsizligi auditini o'tkazishi kerak. Buning nima ekanligini va uni qanday tekshirishni ko'rib chiqing. Tashkilotlarning deyarli barcha faoliyati axborotni kompyuterda qayta ishlash bilan bog'liq. Kompyuterlashtirilgan axborot tizimidan keng foydalanishni talab qiladigan operatsiyalar soni va hajmi o'smoqda. Agar xatolar yuzaga kelsa, tizimning ishlashi bloklanishi mumkin.

Zanjir reaksiyasini boshlash mumkin, buning natijasida kompaniyalarning rentabelligi pasayadi va ularning obro'si pasayadi. Shu sababli, axborot xavfsizligini tekshirishga alohida e'tibor berish kerak.

9.3. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi

Ishlab chiqarish va texnologiya nuqtai nazaridan korxonada - bu texnik va texnologik majmua, mahsulot turlari (bajarilgan ishlar, xizmatlar), uni ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha mutanosib ravishda miqdori va kuchi bo'yicha tanlangan ishlaydigan mashina va mexanizmlar tizimi. Tashkiliy jihatdan korxonada bu ma'lum bir ichki tuzilishga, tashqi muhitga, faoliyat va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan boshlang'ich bo'g'in, ishlab chiqarish birligidir. Korxonaning tashkiliy tizimiga uning ishlab chiqarish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasi, shuningdek, ishlab chiqarish va menejment, korxonada va tashqi tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, korxonada jamiyatning ijtimoiy quyji tizimi vazifasini bajaradi, aynan shu asosida ijtimoiy, jamoaviy va shaxsiy manfaatlarining o'zaro

ta'siri amalga oshiriladi. Iqtisodiy jihatdan, korxonalar ma'lum operatsion va iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan va o'z faoliyatini to'liq xarajatlarni hisobga olish asosida amalga oshiradigan alohida bo'linma. Korxonaning iqtisodiy tizimi korxonaning davlat, yuqori tashkilot, etkazib beruvchilar va iste'molchilar, moliyaviy tashkilotlar bilan iqtisodiy munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Axborot jihatidan, korxonalar - bu tashqi muhit bilan har xil turdagi ma'lumotlarni doimiy ravishda almashtirib turuvchi, quyi tizimlar va elementlar o'rtasidagi axborot ulanishlarining katta hajmi, intensivligi va ko'p qirrali xususiyati bilan ajralib turadigan murakkab dinamik tizim. Korxonalar ma'lumotlari tizimiga hisobot va normativ-texnik hujjatlar, shuningdek korxonalar tarkibiy qismlarining holati va harakatini tavsiflovchi turli xil ma'lumotlar kiradi. Atrof-muhit nuqtai nazaridan korxonalar - bu tashqi muhit bilan material va energiya almashinuvi orqali o'zaro ta'sir qiladigan ishlab chiqarish tizimi. Ma'muriy-huquqiy jihatdan korxonalar quyidagicha ishlaydi yuridik shaxs qonun tomonidan davlat tomonidan belgilangan huquq va majburiyatlar bilan.

Axborot auditining vazifasi ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyektning hozirgi paytda axborot xavfsizligi holatini o'z vaqtida va aniq baholash, shuningdek, belgilangan maqsad va biznesni olib borish vazifalariga muvofiqligini, shu orqali iqtisodiy faoliyatning rentabelligi va samaradorligini oshirishdan iborat.

Boshqacha qilib aytganda, axborot xavfsizligi auditori - bu potentsial yoki real tahdidlarga qarshi tura olish imkoniyatini sinab ko'rish. Axborot xavfsizligi auditori quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- Xavfsizlik uchun axborot-axborot tizimining holatini baholang.
- Axborot tarmog'iga tashqi kirib borish bilan bog'liq potentsial xavflarni tahliliy aniqlash.
- Xavfsizlik tizimidagi bo'shliqlarni mahalliyashtirishni aniqlash.
- Xavfsizlik darajasi va qonunchilik bazasining amaldagi standartlariga muvofiqligini tahliliy aniqlash.

Himoyalashning yangi usullarini ishga tushirish, ularni amalda tatbiq etish, shuningdek himoya vositalari bilan bog'liq muammolarni yaxshilash bo'yicha

tavsiyalar yaratish, shuningdek ushbu yo'nalishdagi yangi ishlanmalarni qidirish. Audit quyidagi hollarda qo'llaniladi:

Axborot jarayoniga jalb qilingan ob'ektni to'liq tekshirish. Xususan, biz kompyuter tizimlari, aloqa vositalarining tizimlari, ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni, ma'lumotlarni, kuzatuv tizimlarini va hokazolarni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash paytida gaplashamiz.

- Elektron qurilmalarni, shuningdek, kompyuter tizimini radiatsiya va shovqinlarning ta'sirini to'liq tekshirish, bu ularning o'chirilishiga yordam beradi.

- Xavfsizlik strategiyasini yaratish bo'yicha ishlarni o'z ichiga olgan dizayn qismini, shuningdek ularni amaliy ravishda tekshirayotganda.

- Kirish imkoniyati cheklangan maxfiy axborotni himoya qilish ishonchliligini to'liq tekshirish, shuningdek, standart va nostandart choralar yordamida ushbu ma'lumot ommaga taqdim etiladigan "tashkilar" ta'rifi.

Shuni ta'kidlash kerakki, axborotni tekshirish zarurati ma'lumotlar himoyasi buzilgan hollarda yuzaga keladi. Shuningdek, tekshirish quyidagilar uchun tavsiya etiladi:

- Kompaniyaning qo'shilishi.
- Biznesni kengaytirish.
- Yutish yoki qo'shilish.
- Etakchilikni o'zgartirish.

Tashqi audit bu faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan tashqi, mustaqil ekspertlarni jalb qilish bilan tavsiflanadi. Qoidaga ko'ra, auditning ushbu turi bir martalik xarakterga ega va korxonalar rahbari, aksiyadorlar yoki huquqni muhofaza qilish organlari tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Tashqi audit majburiy emas, chunki tavsiya etilgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, qonun hujjatlarida axborot xavfsizligini tashqi audit o'tkazish majburiy bo'lgan nuanslar mavjud.

Masalan, moliya institutlari, aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek moliyaviy tashkilotlar qonunga bo'ysunadi. Axborot oqimi xavfsizligining ichki auditi doimiy jarayon bo'lib, uni o'tkazish "Ichki audit to'g'risidagi nizom" tegishli hujjat bilan tartibga solinadi. Ushbu tadbir, kompaniya ichida, sertifikatlash xususiyatiga ega,

uning o'tkazilishi korxonaga uchun tegishli buyruq bilan tartibga solinadi. Ichki audit tufayli kompaniya kompaniyadagi maxsus bo'linma orqali ta'minlanadi. Auditlar shuningdek quyidagicha tasniflanadi:

- Mutaxassis.
- Sertifikatlash.
- Tahliliy.

Ekspert tarkibiga axborot oqimi va tizimlarining himoyasi holatini tekshirish kiradi, ular ekspertlar va ushbu tekshiruvni amalga oshiruvchilar tajribasiga asoslanadi. Auditning sertifikatlash turi tizimlarga, xavfsizlik choralariga, xususan, ularning xalqaro jamiyatda qabul qilingan standartlarga muvofiqligiga, shuningdek ushbu faoliyatning huquqiy asoslarini tartibga soluvchi tegishli davlat hujjatlariga tegishli. Auditning analitik turi deganda texnik vositalardan foydalangan holda axborot tizimida chuqur tahlil o'tkazish tushuniladi. Ushbu harakatlar dasturiy va apparat kompleksidagi zaifliklarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Tekshirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich eng oson deb hisoblanadi. Unda auditorning huquqlari va majburiyatlari, bosqichma-bosqich harakatlar rejasini ishlab chiqish va rahbariyat bilan kelishish belgilanadi. Shu bilan birga, tahlil chegaralari xodimlar yig'ilishida belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda katta miqdordagi resurslardan foydalanish qo'llaniladi. Bu apparat-dasturiy kompleksga tegishli bo'lgan barcha texnik hujjatlar o'rganilganligi bilan asoslanadi.

Uchinchi bosqich uchta usuldan biri yordamida amalga oshiriladi:

- xavf tahlili.
- standartlar va qonun hujjatlariga muvofiqligini tahlil qilish.
- xatarlarni tahlil qilish va qonunlarga rioya qilish kombinatsiyasi.

To'rtinchi bosqich chuqur tahlil qilish uchun olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishga imkon beradi. Bunday holda, inspektor bu masalada vakolatli bo'lishi kerak.²¹

Tekshiruvdan so'ng tegishli hisobot hujjatida aks ettirilgan xulosa tuzilishi kerak. Hisobot odatda quyidagi ma'lumotlarni aks ettiradi:

1. Tekshirish qoidalari.
2. Korxonada axborot oqimi tizimining tuzilishi.
3. Qanday usullar va vositalar sinovdan o'tkazildi
4. Xavf va kamchiliklar darajasini hisobga olgan holda, zaifliklar va kamchiliklarning aniq tavsifi.
5. Xavfli joylarni yo'q qilish, shuningdek, butun tizimni yaxshilash bo'yicha tavsiya etilgan harakatlar. Amaliy amaliy maslahatlar audit davomida aniqlangan xavflarni minimallashtirishga qaratilgan.

Amalda, oddiy bir oddiy misol, tijorat uskunalari sotib olish bilan shug'ullanuvchi A xodimi "B" dasturi yordamida muzokaralar olib borgan vaziyat.

Bundan tashqari, dasturning o'zi himoyasizdir va ro'yxatdan o'tish paytida xodim elektron pochta manzilini yoki raqamini ko'rsatmagan, ammo mavjud bo'lmagan domen bilan alternativa mavhum pochta manzilidan foydalangan. Natijada, tajovuzkor shunga o'xshash domenni ro'yxatdan o'tkazishi va ro'yxatga olish terminalini yaratishi mumkin. Bu unga "yo'qolgan" parolni yuborish so'rovi bilan "B" dasturi xizmatiga ega bo'lgan kompaniyaga xabarlarni yuborish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, server firibgarning mavjud manziliga xat yuboradi, chunki u qayta yo'naltirishga ega. Ushbu operatsiya natijasida firibgar firma yozishmalariga kirish huquqiga ega, etkazib beruvchiga boshqa ma'lumotlarni e'lon qiladi va xodim uchun noma'lum yo'nalishda tovarlar yo'nalishini boshqaradi.

Axborotni muhofaza qilishning maqsadi va konseptual asoslari. Umuman olganda axborotni muhofaza qilishning maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin:

- axborotni tarqab ketishi, o'g'irlanishi, buzilishi, qalbakilashtirilishini oldini

²¹ M.N.Sobirova. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2022.

olish;

– shaxs, jamiyat, davlatning xavfsizligiga tahdidni oldini olish;

– axborotni yo‘q qilish, modifikatsiyalash, buzish, nusxa olish, blokirovka qilish kabi noqonuniy harakatlarning oldini olish;

– axborot resurslari va axborot tizimlariga noqonuniy ta’sir qilishning boshqa shakllarini oldini olish, hujjatlashtirilgan axborotga shaxsiy mulk obyekti sifatida huquqiy rejimni ta’minlash;

– axborot tizimida mavjud bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini va konfidentsialligini saqlash orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoyalash;

– davlat sirlarini saqlash, qonunchilikka asosan hujjatlashtirilgan axborotlar konfidentsialligini ta’minlash;

– axborot jarayonlarida hamda axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta’minlash vositalarini loyihalash, ishlab chiqish va qo‘llashda subyektlarning huquqlarini ta’minlash.

Axborotni muhofaza qilishning samaradorligi uning o‘z vaqtidaligi, faolligi, uzluksizligi va kompleksligi bilan belgilanadi. Himoya tadbirlarini kompleks tarzda o‘tkazish axborotni tarqab ketishi mumkin bo‘lgan xavfli kanallarni yo‘q qilishni ta’minlaydi. Ma’lumki, birgina ochiq qolgan axborotni tarqab ketish kanali butun himoya tizimining samaradorligini keskin kamaytirib yuboradi.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi ishlar holatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, muhofaza qilishning to‘liq shakllangan konsepsiyasi va tuzilishi hosil qilingan, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

– sanoat asosida ishlab chiqilgan, axborotni muhofaza qilishning o‘ta takomillashgan texnik vositalari;

– axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning mavjudligi;

– ushbu muammoga oid yetarlicha aniq ifodalangan qarashlar tizimi;

– yetarlicha amaliy tajriba va boshqalar.

Biroq, xorijiy matbuot xabarlariga ko'ra ma'lumotlarga nisbatan jinoiy harakatlar kamayib borayotgani yo'q, aksincha barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda.

Axborot xavfsizligi ob'ektlarini davlat, tashkilot (korxonalar) va alohida shaxs darajasida turkumlash mumkin (4-jadval).

4-jadval

Axborot xavfsizligi ob'ektlari ²²

Davlat	Tashkilot	Shaxs
milliy madaniy qadriyat va an'analar; axborot resurslari; axborot resurslarining shakllanishi, tarqatilishi, foydalanilishi; axborot texnologiyalari; axborot infratuzilmasi; fuqarolarning axborotni olish, tarqatish va foydalanish huquqlari, cheklangan axborotlar va intellektual mulkni himoyalash.	tashkilotning korporativ madaniyati; tijorat siri; kasb siri; xizmat siri va boshqa cheklangan axborot; intellektual mulk; imidj; tashkiloting axborot infratuzilmasi.	shaxs psixikasi, ruhiyati; intellektual mulk; shaxsiy, oilaviy sir; kasbiy sir; shaxsiy ma'lumotlar; ishbilarmonlik nufuzi.

Axborot xavfsizligiga tahdidlar ichida axborot xuruji muhim rol o'ynaydi. Axborot xuruji iqtisodiy jihatdan milliy iqtisodiyot beqarorligini keltirib chiqarish, korxonalar faoliyatini izdan chiqarishga, raqobat kurashida mag'lub bo'lish, uning bozorining kasod bo'lishi, bankrot bo'lish, shaxs iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan va axborot usullari yordamida davlat monopolistik birlashmalari, transmilliy korporatsiyalar ta'sir doirasini kengaytirishga intilishdir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xizmatlar, xizmatlar bozori, xizmatlar sohasidagi xavfsizlik, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligiga tahdidlar, biznes razvedka, benchmarking, axborot xavfsizligi ob'ektlari, axborot xuruji, axborot xavfsizligini ta'minlash usullari.

²² Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. Ростов-на-Дону.; Феникс, 2007. 243 бет.

Nazorat uchun savollar

1. Axborot, axborot xizmati va uning turlari deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot xavfsizligining mohiyati nima?
3. Biznes-razvedka nima? U qanday maqsadda amalga oshiriladi?
4. Benchmarking nima? Uni qo'llashda qanlay maqsad ko'zlanadi?
5. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun qanday usullardan foydalaniladi?
6. Kompyuter jinoyatlari qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
7. Kompyuter jinoyatlaridan qanday himoyalaniish mumkin?
8. Axborot xuruji va mafkuraviy tajovuzdan qanday himoyalaniish mumkin?
9. Kriptografiya nima?
10. Kriptografiya rivojlanishining qanday bosqichlari mavjud?
11. Zamonaviy kriptografiya qanaqa muammolarni hal etuvchi bilim sohasi hisoblanadi?

X-BOB. XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH.

10.1. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari.

Xufyona iqtisodiyotning turlari

10.2. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari

10.3. Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri

10.1. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari.

Xufyona iqtisodiyotning turlari

Xufyona iqtisodiyot insoniyat jamiyatida davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo'lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog'liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning o'rni va roli ham turlichadir.

Xufyona iqtisodiyot mavjudligiga dastlab 20-asrning 30-yillarida e'tibor bera boshladilar. XX asrning 70-yillaridan boshlab xufyona iqtisodiyotni ilmiy tadqiq qilish boshlandi. Xufyona iqtisodiyotni tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ingliz sotsiologi K.Xart tomonidan birinchilar qatorida boshlandi U "uchinchi dunyo" mamlakatlarida ko'plab shaharliklarning rasmiy iqtisodiyotga aloqador emasligini aniqladi. U norasmiy iqtisodiyot atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Daromad olishning formal va noformal shakllari o'rtasidagi farq ish haqi va o'zini o'zi ish bilan band qilish asosida topilgan daromad o'rtasidagi farq sifatida izohland P.Gutman (AQSh) xufyona iqtisodiyot ko'lamiga va roliga e'tibor qilish lozimligini asosladi²³

Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli ta'riflar berilgan:

²³ Hart K. Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana //Journal of Modern African Studies.1973.Vol. 11. №1. P.61-90)

1. Xufyona iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta'riflanadi.
2. Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.
3. Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko'ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi²⁴

Xufyona iqtisodiyot - nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy mynocabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhviy manfaatlarni qondirish, ya'ni katta miqdorda qo'shimcha daromad (foйда) olishni ko'zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkdan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo'l bilan foydalanishdir. Xufyona rejimda almashuvlarni amalga oshirish ham xarajatlar bilan bog'liq.

Xarajatlarning bir turida tejalishga erishgan xufyona iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sub'ektlar boshqa xarajatlarni ko'proq amalga oshirishadi – ular «xufyonalik bahosi»ni to'lashga majburdirlar. Xufyonalik bahosi bir necha unsurlardan tarkib topadi.

1. Huquqiy qoidalardan bo'yin tovlash bilan bog'liq xarajatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq va boshqa moliyaviy maslahatchilar xizmatlariga haq to'lash; ishlab chiqarish hajmining cheklanishi va reklama natijasida yo'qotilgan foyda (korxonalar qanchalik katta bo'lsa va u reklama kampaniyasini qanchalik faol yuritrsa, nazorat qiluvchi organlarning e'tibori doirasiga tushish imkoniyati unda shunchalik katta); «ikkiyoqlama» buxgalteriyani yuritish xarajatlari va shu munosabat bilan yuzaga keladigan korxonadagi hisob yuritish va nazorat qilishdagi qiyinchiliklardan ko'riladigan yo'qotishlar.

2. Daromadlar transferti bilan bog'liq xarajatlar. Barcha iqtisodiy sub'ektlar bilvosita soliqlar va inflyatsiya solig'ini to'lashadi. Lekin oshkora iqtisodiy

²⁴ Абулқосимов М.Х. Иқтисодий ҳавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019

sub'ektlardan farqli o'laroq, xufyona iqtisodiy sub'ektlar buzilgan mulkchilik huquqlarini himoyalash yuzasidan davlatga murojaat eta olishmaydi. Bunga, shuningdek, kredit olish bilan bog'liq qiyinchiliklarni ham qo'shimcha qilish lozim.

3. Soliqlar va ish haqiga hisoblab yozishlardan bosh tortish bilan bog'liq xarajatlar. Daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga va pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlardan bosh tortish korxonaga ish haqini to'lashga tejash imkonini beradi, lekin bunda mehnatning o'rnini sarmoya bilan bosish va texika bilan qayta jihozlashdan manfaatdorlikni pasaytiradi. De Soto xufyona qayd etilgan mulkchilik huquqlarini ta'riflash uchun «jonsizlantirilgan kapital» atamasidan foydalanadi: ushbu kapitaldan garov sifatida foydalanish, uni garovga investitsiya qilish, erkin sotish, ba'zan esa shunchaki meros qilib qoldirish mumkin emas.

4. Shartnoma tizimidan foydalanishning imkonsizligi bilan bog'liq xarajatlar. Shartnomalarni tuzishning xufyona tadbiri unda ko'plab iqtisodiy sub'ektlar ishtirok etadigan uzoq muddatli loyihalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradi. Shartnomani qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilgan hollarda sud yoki arbitrajga murojaat eta olishmaydi.


5. Xufyona bitimning mutlaq ikki tomonlama xususiyati bilan bog'liq xarajatlar. Faoliyatni va uning natijalarini qonundan yashirishga urinish xufyona bitim ishtirokchilari doirasini mumkin qadar cheklashga undaydi.

6. Nizolarni hal etishning xufyona tartibotlaridan foydalanish xarajatlari. Yuzaga kelgan nizolarni hal etish uchun birinchidan, ko'p sonli qarindoshlar, yurtdoshlar va boshqa «o'zinikilar» bilan yaxshi munosabatlarni ushlab turish e'tibor belgilarini qaratish uchun vaqt va xizmatlar almashish uchun mablag'lar talab qiladi. Ikkinchidan, sud va kuchlilik tuzilmalari funksiyasini bajaruvchi mafiya xizmatlariga murojaat etish o'ziga xos soliqni to'lash zarurati bilan shartlangan

8 . Xufyona iqtisodiyotga kategoriya sifatida metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

– iqtisodiy yondoshuvda xufyona iqtisodiyot global, makro- va mikroarajada, shuningdek, institutsional jihatlari tadqiqi qilinadi;

- huquqiy yondashuvda tartibga solishning normativ tizimiga munosabati, ya'ni rasmiy, davlat ro'yxatiga olishdan, nazoratidan qochish e'tiborga olinadi;
- hisob-statistik statistik organlarda ro'yxatga va hisobga olinmagan;
- kriminalologik yondashuvda jamiyatga, shaxsga zarar keltiruvchi faoliyatlar hisobga olinadi;
- kompleks yondashuvda barcha yondashuvlar va kriteriyalar asosida xufyona iqtisodiyot tadqiq qilinadi;
- kibernetik yondashuvda xufyona iqtisodiyot o'zini o'zi tartibga soluvchi va boshqaruvchi tizim sifatida qaraladi, xufyona iqtisodiyot rivojlanishini prognozlashtirishning iqtisodiy-matematik modellari ishlab chiqiladi (13-rasm).



16-rasm . Xufyona iqtisodiyotga metodologik asoslari

10.2. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari

Xufyona iqtisodiyot, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo‘lgan. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli xil ta’riflar berilgan:

Xufyona iqtisodiyot – qonun asosida man qilingan faoliyat turlari.

Xufyona iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.

Xufyona iqtisodiyot - rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.

Iqtisodiyot fanida iqtisodiyotning qaysi sektorga, ya’ni norasmiy, kiriminal, faktiv, xufyona yoki ochiq, rasmiy iqtisodiyotga tegishli ekanligini aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

- davlatning fiskal (soliq) manfaatlari;
- YaIMning real hajmi;
- huquqiy parametrlar;
- ho‘jalik sub’ektlari o‘zaro harakati tavsifi.
- Xufyona iqtisodiyot daromadlarni soliqqa tortishdan yashirishda namoyon bo‘ladi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash usullari quyidagilardan iborat:

- turli banklarda bir necha hisob raqamlarini ochib, ular orqali buxgalteriya hisobida to‘liq ko‘rsatilmagan holda pul operatsiyalarini amalga oshirish;

- trast, veksel va boshqa hisoblardan foydalanish;

- “ikkiyoqlama buxgalteriya” yuritish, naqd pullar bilan muomala qilish, shu orqali daromad va pul tushumlarini soliqdan yashirish;

- korxonani bir shahar, tumanda ro‘yxatdan o‘tkazish, ammo hisob raqamini boshqa shahar, tumandagi banklarda ochish orqali soliq to‘lashdan korxonani ro‘yxatga olingan joyda va faoliyat yuritgan joyida ham qochadi, ya’ni bo‘yin

tovlaydi;

- hisobga olinmagan xarajatlar hisobiga sotilayotgan mahsulot (xizmat,
- ishlar)ning tannarxini oshirib ko'rsatish;
- rasmiy hisob va to'lov xujjatlarida tomonlarning kelishuviga asosan bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmatlar) qiymati past narxlarda ko'rsatiladi, uning qolgan qismi naqd pul shaklida o'zaro taqsimlab olinadi. Naqd pullardagi daromad soliqqa tortishdan yashiriladi.

Kriminal, jinoiy xufyona iqtisodiyotni noqonuniy ishlab chiqarish, yashirin ishlab chiqarish va ongli ravishda oldindan rejalashtirib, g'arazli maqsadlarni ko'zlab qilingan jinoyatlar tashkil etadi.

Noqonuniy ishlab chiqarishga biznes va tadbirkorlik shaklida tashkil etilgan, qonunchilikda qat'iy man qilingan faoliyat turlari kiradi. Bunday faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- qurol-yarog'lar ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- kontrabanda;
- qimorxonalar, qimor o'yinlarini tashkil etish;
- odim savdosi;
- fohishabozlik va h.k.

Xufyona iqtisodiyotga bo'lgan kompleks yondashuv uni quyidagicha ta'riflash imkonini beradi. Xufyona iqtisodiyot bozor xo'jaligining ob'ektiv va doimo mavjud bo'luvchi tizimi bo'lib, uning doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nohalol raqobat usullari orqali iqtisodiy manfaat olishga harakat qiladilar, ya'ni, o'z tashabbuslari yoki tashqi shart-sharoitlar ta'sirida qonunga, ish yuritish yetikasiga, biznes bilan hokimiyat o'rtasidagi o'yin qoidalariga, jamiyatning ma'naviy – ahloqiy me'yorlariga zid bo'lgan xatti – harakatlarni amalga oshiradilar²⁵.

Bundan kelib chiqadiki, xufyona va norasmiy faoliyat olib borishdan oxir-oqibat tadbirkor o'ziga ham, davlatga ham zarar keltiradi. **Birinchi**dan, «xufyona

²⁵ Попов Ю.Н. , Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства . «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.50

iqtisodiyotda» faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar (firma) bozorni qo'llab-quvvatlovchi institutlardan foydalana olmaydi. **Ikkinchidan**, korxonalar o'z faoliyatini fosh bo'lib qolish va jazo olishning doimiy xavfi ostida olib boradi va bu uning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. O'z resurslarini yashirib korxonalar ulardan samarali foydalana olmaydi. **Uchinchidan**, norasmiy tarzda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ishlab chiqarishga katta kapital sarflay olmaydi, ya'ni fosh bo'lib qolishdan cho'chib faoliyatni kengaytira olmaydi va nihoyat, **to'rtinchidan**, davlat olishi mumkin bo'lgan soliq tushumlarini ololmaydi.


«Xufyona» iqtisodiyotning sobiq Ittifoqda shakllanish shart-sharoitlarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, u 80-yillarning o'rtalariga kelib, keng ko'lam yozdi (yashirin xizmat sohasi, tovarlarni davlat chakana tarmoqini chetlab sotib olish, davlat moddiy texnik ta'minoti tizimini chetlab, korxonalarini ta'minlash) xufyona sektor ishlab chiqarishda ham shakllana boshladi.

Xuddi shunga o'xshash xufyona iqtisodiyot Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham mavjud yedi. Lekin ularda ochiq mayda tadbirkorlik (cheklangan darajada bo'lsa ham) kanallari mavjudligi tufayli, «xufyona» iqtisodiyotning ko'lami juda ham katta emas yedi. Aksariyat hollarda insonga kam kuch sarflab, ko'proq manfaat olishga intilish xosdir. Yu.N.Popov, M.E Tarasovlarning fikricha, bunday ratsionalizm ichki to'siqlarning yetarli yemasligi va ba'zida ularning umuman yo'qligi sharoitida insonni xufyona faoliyat olib borishga undaydi. Inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, lekin insonning xulq-atvorini u yashayotgan muhit, tarbiyasi, madaniyati va ma'naviyati belgilaydi. Inson tabiatidagi yezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyat mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga, ya'ni tarixiy an'analar, qonunchilik, jamiyatning ma'naviy-ahloqiy me'yorlariga bog'liq ravishda hal yetiladi. Umuman, xufyona faoliyat insonning xo'jalik faoliyati davomida u yoki bu darajada doimo mavjud bo'ladi.

Institutsionalizm tarafdorlarining qarashlaricha, xo'jalik sub'ektlarining faoliyatlari qonun doirasida olib borilgan taqdirda transaksion xarajatlarning yuqoriligi yashirin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga undaydi. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- qonun doirasida faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar (yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish, litsenziya olish, yuridik adres olish va boshqa rasmiyatchiliklarni amalga oshirish uchun qilinadigan sarf-xarajatlar);

- qonun doirasida faoliyatni davom yettirish (soliqlar to'lash, mehnat munosabatlari sohasida qonuniy talablarni bajarish, zarur bo'lganda nizolarni sud orqali hal yetish uchun sarflanadigan xarajatlar).



17-rasm. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablarining uruhlanishi

Umumiy qabul qilingan transaksiya xarajatlari nuqtai nazaridan xufyona iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishi huquqiy bazaning takomillashmaganligi, davlat tomonidan o'ziga xos funksiyalarning samarasiz bajarilishi, xo'jalik faoliyatida ikki xil standartlarning keng tarqalishi kabi tovlamachiliklarning o'sishi bilan bog'liq katta miqdordagi transaksiya xarajatlari bilan kuzatiladi.

Transaksiya xarajatlari o'sishining sababi xufyona sektori iqtisodiyoti yemas, balki rasmiy iqtisodiyotda yuqori transaksiya xarajatlarning mavjudligi xufyona sektor faoliyat ko'rsatishining sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Xufyona biznes ishtirokchilari o'zini soliqlardan, litsenziyalashdan, shartnomalar tuzishdan, qonunlarga amal qilishdan ozod qiladi va "o'yin qoidalariga" ko'ra mulkchilik huquqini mustaqil ravishda muhofaza qiladi hamda uni buzgan xatti-harakat uchun jazolaydi va bu bilan rasmiy faoliyat ko'rsatuvchi

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qaraganda raqobat jihatdan ustunlikka yega. Jadvalda iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlarida tadbirkotlik faoliyatini tashkil yetish yuzasidan transaksiya xarajatlari taqqoslanadi. (5-jadval).

5-jadval

Transaksiya xarajatlari: iqtisodiyot sektorlari bo'yicha qiyosiy tahlil

Transaksiya xarajatlari turi	Rasmiy sektor	Xufyona sektor	Izoh
1. Tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya olish	+	-	Norasmiy ishlab chiqarish
2. Yerga yegalik qilish yoki uni ijaraga olish huquqini qo'lga kiritish	+	-	Noqonuniy qurilish
3. Tegishli qonunlar va normativlarni bilish va ularga amal qilish	+	-	Xufyona iqtisodiyotning o'yin qoidalariga amal qilish
4. Soliqlarni to'lash	+	-	
5. Kredit olish	+	+	Kredit imtiyozli shartlarda beriladi
6. Shartnomalar shartlarining bajarilishini nazorat qilish tizimi	+	+	Bitimlarni noiqtisodiy nazorat qilish
Jami	6+	2+	

Mazkur jadval shuni yaqqol ko'rsatib turibdiki, iqtisodiyotning xufyona sektorida aksariyat pozitsiyalar bo'yicha faqat tadbirkorlik faoliyatini tashkil yetishda transaksiya xarajatlari rasmiy iqtisodiyotga qaraganda ancha past (6+/2+). Masalan, yerga yegalik qilish yoki uni ijaraga olish huquqlarining noqonuniy qo'lga kiritilishi imorat soluvchilar uchun bepulga tushmaydi, lekin barcha rasmiy tartib-qoidalar va ushbu transaksiyani amalga oshiruvchi instansiyalar, sarflangan vaqt va boshqa sarf-xarajatlarni hisobga olgan holda nolegitim yo'l ayrim sub'ektlar uchun ancha oson va foydali bo'lib chiqadi. Chunki xufyona iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan o'tib bo'linmas to'siq bilan ajralmagan, ko'pchilik xo'jalik

yurituvchi sub'ektlar transaksiyalarni xufyona sektor yordamida amalga oshirish mumkin. Shularni inobatga olganda norasmiy sektor faoliyatini cheklash nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun sarflanadigan transaksiya xarajatlarini ham qisqartirib berish muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, qonunlarga itoat yetish "bahosi" to'g'ridan-to'g'ri pul xarajatlarinigina yemas, balki u yoki bu protseduralarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqtni ham o'z ichiga oladi. Aynan shu holat ko'p hollarda xufyona faoliyat yuritish uchun asosiy sabab bo'ladi. Bu yerda muqobil qarorni izlash natijasida iqtisodiyot sub'yektlari davlat ishtirokisiz, ya'ni xufyona faoliyat olib borish yo'lini tanlaydilar. Demak, olimlarning fikricha, qonunga itoat yetishning yuqori bahosi bilan xufyona iqtisodiyot o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Lekin yashirin tarzda faoliyat olib borish ham katta sarf-xarajatlar bilan bog'liq.

Iqtisodchilar xufyona iqtisodiyot kelib chiqishining iqtisodiy sabablarini bozor xo'jaligi doirasida raqobat muammosi bilan bog'lash mumkin, degan fikrni bildiradilar. Ular xufyona iqtisodiyotni nomukammal raqobatning bir shakli sifatida ko'rish kerak, deb hisoblaydilar. Mukammal bozor munosabatlari shakllanib va rivojlanib borgan sari sog'lom raqobat xufyona iqtisodiyotni siqib chiqaradi. Buning isbotini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko'rish mumkin. Ularda xufyona iqtisodiyotning ulushi rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardagiga qaraganda ancha past.

Davlat iqtisodiyotni samarali boshqara olmas yekan, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratmas yekan, xufyona iqtisodiyot xunuk ko'rinishlarga yega bo'lib, miqyoslari kengayib boraveradi. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari, ayniqsa, inqirozlar davrida, yuqori inflyatsiya va valyuta kurslarining keskin o'zgarib turishi, bozor xo'jaligida muvozanat buzilgan sharoitda shiddat bilan kengayib boradi.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining keyingi guruhiga ijtimoiy omillar kiradi. Hozirgi kundagi jamiyatda bir qator ijtimoiy muammolar mavjud

bo‘lib, ulardan biri jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishidir. Bu innovatsion iqtisodiyotga o‘tishga xos bo‘lgan jarayon bo‘lib, muammoni hal yetishga bo‘lgan urinishlar aksariyat jamiyatlarda muvaffaqiyatsiz bo‘lmoqda. Jamiyatning tarkibiy tuzilishi xufyona iqtisodiyot ishtirokchilarining potensial sonini belgilaydi. Chunki, aholining kam ta‘minlangan va boshqa guruhlar xufyona sektor doirasiga ko‘proq tortiladi.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining yana bir guruhiga huquqiy omillar kiradi. Bu tadbirkorlikning huquqiy bazasini takomillashmaganligi bilan bog‘liqdir. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham tadbirkorlikning huquqiy bazasini rivojlanishi iqtisodiy jarayonlardan orqada qoladi. Bozor xo‘jaligidagi o‘zgarishlar bilan mavjud huquqiy baza o‘rtasidagi ziddiyatlar xufyona iqtisodiyot sub‘ektlari uchun huquqiy sohadagi kamchiliklardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Qonunlar ham xufyona faoliyat turlariga nisbatan turlicha bo‘lishi mumkin. Ba‘zi holatlarda yirik korporatsiyalar o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda qonun chiqaruvchilarga tazyiq o‘tkazishlari va ma‘lum ijtimoiy guruhlar manfaatlariga mos keladigan qonunlarni qabul qilinishiga harakat qilishlari mumkin.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining boshqa bir guruhiga ma‘naviy omillar kiradi. “Tenevaya yekonomika v sisteme rypochnogo xozyaystva”, deb nomlangan darslik mualliflarining fikricha, ushbu omillar tadbirkorlik faoliyatining ma‘naviy asoslarini zaifligi bilan belgilanadi. Ularning ta‘kidlashlaricha, qonunlar ma‘lum davrning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini o‘zida aks yettiradi. Lekin aynan qonunlar orqali amalga oshiriladigan davlat manfaatlari ko‘p hollarda jamiyatning ko‘pchiligi manfaatlariga mos kelavermaydi, ayrim holatlarda yesa ularga zid bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlikning ma‘naviy asosi keng bo‘lib, ko‘p hollarda xo‘jalik huquqidan ham muhimroqdir. Yuqorida nomi keltirilgan darslik mualliflari misol tariqasida Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniyaning natsistlar rejimi bilan xufyona operatsiyalar o‘tkazgan shveysar banklari faoliyatini keltiradilar. Rasmiy


tomondan olib qaraganda bunday faoliyat qonunga zid bo'lmagan, lekin jahon hamjamiyati oldida bu banklar oddiy ma'naviy-ahloqiy tamoyillarni oyoq osti qilganlar. Ular ham Ikkinchi jahon urushi davrida natsistlar tomonidan bosib olingan hududlardagi minglab kishilarning mehnatidan foydalanganlar. Ayni paytda, deb yozadilar darslik mualliflari, hozirga kelib mana shu korporatsiyalar, bir paytda jamiyatning ma'naviy – ahloqiy tamoyillarni buzganliklarini tan olgan holda, kishilarga kompensatsiya to'lamoqdalar. Va nihoyat, xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining oxirgi guruhiga siyosiy omillar kiritiladi. Ushbu omillar siyosiy tizimdagi ziddiyatlar oqibatida yuzaga keladi. Bunda eng muhim, prinsipial masalalardan biri hokimiyat bilan yirik kapital o'rtasidagi munosabatlar masalasidir. Ma'lumki, ularning birlashishi har narsaga qodir bo'lgan oligarxiyani shakllantiradi. Bu xufyona iqtisodiyotga sifat jihatdan yangi belgilar beradi.

Tadqiqotchilarning katta bir qismi xufyona faoliyat va xufyona iqtisodiyotni o'rganishga huquqiy jihatdan yondashadilar (16-rasm). Ushbu yondashuv tarafdorlari xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda qonunning buzilishini asosiy mezon qilib oladilar. Xufyona iqtisodiyotni ikkiga ajratadilar: kriminal («qora») va nokriminal («kul rang»). Bunda biror bir faoliyatni davlatdan yashirish faktini ikki turdagi motiv bilan bog'liq, deb hisoblaydilar.

Shunday qilib nokriminal («kul rang») iqtisodiyotda daromadlar (yoki xarajatlar) yashiriladi, kriminal («qora») iqtisodiyotda faoliyatning o'zi yashiriladi. O'z navbatida kriminal iqtisodiyot doirasida ikkita tarkibiy qism ajratiladi: noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyati va iqtisodiy jinoyatchilik.

Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga biznes ko'rinishida tashkil yetilgan, qonun yo'li bilan taqiqlangan faoliyat turlarini kiritish mumkin. Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qurol ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- qimor o'yinlari;
- kontrabanda;
- fohishabozlik va b.



18-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan huquqiy yondashuv²⁶

Iqtisodiy jinoyatlar iqtisodiy sohadagi jinoyatlar bo‘lib, ular ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmagan va g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab qilingan iqtisodiy jinoyatlardir:

- g‘arazli maqsadlarda xizmat mansabini suiste‘mol qilish (poraxo‘rlik);
- firibgarlik;
- o‘g‘rilik;
- ta‘magirlik (reket) va b.

14.3. Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri

“Korrupsiya” lotincha (sorrupcio) so‘zidan olingan bo‘lib, buzilish degan ma‘noni anglatadi. Korrupsiya faqat bir ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan hodisa bo‘lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. O‘z tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lgan yuzaga kelish va qayta tiklanish mexanizmlari bilan xarakterlanadi. Korrupsiya hodisasini tadqiq qilgan barcha tadqiqotchi hamda siyosatchilar uning ahloqsizlik ekanligi va har qanday mamlakatning iqtisodiy va demokratik taraqqiyotiga ziyon yetkazishini tan oladilar.

²⁶ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства . «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.28

Lekin, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda ushbu hodisa jamiyat va iqtisodiyot institutlari tizimidan tashqaridagi “ma’naviy jinoyat” sifatida o’rganiladi. Uning tabiati, funksiyalari, jamiyat va iqtisodiyotga yetkazadigan zararlari to’g’risidagi tasavvurlar va fikrlar cheklanib qolmoqda degan fikrlar mavjud. “Tenevaya ekonomika v sisteme ranochnogo xozyaystva”, deb nomlangan darslikning korrupsiya masalasiga bag’ishlangan qismida mualliflar N. Makiavellining korrupsiyaga bergan ta’rifini keltiradilar, ya’ni, korrupsiya “ommaviy imkoniyat yoldan shaxsiy manfaatlar yo’lida foydalanish”ni anglatadi⁷⁴. Hozirgi davr xalqaro me’yoriy hujjatlarida korrupsiyaning turlicha talqinlari keltirilgan. BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash to’g’risidagi hujjatlarida, korrupsiyaga shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiste’mol qilish, deb ta’rif beriladi.

Korrupsiya tushunchasi poraxo’rlik tushunchasidan kengroq ma’noni anglatadi. Ushbu tushuncha poraxo’rlikni (biror-bir shaxsning kasbi taqozo qiladigan majburiyatidan chekinganligi uchun mukofot berish) va nepotizm (shaxsiy munosabatlar asosida homiylik qilish) hamda shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish maqsadida jamoat mablag’larini noqonuniy o’zlashtirishni anglatadi.

Shulardan kelib chiqib, yuqorida nomi keltirilgan darslik mualliflari korrupsiyaga quyidagicha ta’rif beradilar: o’zi yoki shaxsiy munosabatlar yo’lga qo’yilgan boshqa shaxslar uchun qandaydir ustunliklarga ega bo’lish maqsadida tomonlarning mustaqillik tamoyillariga atayin rioya qilmaslik. Bunday ta’rif korrupsiya xufiyona iqtisodiyotning bir ko’rinishi sifatida namoyon bo’ladi, degan fikrni tasdiqlaydi. “Korrupsiya va xavfsizlik”, deb nomlangan risola mualliflarining fikrlaricha, korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufiyona iqtisodiyotning ko’rinishidir. SHuning uchun korrupsiyani iqtisodiy hodisa sifatida talqin etishda deyarli bahs-munozaralar yo’q. Uning davlat amaldorlarining poraxo’rlik faoliyatidan iboratligi va jamiyatga katta zarar yetkazishini ko’pchilik tadqiqotchilar e’tirof etadilar.


Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishida farqlar mavjud bo’lib, iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonun-qoidalariga mos kelmaganidan

yashirincha yuz beradi. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan guruhning manfaati uyg'unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo'lganidan, u sotadi. Bu yerda pora yashirin xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo'rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo'ysunuvchi munosabat bo'lganligi sababli uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu yerda ayrim shaxslar yohud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaati hisobidan bo'ladi. SHuning uchun buni jamiyat qabul qilmaydi va natijada u yashirin tus oladi. YURidik qonunlarda aks etgan qoidalarnigina jamiyat qabul qiladi. SHuni nazarda tutib, korrupsiyani huquqiy jihatdan g'ayriqonuniy, qonunlar man etadigan iqtisodiy faoliyat deb aytish mumkin²⁷.

Korrupsiya shakllari xilma-xil bo'lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, jamiyat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishigacha kiradi. Biznesda eng ko'p uchraydigan va eng ko'p tarqalgan korrupsiya shakli import va eksport litsenziyalari, valyuta nazorati, soliqlarni baholash, imtiyozlar berish, kreditlar olish bilan bog'liq ravishda g'ayriqonuniy to'lovlar va pora talab qilishdir.

Korrupsiya – global hodisa, undan zarar ko'rmagan mamlakat yo'q, lekin bu mamlakatlarda korrupsiyalashuv darajasi turlicha bo'lib, bunday holat uning ildizlari chuqurligidan dalolat beradi. O'rganilayotgan muammoga bag'ishlangan adabiyotlarda korrupsiyaning sabablari turlicha talqin etiladi.

²⁷ Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Ё Xalq so'zi. 2006, 11 fevral



19– rasm. Korrupsiyaning sabablari

Ularning obyektiv va subyektiv bo'lishiga e'tibor berilib, ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, demokratik tamoyillar va institutlarning rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi ajratiladi. Mutaxassislar fikricha, korrupsiyaning mavjudligini iqtisodiy tizimning o'zidan qidirish kerak. Korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lar ekan, demak uning iqtisodiy ildizlarini topish kerak bo'ladi. Bu ildizlar pul munosabatlarining o'zidadir. Pul universal to'lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilinadi, pul boylikning timsoli, boylik to'plashning eng qulay shakli. Pulni saqlash xavfsiz, uni xohlagancha jamg'arish mumkin.

Pul likvidligi eng yuqori bo'lgan aktivdir. Likvidlikni esa pulning qadr-qimmatini ta'minlaydi. U ko'zga ko'rinmas moliyaviy aloqalar o'rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo'lganidan, pora berishda qattiq valyutalar ishlatiladi, chunki ularning qadri barqaror bo'lgani uchun jamg'arish vositasi bo'la oladi. Pul - bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli pul munosabatlarining rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo'rlik moddiy shaklda bo'lishi mumkin, uni ko'zdan yashirib bo'lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o'rnatish imkonini beradi. SHunday qilib, korrupsiyaning obyektiv sababi pulning yuksak likvidlik xususiyatidadir. Bunday xususiyat pul fetishizmini, ya'ni uni ilohiylashtirishni, unga sig'inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal qiluvchi kuchga ega, degan tasavvurni paydo qiladi. Bu esa ochko'zlikni keltirib chiqaradi,

uni g'ayriqonuniy yo'l bilan topa olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalashgan kishilarga aylantiradi. Bozor tizimining mukammal emasligi, uning mexanizmlarida uzilishlar bo'lib turishi korrupsiyaning keng yoyilishi uchun qulay sharoit hozirlaydi.

Demak, bozor munosabatlarining takomillashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng ma'qul yo'li bo'lib hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyalashish darajasining boshqa guruh mamlakatlaridagiga nisbatan ancha pastligi mana shu tezisning to'g'riligidan dalolat beradi. Korrupsiyaning obyektiv sabablaridan biri davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog'liq holda biznesni rivojlantirish muammolarini hal qilish davlat amaldorlariga bog'liq bo'lishidir. Davlatning iqtisodiyotga ta'siri iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo'llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog'liq.

Davlatning ruhsat berish funksiyasi haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biridir. Davlat qo'lidagi subsidiyalar, soliqlar, imtiyozli litsenziyalar, kvotalar, preferentsiyalar va buyurtmalar kabi vositalar biznesni tartibga solib turishda qo'llaniladi. Ulardan kimning bahramand bo'lishi amaldorlarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natijaga erishish uchun tadbirkorlar pora berish yo'li bilan amaldorlarni sotib olish va shu orqali imtiyozlarga ega bo'lishga intiladilar. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur ekanligi va ayni vaqtda korrupsiyani yuzaga keltirishi iqtisodiyotdagi ziddiyatli holatdir.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda ko'pchilik tadqiqotchilar davlat qonunlarining nomukammalligiga urg'u beradilar. Qonunlar odatda real hayotdagi o'zgarishlardan orqada qoladi, shu sababli ular tez-tez o'zgartirilib, to'ldirilib turiladi. Mukammal hisoblangan qonunlar vaqt o'tishi bilan nomukammal bo'lib qoladi, chunki real hayot ilgarilab ketadi. Nomukammal qonun real hayot talabidan ortda qolgan va kelajakni to'liq aks ettirmaydigan qonundir. Bunday qonunlar yaxshi ishlamaydi, natijada korrupsiyaga yo'l ochiladi. Korrupsiyani lobbizm ham keltirib chiqaradi, biroq, har qanday lobbizm ham bunga olib

kelmaydi. Ruhsat berilgan, jamiyat tan oladigan lobbizm borki, u ochiq bozor aloqalariga tayanadi. Bunda u yoki bu guruh shaxslar yohud firmalar manfaatiga mos keladigan, jamiyat uchun zararsiz bo'lgan qarorlarni davlat idoralari tomonidan qabul qilish zarurligini asoslash va bunga ko'maklashish bilan bog'liq lobbizm korrupsiyani keltirib chiqarmaydi. Ammo, shu bilan birga, xufiyona lobbistik xizmatlar borki, ular individual va korporativ manfaatlarni himoya qilgan holda boshqalar manfaatiga zid ishlarning amalga oshirilishini bildiradi. SHunday bo'lganda g'ayriqonuniy lobbizm paydo bo'ladi.

Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo'rlik moddiy shaklda bo'lishi mumkin, uni ko'zdan yashirib bo'lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o'rnatish imkonini beradi. SHunday qilib, korrupsiyaning obyektiv sababi pulning yuksak likvidlik xususiyatidadir. Bunday xususiyat pul fetishizmini, ya'ni uni ilohiylashtirishni, unga sig'inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal qiluvchi kuchga ega, degan tasavvurni paydo qiladi. Bu esa ochko'zlikni keltirib chiqaradi, uni g'ayriqonuniy yo'l bilan topa olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalashgan kishilarga aylantiradi. Bozor tizimining mukammal emasligi, uning mexanizmlarida uzilishlar bo'lib turishi korrupsiyaning keng yoyilishi uchun qulay sharoit hozirlaydi.

Demak, bozor munosabatlarining takomillashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng ma'qul yo'li bo'lib hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyalashish darajasining boshqa guruh mamlakatlaridagiga nisbatan ancha pastligi mana shu tezisning to'g'riligidan dalolat beradi. Korrupsiyaning obyektiv sabablaridan biri davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog'liq holda biznesni rivojlantirish muammolarini hal qilish davlat amaldorlariga bog'liq bo'lishidir. Davlatning iqtisodiyotga ta'siri iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo'llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog'liq. Davlatning ruhsat berish funksiyasi haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biridir. Davlat qo'lidagi subsidiyalar, soliqlar, imtiyozli litsenziyalar, kvotalar, preferentsiyalar va buyurtmalar kabi vositalar biznesni tartibga solib turishda qo'llaniladi. Ulardan

kimning bahramand bo'lishi amaldorlarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natijaga erishish uchun tadbirkorlar pora berish yo'li bilan amaldorlarni sotib olish va shu orqali imtiyozlarga ega bo'lishga intiladilar.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur ekanligi va ayni vaqtda korrupsiyani yuzaga keltirishi iqtisodiyotdagi ziddiyatli holatdir. Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda ko'pchilik tadqiqotchilar davlat qonunlarining nomukammalligiga urg'u beradilar. Qonunlar odatda real hayotdagi o'zgarishlardan orqada qoladi, shu sababli ular tez-tez o'zgartirilib, to'ldirilib turiladi. Mukammal hisoblangan qonunlar vaqt o'tishi bilan nomukammal bo'lib qoladi, chunki real hayot ilgarilab ketadi. Nomukammal qonun real hayot talabidan ortda qolgan va kelajakni to'liq aks ettirmaydigan qonundir. Bunday qonunlar yaxshi ishlamaydi, natijada korrupsiyaga yo'l ochiladi.

Korrupsiyani lobbizm ham keltirib chiqaradi, biroq, har qanday lobbizm ham bunga olib kelmaydi. Ruhsat berilgan, jamiyat tan oladigan lobbizm borki, u ochiq bozor aloqalariga tayanadi. Bunda u yoki bu guruh shaxslar yohud firmalar manfaatiga mos keladigan, jamiyat uchun zararsiz bo'lgan qarorlarni davlat idoralari tomonidan qabul qilish zarurligini asoslash va bunga ko'maklashish bilan bog'liq lobbizm korrupsiyani keltirib chiqarmaydi. Ammo, shu bilan birga, xufiyona lobbistik xizmatlar borki, ular individual va korporativ manfaatlarni himoya qilgan holda boshqalar manfaatiga zid ishlarning amalga oshirilishini bildiradi. SHunday bo'lganda g'ayriqonuniy lobbizm paydo bo'ladi²⁸

Korrupsiyaning global muammoga aylana boshlaganligi jahon hamjamiyatini unga qarshi kurashda hamkorlik qilishga undadi. 2003-yilning 31- dekabrda Avstriyaning Vena shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi tomonidan BMTning korrupsiyaga qarshi Xalqaro konvensiyasi ma'qullandi. SHu yilning dekabr oyining boshlarida Meksikaning Merida shahrida jahonning 100 dan ortiq mamlakatlari ushbu konvensiyani imzoladilar. Ushbu hujjatning muqaddimasida aytilganidek, "korrupsiya endilikda cheklangan doiradagi (lokal)

²⁸ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. : 1998. 88-95 – b

muammo emas, balki barcha mamlakatlar jamiyati va iqtisodiyotiga daxldor bo'lgan transmilliy muammoga aylandi. Bu esa korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikning nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi"²⁹ .

Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining hujjatlarida korrupsiyaning ikkita turi ko'rsatib o'tilgan: "ma'muriy" va "davlatni egallab olish". Korrupsionerlar guruhi "davlatni egallab olganda" milliy xavfsizlikka ichki tahdid kuchayadi, chunki bunda davlat siyosatini tor doiradagi xudbin manfaatlarga bo'ysundirish kelib chiqadi. "Davlatni egallab olish" deganda, davlat yoki xususiy sektor vakillari bo'lgan ayrim shaxslar, guruhlar yoki kompaniyalarning o'z manfaatlari yo'lida qonunlar, nizomlar, farmonlar hamda davlat siyosatining boshqa vositalari shakllanishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida amalga oshiradigan harakatlaridir. Bunday xatti-harakatlarning o'lchovi sifatida "davlatning sotilish indeksi" qo'llaniladi. Mazkur ko'rsatkich parlament qabul qilgan qonunlar, hukumat qarorlari, davlat rahbarining farmonlari, hukumat tuzgan dasturlarning ayrim shaxslar va ijtimoiy guruhlarining xudbin korporativ manfaatiga qanchalik qaratganligini bildiradi. Bu ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, davlat shunchalik "toza" hisoblanadi.

Xalqaro ekspertlar olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlari orasida O'zbekiston eng "toza" hisoblanadi. Bu yerda 2000-yilga kelib, davlatning sotilish indeksi 1,0 ga teng bo'lib, bu eng past, ya'ni eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi, chunki boshqa bir qator mamlakatlarda bu indeks 5,5 ga teng bo'lgan. Korrupsiyani jilovlash uchun qonunlar yaxshi ishlashi talab etiladi. Qonunlarning yaxshi ishlashi ularning yuridik samaradorligini belgilaydi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda 2001-yilda 2,0 ga teng bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan qiyoslanganida o'rtacha ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich eng yuqori, ya'ni 4,0 ga teng bo'lgan mamlakatlar jumlasiga Vengriya, Ruminiya, Polsha, Bolgariya, CHexiya va Estoniya kirgan³⁰. Ma'muriy korrupsiya qonun-qoidalarini bajarish

²⁹ Ахмеджонов А. Коррупция и ее влияние на экономику.// Экономическое обо зрение. №7. 2004. с. 32

³⁰ Qobilov Sh.R. , Abdullaev N.B. Korruptsiya va xavfsizlik. T.: O'zbekiston. 2006. 21 – b.

jarayoniga atayin buzilishlar kiritilishini bildiradi. Korrupsiyaning ushbu turi firmalar va kompaniyalar daromadining pora berish uchun sarflanadigan hissasi bilan o'lanadi. SHarqiy Yevropa mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha – 2,2 foiz (Vengriyada – 1,7 foiz, Polshada – 1,6 foiz), MDXda – 3,7 foiz (Rossiyada – 2,8 foiz)ni tashkil etgan.

Korrupsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladigan omil va sharoitlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- amaldagi qonunchilikning takomillashmaganligi, undagi ziddiyatlar, qonun va qonunosti me'yoriy xujjatlarining bir-biriga zidligi, qonunlarni amaliyotga joriy qilish mexanizmining ishlamasligi;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvida byurokratiya, ma'muriyatchilikning rivojlanganligi, boshqaruv tizimida mansabdor shaxslarning haddan tashqari ko'payib ketishi, boshqaruv tizimida bir-birining funksiyalari takrorining ko'pligi;

- biznes va tadbirkorlikni ro'yxatga olish, ruxsat berish, ularni tugatish jarayonining haddan tashqari chigalligi, ko'p bosqichli ekanligi, murakkabligi;

- ishbilarmon va tadbirkorlarning huquqiy bilim, huquqiy madaniyatining yo'qligi yoki sayozligi;

- davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, ishbilarmon, tadbirkorlarning axloqi, ma'naviyatining sayozligi va boshqalar.

Xufyona iqtisodiyot tovar-pul munosabatlari paydo bo'lgan davrdan boshlab shakllanib va rivojlanib, ochiq iqtisodiyot bilan parallel faoliyat ko'rsatib kelgan. Ayni paytda uning miqyoslari turlicha bo'lgan. Shundan kelib chiqib uni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar ham xilma-xildir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xufyona iqtisodiyot, kuzatilmagan iqtisod, xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishi sabablari va rivojlanish oqibatlari, korrupsiya, soliqdan qochish, narkobiznes, terrorizm iqtisodiyoti, xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllari, iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishlari hamda uslublari.

Nazorat uchun savollar

1. “Xufyona, norasmiy, rasmiy iqtisodiyot” tushunchalarining mazmuni va farqli xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Xufyona iqtisodiyotning qanday shakllari mavjud?
3. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaning milliy iqtisodiyotga qanday tahdidlari mavjud?
4. Xufyona iqtisodiyot hajmi va dinamikasi qanday o‘lchanadi?
5. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash qanday usullarda olib boriladi?
6. O‘tish iqtisodiyotida jinoiy xufyona iqtisodiyot qanday xususiyatlarga ega?
7. Yangi davlat sharoitida jinoiy xufyona va korrupsiyaga qarshi qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi?

XI-BOB. MINTAQA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

11.1. Mintaqaviy xavfsizlik tarkibi. Mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik idikatorlari

11.2. Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat

11.3. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari

11.1. Mintaqaviy xavfsizlik tarkibi. Mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik idikatorlari

Milliy xavfsizlik jamiyatning barcha bo'g'in va darajalaridagi xavfsizlikni ifodalaganidek, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat hamda uning mintaqalari iqtisodiy xavfsizligini ham o'z ichiga oladi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi, iqtisodiyot bilan mintaqaning davlat hokimiyati va boshqaruvi muassasalari o'rtasidagi muvozanatli holat bo'lib, bu holat mintaqada milliy manfaatlarining himoyalanganligi hamda siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Mintaqa (hudud)dagi iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlardan foydalaniladi:

- aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot;
- yashash minimumi;
- ish haqi;
- ish haqi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik;
- ishsizlik darajasi;
- ishsizlar sonining bo'sh ish o'rinlariga nisbati;
- aholining savodxonlik darajasi;
- aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanishi va boshqalar.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

- aholi turmush darajasi;
- mintaqa aholisining ish bilan bandligi;

- mehnat motivasiyasi;
- aholining mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati;
- ichki mintaqaviy bozor;
- aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi;
- mintaqada ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardoshligi;
- mintaqaning ekologik holati;
- mintaqada sanoat ishlab chiqarishining tarkibi va boshqalar .

Mintaqa xavfsizligiga tahdidlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- ijtimoiy-siyosiy tahdidlar;
- tizimli boshqarish tavsifidagi tahdidlar;
- tashqi iqtisodiy tahdidlar.

Mintaqaviy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi tahdid ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha mintaqalar o'rtasidagi tabaqalanishning kuchayishi, ayrim mintaqada rivojlanishidagi turg'unlik va tanglik holatining yuzaga kelishi hisoblanadi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:


- xavfsizlik va himoya ob'ektlari;
- xavf-xatar va tahdid sub'ektlari;
- xavf-xatar va tahdidlar yuzaga kelishi hamda tarqalishi xususiyatlari;
- yuzaga kelish mumkin bo'lgan zararlar;
- xavfsizlikni ta'minlovchi tizimlarning maqsadi, vazifalari va amal qilish mexanizmlari.

Mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini baholashda esa quyidagi ko'rsatkichlar guruhidan foydalaniladi:

- aholi turmush darajasi;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi;
- demografik holat;
- ishlab chiqarish salohiyati;
- ilmiy-texnikaviy salohiyat;
- byudjet-moliya sohasi;

- investisiyaviy muhit;
- ekologik holat;
- huquq tartibot.

Mintaqaviy xavfsizlik mamlakat viloyatlari (tumanlari) manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi. Mintaqaviy xavfsizlik o'z ichiga tabiiy-texnogen, oziq-ovqat, umumiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy (shaxsiy va mulkiy) xavfsizliklarni oladi (17-rasm).



20-rasm. Mintaqaviy xavfsizlik tarkibi

11.2. Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat

Mintaqa iqtisodiyotining shunday tizimlari mavjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo'jalik yuritishda alohida o'rin tutadi va o'zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy-mineral va xom ashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasi miqyosi, aholisining urf-odat va an'analari, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsulot kabilar bilan farqlanadi.

"Mintaqa" tushunchasi jahon yoki mamlakat hududining bir qismiga nisbatan qo'llaniladi. Mintaqa jahon territoriyasining bir qismi sifatida, o'z ichiga geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy, harbiya va boshqa mezonlar hamda yondashuvlar asosida bir necha mamlakatlarni oladi. Masalan, Sharqiy Evropa, G'arbiy Evropa, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubiy, Sharqiy Osiyo va boshqa mamlakatlar turkumi, mintaqalari mavjud. Bir alohida olingan mamlakat o'z ichida viloyatlar, tuman va shaharlar geografik, iqtisodiy-siyosiy, etnomadaniy, ekologik, axborot va boshqa mezonlar bo'yicha ma'muriy hududiy birlik sifatida uning mintaqalarini tashkil etadi.

Mintaqa iqtisodiyotining shunday tuzilmalari mavjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo'jalik yuritishda alohida o'rin tutadi va o'zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy mineral va xom ashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasi miqyosi, aholisining urf-odat va an'analari, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsuloti kabilar bilan farqlanadi.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- Mintaqadagi barcha resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat) foydalanib, ishlab chiqarishning jadalligi va mutanosibligini ta'minlash hamda shu asosda uning samaradorligini oshirish.
- Mintaqalarning istiqboldagi rivojlanish sur'atlarini aniqlash. Bunda mahalliy resurslardan to'liq foydalanishga e'tibor berish.
- Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish. Buning uchun mintaqada ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, rejalashtirishni yanada demokratiyalashtirish lozim bo'ladi.

Buning uchun korxonalar, mintaqaviy birliklarga intikativ (tavsiyaviy) rejalarni tuzish uchun huquqiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish, innovasion iqtisodiyotga o'tish sharoitida samarali raqobat bo'lishini bozor konyunkturasiga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida, shuningdek, quyidagi vazifalarni ham hal etish lozim:

- ishlab chiqarishni bozor hajmi va konyunkturasiga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish;

- valyuta tushumlarining ko'payishini ta'minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish;

- bozor talabi asosida tez o'zgaruvchan yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish va hokazolar.

- tashqi iqtisodiy munosabatlarni mahalliy hokimiyatlar respublika hukumati bilan kelishgan holda mahalliy manfaatlarni hisobga olib rivojlantirish.

Mintaqalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi mintaqaviy iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat maqsadlari mintaqaviy rivojlanish maqsadlari mintaqaviy rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liqdir.

Davlatning mintaqaviy iqtisodiyotga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aralashishi ma'muriy vositalardan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyati kuchiga tayanish, ruxsat berish, man qilish, majburlash choralarini o'z ichiga oladi.

Ma'muriy usullar o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzgan ayrim korxonalariga nisbatan majburlash imkoniyatlarini ham ko'zda tutadi. Ma'muriy usullar yordamida mahalliy boshqaruv organlari davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini tartibga soladi, xorijiy investisiyalarni jalb qilish, hududiy tabiiy resurslardan foydalanish hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi (7-jadval).

7-jadval

Mintaqaviy (hududiy) takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari³¹

Ma'muriy usullar	Iqtisodiy usullar
Boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan aniq manzilli topshiriqlar berish	Umumiy iqtisodiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga tayanadi
Boshqariladigan ob'ektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishda boshqarish organining manfaatini ustuvor ravishda ko'zlash	Boshqariladigan ob'ektlarga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi, turli mulkchilik shakllardagi korxonalarining iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi
Qabul qilinadigan qarorlar uchun asosiy mas'uliyat boshqarish organi zimmasida bo'lib, boshqariladigan ob'ektning huquqlari cheklangan	to'liq mustaqillikka ega bo'lishi, o'z faoliyati va uning oqibatlari uchun yuqori mas'uliyatli bo'lishi taqozo etiladi
Ma'muriy farmoyishlar, rejalar direktiv xarakterga ega, ularni bajarish majburiy hisoblanib, undan chetlanishga yo'l qo'yilmaydi	Xo'jalik sub'ektlarini o'zining iqtisodiy manfaati nuqtai nazaridan va iqtisodiy riskni e'tiborga olgan holda muqobil qarorlar tayyorlash va oqilona echimlar topishga undaydi

³¹ Абдурахмонов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабоев Ш.Х. “Региональная экономика и управление”. Учебник. Под ред. Акад. С.С.Гулямова. Т.: Изд-во “Фан ва технология”, 2007. 425-427 б.

11.3. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat va uning mintaqalari raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish quyidagilarga yo'naltiriladi:

- mamlakat va uning mintaqalarini xalqaro bozorlar bilan integrasiyalashuvini ta'minlash, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini mintaq va hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, ularning o'zaro aloqadorligi, ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvini ta'minlash orqali mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishgacha erishish;

- mintaqalar infratuzilmalarini rivojlantirish;
- mintaqalarda ishlab chiqarish sohasining raqobatbardoshligini oshirish;
- mintaqalar rivojlanishidagi farqlarni qisqartirish.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash dasturini ishlab chiqish jarayonda quyidagilar amalga oshiriladi:

- Milliy iqtisodiyot va mintaqaviy iqtisodiyot doirasida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

- Har bir mintaqaning mamlakat mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajalari klassifikasiyasidagi o'rni aniqlanadi.

- Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tahlil qilinadi.
- Mintaqaning asosiy iqtisodiy manfaatlari aniqlanadi.
- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar klassifikasiyasi ishlab chiqiladi.
- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga Real va potentsial tahdidlar aniqlanadi.
- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini baholash indikatorlari va usullari belgilanadi.
- Mintaqalarda hayot faoliyati sohalari bo'yicha turg'unlik va tanglik holatlari baholanadi.

- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi maqsadlari belgilanadi.
- Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan mintaqaviy siyosatning ustuvor vazifalari ishlab chiqiladi.

- Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi.
- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari majmui ishlab chiqiladi va belgilanadi.
- Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining vazifalari, vakolatlari belgilanadi.
- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi holatini monitoring qilib borish bilan bog'liq chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi.
- Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda uning raqobatbardoshligini oshirish uchun mintaqa (hudud) mamlakatda Lokomotiv va tayanch mintaqalarni belgilab olish lozim bo'ladi.

Lokomotiv mintaqa deb quyidagi talablarga javob beradigan mintaqaga aytiladi:

- mintaqada yuk va yo'lovchi tashish oqimlari barqaror o'sishi kuzatiladi;
- mintaqada mamlakat uchun ahamiyatli bo'lgan nufuzli ilg'or ilmiy-ta'lim markazi faoliyat yuritadi;
- butun mamlakat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan strategik tashabbus shakllanadi;
- yuqori ilmiy-texnikaviy, intellektual kadrlar va ijtimoiy potentsialga ega bo'lish;
- mamlakat iqtisodiy rivojlanishida salmoqli ulushga ega, ya'ni YaIMdagi ulushi yuqori bo'lishi lozim;
- mintaqada davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes vakillari o'rtasida strategik hamkorlikning mavjud bo'lishi;
- 10-15 yillik istiqbolda ushbu mintaqa qo'shni mintaqa va hududlar rivojlanishiga turtki berish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ko'zlangan asosiy maqsad asosiy maqsad mamlakat va uning mintaqalari raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish quyidagilarga yo'naltiriladi:

- mamlakat va uning mintaqalarini xalqaro bozorlar bilan integrasiyalshuvini

ta'minlash, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini mintaq va hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, ularning o'zaro aloqadorligi, ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvini ta'minlash orqali mamlakat hamda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishgacha erishish;

- mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish;
- mintaqalarda ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini oshirish;
- mintaqalar rivojlanishidagi farqlarni qisqartirish.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda territorial-tarmoq klasterlari muhim rol o'ynaydi. Klasterlarda ba'zi hududlarda ayrim tovarlar, butlovchi qismlarni xom ashyolarni ishlab chiqarish tashkil etiladi. Bunga Asakadagi yengil avtomobillar, ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish tashkil etilganligi misol bo'ladi. Klaster hudud manfaatini korxonalar manfaatini bilan uyg'unlashtiradi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasida ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Bu dasturlarni ishlab chiqishda o'zaro aloqadorlik va davomiylik, resurslarni tejash, infratuzilmaviy ta'minot tamoyillariga asoslaniladi.

Bunday dasturlarni ishlab chiqish va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish modellarini yaratishda SWOT tahlilidan foydalaniladi. Ushbu tahlil asosida mintaqaning, kuchsiz va kuchli tomonlari, imkoniyatlari, tahdid va xavf-xatarlar aniqlanadi. Mintaqani rivojlantirishning turli senariylari ishlab chiqiladi. Inersion rivojlanish senariysida barcha tendensiyalar amalga saqlanadi. Eksportga yo'naltirilgan rivojlanish senariysida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlar va ularning salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Mobilizatsion rivojlantirish senariysida ichki zahiralari, resurslar, iqtisodiy o'sish omillari hisobga olinadi va rivojlantirish maqsadida foydalanishga yo'natiriladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini prognozlashtirish va asoslashda mintaq iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalarini ham hal etish

ko'zda tutiladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi mintaqaning o'zini o'zi tashkillashtiruvchi, o'zini-o'zi boshqaruvchi va oqilona boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va territorial-ma'muriy birlik sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy darajalari va iqtisodiy-tabiyy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy hamda tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mintaqani iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo'nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- mintaqa rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- mintaqani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilish; strategiya asoslanib, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- kontsepsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- mintaqaning moliyaviy resurslari o'sishini prognoz qilish; byudjetning daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo'llarini izlash; byudjet daromad qismini to'ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlar va nobyudjet jamg'armalaridan qo'shimcha mablag'larni jalb etish .

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini tuzishda ma'lum tamoyillarga asoslanish kerak bo'ladi. Bu tamoyillar mintaqaviy iqtisodiyot fani nuqtai nazaridan quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash chora-tadbirlarining maqsadlilikligi;

- mintaqani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha resurslarni to'plash va yo'naltirish;

- belgilangan harakatni nazorat qilish va tartiblash imkoniyatlarining ochiqligi;

- mintaqani rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning individualligi;

- qo'llab-quvvatlash mexanizmining ta'sirchanligi;

- respublika va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi hamda ular faoliyatining uyg'unligi.

Mintaqaviy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Mintaqaviy dasturlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi holatlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Mintaqa, hudud, mintaqqa iqtisodiyoti, mintaqaviy siyosat, mintaqqa iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar, ko'rsatkichlar, mintaqqa iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar, hududlar rivojlanishidagi tengsizlik.

1. Nazorat uchun savollar

1. Qanday omillar mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
2. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mazmunini tushuntirib bering?
3. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?
4. Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni qanday ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?
5. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini qanday ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?
6. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
7. Territorial-tarmoq klasteri nima?
8. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun qanday dasturlar ishlab chiqish mumkin?

XII-BOB. MAMLAKATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

12.1. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash

12.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar

12.3. Mamlakat milliy manfaatlarini himoyalash va iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash

12.1. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash

Bugungi kunda iqtisodiyotimiz tobora rivojlanib bormoqda. Mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, uni ham iqtisodiy ham itimoiy jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlash, rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish, jahon moliya bozorlari qatoriga kirish bizning bosh maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Shuni hisobga olgan holda bir qancha islohotlar, yangidan yangi loyihalar, dasturlar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tadbiq qilinmoqda. "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi o'zbek iqtisodiyotida yangi sohalardan hisoblanadi. U mamlakatni iqtisodiy resurslarining xavfsizligini ta'minlaydi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati rivojlangan sari, mamlakatga chetdan kirib keluvchi import tovarlarining ham soni ortib boradi. Bunda kirib kelayotgan har bir tovarning qonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilayotganligi, aholining salomatligiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini bilish mamlakat uchun muhim sanaladi. Bu o'z navbatida, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni paydo qiladi. Aslini olganda, iqtisodiy xavfsizlik ham qaysidir ma'noda mamlakat xavfsizligining bir bo'lagi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashi va fuqarolarga ziyon keltirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, iqtisodiyot sohalari raqobatbardoshligini

rivojlantirish, fond bozori, yer va ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish davlatning strategiyasi siyosati va iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi.

U O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini, milliy boyligini ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishni ko'zda tutadi. Ushbu konsepsiya bu boradagi siyosatni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlat markaziy o'rin egallaydi. Mamlakatda "xufiyona iqtisodiyot" darajasining yuqoriligi poraxo'rlik darajasining ham yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratadi.


Umuman, xufiyona iqtisodiyotning ma'lum bir davlat misolida qanchalik darajada rivojlanganligini aniq belgilab bo'lmaydi.

Ushbu hodisaning davlatning mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko'lamlarini o'z ichiga oladigan tik hamda strategik qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta'minlash;

- iqtisodiy va ma'muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalgam oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;

- boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar tizimida himoyalashni rag'batlantirish rejimlarini ko'zda tutadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq etish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy jihatdan himoyalashni ta'minlash;

- iqtisodiyotni yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagi faoliyatini uyg'unlashtirish. mavjudligi natijasida yuzaga keluvchi bir qator omillar uning taxminiy darajasini mutaxassislar ishtirokida jahon mamlakatlarida mavjud bo'lgan "xufiyona iqtisodiyot"ning ulushini aniqlaydi.



21-rasm. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashdagi davlatning vazifalari³²

Iqtisodiy xavfsizlikni rivojlantirgan holda moliyaviy bozorni yanada takomillashtirishimiz mumkin bo'ladi. Moliya bozorining rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan bank tizimini olib qarajak. Banklarning barqaror faoliyati uchun jamiyatning butun bir bank tizimiga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lishi kerak. Shunda aholining bo'sh turgan mablag'lari, jamg'arib boriladigan mablag'lari aynan bank tomonidan saqlanadi. Natijada banklarda pul aylanmasi tezlashadi va ularning mustahkam barqaror holatini saqlanishiga erishiladi. Xorijiy rivojlangan

³² Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

mamlakatlarning bank tizimiga, xususan dunyo miqyosida eng mashhur hisoblangan Shvetsariya bank tizimini olib qaraydigan bo'lsak.

Bu bankning o'ziga xos jihatlaridan biri, uning amaldagi soliq solish tizimi bilan bog'liq emasligidadir, ya'ni bunda bank operatsiyalari natijasida kelib tushgan daromadlar omonatchilarga sof holda, hech qanday qo'shimcha to'lov undirmasdan yetib boradi. Bundan tashqari depozit qutichalari ham yuqori darajada kodlashtirilgan tizimga ega, hamda depozit egasining shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham sir saqlanadi.

Bankdan foydalanuvchilarning huquqlari yuqori himoyalangan va bu o'z navbatida ularning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga zamin bo'ladi. Bizning mamlakatimizda omonatlarning xavfsizligi biroz sust rivojlangan. Omonatga pul mablag'larini qo'ygan shaxs ertaga uni hech qanday yo'qotishlarsiz olishiga ko'zi yetmaydi. Shuning hisobiga aholi qo'lidagi jamg'arib borish darajasi biroz yuqori ko'rsatkichni ko'rsatadi. Bank tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatning ishonchini oshirish, ularning pul mablag'lari hamda turli depozit qutichalarida saqlanadigan qimmatbaho buyumlarining xavfsizligini ta'minlash moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik o'z navbatida, ma'lum bir usullar yordamida ta'minlanadi. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga oid axborotlarni topish va jamlashda omilli analiz usulidan foydalaniladi. Iqtisodiy xavfsizlikni omilli analizga asoslanmagan holda tadqiq etib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy xavfsizlik ham bir tizim bo'lib, u bir qator o'zgaruvchi hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish omillari, omilli matritsa, deb nomlanuvchi indikatorlar (ko'rsatkichlar) bilan bog'liqdir. Omilli matritsa analiz davomida aniqlangan omil va indikatorlarning o'zaro bog'liqlik darajasini xarakterlaydi. Omilli analizning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydigan umumiy qoidalarni ishlab chiqish va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotini hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonidagi kamchiliklar bilan uzviy bog'lanishini ta'minlashdan iboratdir. Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat xavfsizligi deb bejiz ta'kidlanmaydi. Aholi istemol qiladigan har bir mahsulot iste'mol

darajasiga tayyor bo'lishi bu o'ta muhim hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi qanchalik kuchli rivojlangan bo'lsa, kirib kelayotgan tovarlar, yaratilayotgan mahsulotlar shunchalik iste'molga yaroqli va sifatli bo'ladi, jamiyat xavfsizligi ta'minlanadi, ular turli yaroqsiz mahsulotlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklardan himoya qilinadi.

Demak, mamlakatning rivojlanishida uning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta'minlay bilish muhim hisoblanadi. Bu o'z navbatida bir tomondan davlat xavfsizligi hisoblansa, boshqa tomondan iqtisodiy rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar ro'y bermoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Bu chora-tadbirlar "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan insonparvarlik tamoyilini to'la ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lmoqda.

Ayni paytda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi saksondan ortiq xalqaro hujjat me'yorlarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatimizda bu borada ro'y berayotgan muhim siyosiy-ijtimoiy yangiliklardan xalqimizni o'z vaqtida xabardor etish maqsadida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va ularga rioya etish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta'minlashga keng jalb etilgan.

Barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan investitsiya loyihalari yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek mehnat migrantlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, Xorijda mehnat

faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi.

Mamlakatimiz aholisining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va sog'lig'ini muhofazalash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ekologik muhitni barqarorlashtirish, gender tenglikni ta'minlash yuzasidan muhim loyihalar hayotga tatbiq etilayotir. Bu ishlarning natijalari xalqaro reytinglarda alohida e'tirof etilayotgani quvonarlidir.

Xususan, BMT tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning 2020 yilgi natijalariga ko'ra, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) global reytingida O'zbekiston 71,02 foiz natija bilan 190 dan ortiq mamlakat orasida 66-o'rinni egalladi.

Ayni paytda bu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida 2030 yilgacha kambag'allikni qisqartirish kontsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Hammaning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligi ta'minlanishi ham bevosita inson huquqlari ustuvorligiga xizmat qilmoqda. Shu tufayli fuqarolarning siyosiy huquqlari, fikr, so'z va vijdon erkinligi kafolatlanmoqda. Mamlakatimizda diniy erkinlik borasida ham qator amaliy ishlar qilindi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik yanada mustahkamlanmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlariga rioya qilish va uni himoya qilishning milliy mexanizmlari ham takomillashib bormoqda. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan birga Bola huquqlari bo'yicha vakil va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil kabi yangi lavozimlar joriy etildi.

Kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat migrantlari, bolalar, yoshlar, ayollar, katta yoshdagilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek oila institutini mustahkamlash bo'yicha ishlar tubdan

qayta ko'rib chiqildi. Oila institutini mustahkamlash bo'yicha kontseptsiya qabul qilinib, oilaviy mojarolarni hal etish mexanizmlari yaratildi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Xususan, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishda, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya yo'nalishlarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini o'z kafolatiga oldi.

12.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti asosida milliy iqtisodiyotlar o'rtasida barqaror, har tomonlama o'zaro aloqadorlikning shakllanishi oqibatida xo'jalik haayotining xalqaro miqyosda internatsionallashuvini ifodalaydi. Buning oqibatida iqtisodiy makon vujudga kelmoqda. Ushbu makonda xalqaro tovarlar, xizmatlar, xom ashyo resurslari, moliyaviy mablag'lar, kapital, ishchi kuchi bozorlari vujudga kelib, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik hamda bog'liqlik kuchaymoqda. Jahon miqyosida global-texnologik, moliyaviy, axborot, madaniy tizimlar jadal ravishda rivojlanmoqda.

Milliy iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimotiga ko'ra, ixtisoslashuvi, o'zining foydali qazilma boyliklari, geografik joylashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro savdo, xalqaro iqtisodiy faoliyatining faolligiga muvofiq jahon iqtisodiy tizimida o'ziga xos o'rinni yegallaydi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish uchun milliy iqtisodiyot xalqaro hamkorlikka ochiq bo'lishi, ya'ni ochiq iqtisodiyot tavsifiga yega bo'lishi lozim. Ochiq iqtisodiyotning xususiyatlari va potensial imkoniyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatda bozor mexanizmi va unsurlari raqobat muhiti shakllanishining jadallashuvi;

jahon xo'jaligi bilan o'zaro aloqada milliy iqtisodiyot an'anaviy tovar ayirboshlashdan tashqari, kapitalni chetga chiqarish va chetdan kiritish, ilmiy-

texnikaning kooperatsiyalashuvi, ishlab chiqarish integratsiyasi kabi shakllarda integrallashadi;

xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirishga asoslangan holda ichki ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan milliy daromadning o'sishi;

xalqaro ayirboshlashning mutanosib iqtisodiy o'sish omili sifatidagi rolining ko'payishi;

xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirish hisobiga ichki ishlab chiqarish ko'lamiga nisbatan milliy daromadning ko'proq o'sishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish yo'li bilan ochiq turdagi bozor iqtisodiyotini vujudga keltirmoqda. Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish istiqbollari ustun darajada jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishiga bog'liqdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatining quyidagi tamoyillarga asoslanishi belgilab berilgan:

mafkuraviy kurashlardan qat'i nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;

teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

o'zining milliy davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalar o'rnatish hamda ularni rivojlantirish;

umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o'tish.

Iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni yerkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo'shma korxonalar ko'paya bordi, ichki bozor tovarlar bilan to'la boshladi. Ammo, shu bilan birga, buning mamlakat manfaatlariga zid tomoni ham ko'zga tashlan boshladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga tahdidlardan himoyalash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

taklif etilayotgan investitsion loyiha va xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan yirik bitimlar, iqtisodiy xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, dastlabki mustaqil ekspertizadan o'tkazish;

xorijiy kapital uchun ustuvor soha va tarmoqlar bilan bir qatorda, ularning kiritilishi man qilinadigan soha va tarmoqlar ham qonuniy asosda belgilab qo'yilishi kerak;

xorijiy investorlar tomonidan ayrim sohalarda aksiyalarni xarid qilish jarayonlarini qat'iyashtirish;

xorijiy investorlarning strategik tarmoqlarda milliy boyliklarimizning katta qismini qo'lga kiritishlariga yo'l qo'ymaslik;

mamlakat bank tizimining ishonchini himoyalash;

tashqi faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlaridagi rahbar kadrlarning malakasini oshirish, ularni o'qitish va qayta tayyorlash;

ichki bozorni, milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatchilar tajovuzidan himoya qilish;

tashqi iqtisodiy aloqalar infratuzilmasini rivojlantirish;

tashqi bozorlarda milliy eksportchilar va ishlab chiqaruvchilarimizning diskreminatsiya qilinmasligi, kamsitilishidan himoya qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi nizo va kelishmovchiliklarni ko'p tomonlama tartibga solish mexanizmlari teng huquqli shartnomalar tuzish orqali hal qilinishiga intilish lozim bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari va fuqarolarimizning manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi;

chet ellardagi respublika mulkini himoya qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdodan yuqori foyda, iqtisodiy samara olishga intilish bilan bir vaqtda, mamlakatning jahon iqtisodiyoti tizimida o'ziga mos nufuzli o'rinni egallashiga intilishi kabilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi, kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning yetishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifa chet mamlakatlar bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya kabi sohalarda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iborat.

Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalgam oshirish lozim bo'ladi:

-eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim bo'ladi;

-mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish, ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, injenering, lizingni rivojlantirish;

-chet el mamlakatlari, ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo tartiblariga erishish;

-mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va capital bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

-kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro valyuta moliyaviy muammolarni tartibga solish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda belgilangan huquqiy me'yor va normalar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu normalar, o'z navbatida, tovar va xizmatlar, intellektual mehnat natijalari, shuningdek, jismoniy hamda huquqiy shaxslarning mamlakatlararo harakat yo'nalishlari, shakllari, usullari, shartlarini belgilab beradi.

Iqtisodiy tartibga solish usullari bojxona poshina (to'lov)lari, yig'implari, qo'shilga qiymat solig'i, aksizlaridan iborat. Huquqiy-ma'muriy usullar litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o'rnatish, shuningdek, bojxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o'tib turishi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlik va yagona davlat siyosatiga, shaxs, jamiyat va davlat xayotiy manfaatlariga mos iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa choralar tizimi orqali erishiladi. Iqtisodiyot sohasida mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilish davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- tovar va xizmatlarni sotish (o'tkazish) bozorini kengaytirish;
- MDHga a'zo mamlakatlarning umumiy iqtisodiy makonini yaratish.

Jahon tovar va xizmatlar bozorida raqobat kuchaygan sharoitda O'zbekiston tadbirkorlarining manfaatlari himoyasini kuchaytirish zarur. Mamlakatning tashqi qarzlarga bog'liqligini kamaytirishda muvozanatlashgan kredit-moliya siyosatini amalga oshirish alohida o'rin tutadi. Strategik tabiiy resurslar konlarini, shuningdek, telekommunikatsiyalar, transport va tovar o'tkazuvchi tarmoqlarni xorijiy kompaniyalarga foydalanish uchun berishda cheklovlar belgilash zarur. Iqtisodiy xavfsizlikni asosiy obyektlari-shaxs va uning xuquq erkinliklari, uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, davlat va uning konstitutsiyaviyligi turar-joy tizimi, suverenitet va xududiy yaxlitlik. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ichki iqtisodiy siyosatda quyidagi yo'nalishlardan foydalanishni taqozo etadi:

- iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishini kuchaytirish;

- islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash hamda mamlakat qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning samarali mexanizmini yaratish;
- ilmiy-texnikaviy, texnologik va ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish hamda rivojlantirish choralarini ko'rish;
- fan yutuqlaridan foydalanishga asoslangan tarmoqlar va ishlab chiqarishni ilgari lama rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyot tarkibidagi buzilishlarini eliminatsiya qilish;
- investitsiya va innovatsiya sohasidagi faollikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni oshirib borish;
- raqobatbardosh tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish;
- moddiy va moliyaviy resurslarni fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlariga jamlash;
- mamlakatdagi yetakchi ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiy xavfsizlik deganda, iqtisodiyotning shunday ahvolini tushunish kerakki, bunda unga tanazzulga yuz tutish samaradorlik darajasining pasayishi kabi xavflar taxdid qilmaydi, u inqirozga yo'liqqan taqdirda ham tezda qayta tiklanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Uning bu qobiliyati takror ishlab chiqarishni bir maromda borishini bildiradi, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy xavfsizlik kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni taqozo etadi. Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, unga siyosiy va xo'jalik qarorlarini qabul qilish jarayonida normativlik xususiyatini berish, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo'lganidan xabar beruvchi indikatorlarni kiritish, ularni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar bularning hammasi davlat siyosatining yo'nalishlarini tashkil etadi. Barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi qarshilik ko'rsatayotgan kuchga qarama-qarshi kuch yaratishdir.³³

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holatiga jamiyat xo'jalik faoliyatining har qanday sohasidagi va ishlab chiqarish

³³ Косолапов Н.А. Сила, Безопасность: Современная диалектика взаимосвязей// Мировая экономика и международные отношения. 1992. № 11.С.48.

munosabatlarning har qanday darajasida iqtisodiy xavfsizlik muammolarining mavjudligi xosdir. Bularning barchasi to'la darajada respublikamizdagi vaziyatga ham taalluqli. Shuning uchun, bizningcha, jamiyatimiz iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlik-ning ustunligi umuminsoniy qadriyatlar bilan ham, O'zbekistonning milliy xususiyatlari bilan ham ajralib turadigan ishlab chiqarish munosabatlari tizimining barcha tarkibiy qismlarida saqlanib qoladi.

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlat markaziy o'rin yegallaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

davlatning mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko'lamlarini o'z ichiga oladigan tik hamda strategic qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta'minlash;

iqtisodiy va ma'muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalgam oshirish, yerishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;

boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar tizimida himoyalashni rag'batlantirish rejimlarini ko'zda tutadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq yetish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy jihatdan himoyalashni ta'minlash;

iqtisodiyotni yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagi faoliyatini uyg'unlashtirish.

Mamlakat xavfsizligini ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tashkiliy tuzilmalar;
- kommunikatsiya va o'zaro aloqalar tizimi;
- axborotlar;
- har tomonlama tayyorlangan kadrlar.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari ikki, o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi:

iqtisodiy huquqbuzarliklarning manbalari va ularning sub'ektlariga qarshi kurashish;

barcha qonun, me'yoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiyot resurslari, zaxiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyunkturasining o'zgarishlarga moslashuvchanligi boshqa mamlakatlarning qo'llab- quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda ishtirok eta olishi bilan ifodalanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim bo'ladi. Shuningdek, **milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosatini amalga oshirish lozim. Bu siyosat quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:**

- monopolistik faoliyatni cheklash;
- tayyor ishlab beruvchi sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob-uskunalarni eksport qilishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo'llash;
- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, yangi tashkil topgan xo'jalik sub'ektlarini qo'llab- quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish;
- ichki bozorga noqonuniy yo'llar bilan arzon, iste'molchilar salomatligiga salbiy

ta'sir ko'rsatuvchi tovarlarni kirib kelishining oldini olish;

- ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko'zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo'llab-quvvatlash;

-yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo'llab quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiyotning kriminallashtirishiga qarshi kurashish kerak. **Jinoiy guruhlarining iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:**

-daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;

- nodavlat xo'jalik sub'ektlarining ayrim faoliyat turlarini qonun yo'li bilan cheklash;

- ro'yxatga olinmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni man qilish;

- iste'molchilar salomatligiga zarar yetkazuvchi mahsulotlarni va litsenziyasiz, sifat sertifikatisiz tovar sotishni man qilish;

- bankrotlik qonuni talablarini hayotga qat'iy tatbiq etish;

- huquq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limlari faoliyatini kuchaytirish;

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;

- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta'minlash bilan bir qatorda, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish kabilar maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim. Buning uchun mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xom ashyo, oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni, mahsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan mahsulotga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Shundagina mamlakatning iqtisodiy ahvoli jahon bozorlaridagi konyuktura o'zgarishlariga, resurs baholarining o'zgarishiga bog'liq

bo'lmaydi. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat strategiyasi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar qilishga, sanoat, moliya va bank tizimini mustahkamlashga qaratiladi. Buning uchun, texnologik jihatdan orqada qolishga barham berish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish lozim bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi, kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning yetishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifa chet mamlakatlar bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya kabi sohalarda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iborat. Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalgam oshirish lozim bo'ladi:

Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim bo'ladi;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish, ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, injenering, lizingni rivojlantirish;

- chet el mamlakatlari, ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo tartiblariga erishish;

- mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va capital

bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro valyuta moliyaviy muammolarni tartibga solish. Ushbu choratadbirlarni amalga oshirishda belgilangan huquqiy me'yor va normalar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu normalar, o'z navbatida, tovar va xizmatlar, intellektual mehnat natijalari, shuningdek, jismoniy hamda huquqiy shaxslarning mamlakatlararo harakat yo'nalishlari, shakllari, usullari, shartlarini belgilab beradi. Iqtisodiy tartibga solish usullari bojxona poshlina (to'lov)lari, yig'implari, qo'shilga qiymat solig'i, aksizlaridan iborat.

Huquqiy-ma'muriy usullar litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o'rnatish, shuningdek, bojxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o'tib turishi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik choratadbirlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni belgilovchi omillar monitoringi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining eng muhim elementlari iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni belgilovchi omillarni monitoring qilish va prognozlashdir.

Monitoring iqtisodiyot xavfsizligi ko'rsatkichlarining o'zgarishini kuzatishlarning tezkor axborot-tahliliy tizimi bo'lib jiddiy tarmoqlararo nomutanosibliklar mavjud bo'lgan va resurslar, (avvalo, moliyaviy resurslar) nihoyatda taqchil, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar juda o'zgaruvchan va beqaror bo'lgan sharoitdagi iqtisodiyotning o'tish holati uchun katta ahamiyatga ega. Bu hol statistik kuzatish obyektlarini qamrab olishning kompleksligi, chuqurligi va shakllari, axborotning sifati va tezkorligi borasida davlat statistikasiga qo'yiladigan talablarning kuchayib borishini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazaridan iqtisodiyot va jamiyatni xolisona va har tomonlama monitoring qilish iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining aniq miqdor qiymatlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak. Agar iqtisodiy xavfsizlik tavsifi taraflarning bir-biriga zid kelmasligini o'z

ichiga olsa, iqtisodiy xavfsizlikning tobora aniqroq toifalari uning ziddiyatli mohiyatidan kelib chiqishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning ziddiyatli xususiyati to'g'risida dastlabki ta'riflar muammoni o'rganishning muhim bosqichi ekanini tushunish muhimdir. Shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga bo'ladigan ichki va tashqi tahdidlarni belgilovchi omillarni monitoring qilish uchun tashkiliy-axborot bazasini yaratish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi.

12.3. Mamlakat milliy manfaatlarini himoyalash va iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash

Dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiyotini qamrab olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda qabul qilingan islohot va modernizatsiya modelini amalga oshirishda tadrijiy yondashuvni tanlanganligi islohotlarni izchil va bosqichmabosqich olib borish imkoniyatini yaratdi. Raqobat bozor xo'jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan o'z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitlarda esa xalqaro raqobat muammolari birinchi o'ringa chiqib boradi. Jahonning ko'pgina mamlakatlari, shu jumladan, o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda ham raqobat to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan va ushbu muammolar bilan shug'ullanadigan idoralar tashkil etilgan.

Bu esa o'z navbatida bozor xo'jaligining muvaffaqiyatli amal qilishida raqobatning yetakchi rolini tan olinganligidan dalolat beradi. Kapital va mehnat harakatchanligining oshganligi, dunyo iqtisodiyotining yoppasiga axborotlashuvi, erkin savdo va bozorlar integratsiyalashuvida namoyon bo'layotgan globallashuv jarayonlari, dunyoning barcha mamlakatlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda keng imkoniyatlar ochmoqda. Lekin, shu bilan birga, mamlakatlar ushbu jarayonlarga xos bo'lgan ayrim qiyinchiliklarga ham duch kelmoqdalar. Ayni

paytda dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, glaballashuv jarayonlaridan asosan dunyo bozoriga tayyor raqobatbardosh tovarlar bilan chiqayotgan mamlakatlar ko'proq naf olmoqdalar.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish zaruriyati boshqa shartsharoitlar bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki bozorning chegaralanganligi zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ham bir muncha cheklaydi. Bundan tashhari har qanday mamlakat iste'mol tovarlarini ma'lum qismini tashqi bozorlardan xarid qilishga majbur bo'ladi. Mana shunday sharoitda mamlakat eksport salohiyatini oshirish importni ta'minlash uchun valyuta tushumlarini kafolatlaydi. Demak, raqobatbardoshlik iqtisodiy xavfsizlik muammosi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, bir necha yillardan beri mamlakatlarning jahon xo'jalik tizimida raqobatbardoshligini aniqlash hamda ularni raqobatbardoshlik reytingini tuzish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Internetdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2005 yilda raqobatbardoshlik reytingini hisoblash uchun 290 ko'rsatkich tahlil qilingan. Shulardan 41 ta ko'rsatkich mamlakat to'g'risidagi birlamchi axborot sifatida ishlatiladi va oxirgi reytingda aks ettirilmaydi. Qolgan 249 ta ko'rsatkich sakkizta umumlashtirilgan omillarga ajratiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- ichki iqtisodiy salohiyat;
- tashqi iqtisodiy aloqalar;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish;
- moliya-kredit tizimi; - infratuzilma; - boshqaruv tizimi;
- ilmiy-texnik salohiyat;
- mehnat resurslari.

2005-yilda 117 mamlakatning raqobatbardoshlik indeksi hisoblandi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yilda 1-3 o'rinlarni muvofiq ravishda Finlyandiya, AQSH va SHvetsiya mamlakatlari egallagan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan Qozog'iston (61 –o'rin), Rossiya Federatsiyasi (75-o'rin), Ukraina (84-o'rin), Gruziya (86-o'rin), Tojikiston (104-o'rin), Qirg'iziston (116-o'rin)larning raqobatbardoshlik reytinglari keltirilgan.

Mamlakatlar raqobatbardoshligining mezonlari tarkibini shakllantirishda iqtisodiyot, ta'lim, fan, huquqiy tizim, informatika, infratuzilma, moliya, soliq tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat, boshharuv tizimi, ijtimoiy sohalarning rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga alohida ahamiyat berilgan.

Raqobatbardoshlik – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlik doimo o'zaro munosabatda bo'lib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik ham, raqobatbardoshlik ham milliy xo'jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini tavsiflovchilaridir. Shu bilan birga raqobatbardoshlik bir paytning o'zida ham maqsad, ham milliy xo'jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini rivojlanish darajasini indikator bo'lsa, iqtisodiy xavfsizlik uning mavjudligi va rivojlanish sharti sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatda raqobatni qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirish, raqobat muhitini yaratish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yuksak iqtisodiy o'sishga erishish, iqtisodiyotning samarali tarkibini shakllantirishda va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlatni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalardagi o'zgarishlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligini belgilovchi tamoyildir. O'tish davrida aynan davlat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda islohotlar jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi va ustuvor vazifalarini belgilashi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchil amalga oshirishi zarur ekanligini O'zbekiston tajribasi yaqqol namoyon qildi.

Respublika iqtisodiyotini tubdan isloh qilish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilmasini deversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshiriluvchi chora-tadbirlar orasida raqobatni qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobat muhitini yaratish masalasi alohida o'rin tutadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat raqobatbardoshlikni boshqarmaydi, balki tartibga

solishning turli usul va vositalari yordamida unga ta'sir ko'rsatadi. Bular qatoriga turli qonunlar, qonuniy hujjatlar, hukumat qarorlari va iqtisodiy dastaklarni kiritish mumkin.

Davlatning vazifasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Raqobatbardoshlikni boshqarish esa bevosita ishlab chiqaruvchilar darajasida amalga oshiriladi. Ayni paytda, ishlab chiqaruvchilar tegishli huquqlarga, tadbirkorlik tashabbuskorligiga, kadrlarga ega bo'lishlari kerak. M.Porterning fikricha, davlat raqobatbardoshlikning o'ziga xos katalizatori rolini o'ynashi lozim. Lekin, shu o'rinda davlat siyosatining ustuvorliklarini aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning fikricha, raqobatni va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat chora-tadbirlari majmuasiga quyidagilar kirishi kerak:

- infratuzilma, malakali ishchi kuchi, ilmiy-konstruktorlik ishlanmalarini yaratish;
- samarali soliq va pul siyosatini o'tkazish, energiyatashuvchilar bozorini tartibga solish;
- talabni, ichki raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- bozordan sifatsiz mahsulotlarni siqib chiqarish uchun texnik va texnologik standartlarni aniq tizimini yaratish;
- xaridorlarga to'liq va sifatli axborotlarni yetkazish;
- qoloq hududlarni rivojlanishini rag'batlantiruvchi mintaqaviy siyosatni amalga oshirish;
- eksportni rag'batlantirish; - xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojining bugungi bosqichida «monopolizm ko'rinishlariga qarshi kurash va amalda raqobat muhitini shakllantirish» masalalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularni hal etish mamlakatda ishlab chiqarish hajmlarini o'sishiga, mahsulot sifati va raqobatbardoshligining ortishiga, narxlarni pasayishiga zamin yaratadi.

Respublikada raqobat muhitini rivojlantirishda va monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilish ustidan davlat nazoratini olib borishda monopoliyaga qarshi davlat organi hisoblanadigan va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi muhim o'rinni egallaydi.

Ushbu Davlat organining tashkil etilganligi O'zbekistonda raqobatni qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash uchun zamin yaratdi. Respublikamizda raqobatni qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslari iqtisodiy islohotlarning ilk davridaridanoq yaratilib boshlandi. Xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatda raqobatni qo'llab-quvvatlash, raqobat muhitini shakllantirish uchun institutsional asos bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq «biz uchun yangilik bo'lgan bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor munosabatlarining mexanizmi ishga tushirildi»³⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq quyidagilar davlat qo'mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- monopoliyaga qarshi samarali siyosatni amalga oshirish, monopolistik siyosatni cheklash to'g'risidagi va tabiiy monopoliyalar haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- respublikada raqobat muhitini rivojlantirish, tovarlar (xizmatlar, ishlar) bozorlarida, birinchi navbatda, ichki iste'mol bozorida va reklama sohasida noinsof raqobatga chek qo'yish, mahalliy davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik uchun huquqiy maydonni yanada takomillashtirish, jamoat

³⁴ Karimov I. AO'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Xalq so'zi, 2007, 31 avgust

tuzilmalari bilan chambarchas muvofiqlashtirilgan holda iste'molchilarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati va raqobatbardoshligini chuqur tahlil qilish, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni tarkibiy o'zgartirish va ularning bankrotligi sohasidagi funksiyalarni amalga oshirish, tarkibiy o'zgartirish, sanatsiya va bankrotlik masalalarini ko'rib chiqishda davlat manfaatlarini ifodalash.

Mustaqillik yillarida Respublikada qo'shilgan qiymat darajasi yuqori bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir bo'lgan tarmoqlar va korxonalarini yanada jadal rivojlantirish maqsadiga qaratilgan sanoat siyosati ishlab chiqildi.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda respublikada qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret choratadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish mana shunday vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Globalashuv, integrallashuv, geoiqtisodiy maydon, milliy iqtisodiyotning ochiqligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, davlat iqtisodiyotini tartibga solish.

Takrorlash uchun savollar

1. Nima uchun raqobatbardoshlikni oshirish iqtisodiy xavfsizlik omili bo'lib hisoblanadi?
2. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
3. Inqirozga qarshi choralar Dasturida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar beogilangan?
4. Milliy iqtisodiy manfaatlarga nimalar tahdid soladi?
5. Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari nimalardan iborat?
6. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga qanday ijtimoiy tahdidlar mavjud?
7. Ijtimoiy tahdidlarning oldini olish uchun nimalar qilish kerak?

GLOSSARIYLAR

Afera – qalloblik, muttahamlik, vijdotsiz harakat yoki ish.

Bankrotlik (ital. bancrotto - aynan singan kursi) – sinish; fuqaro, korxon, firma yoki bankning mablag' yetishmasligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi.

Bankrotlik – korxonaning sud tomonidan belgilangan moliyaviy inqirozi, ya'ni kreditorlar tomonidan qo'yilgan talablar va byudjet oldidagi majburiyatlarni belgilangan muddatlarda qondira olmasligi.

Barqaror rivojlanish - hozirgi davrdagi jamiyat taraqqiyotining eng muhim modellaridan biri bo'lib, unga ko'ra eng asosiy vazifa rivojlanishning uzviyligini ta'minlashdir. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni o'z ichiga olgan holda nafaqat bugungi avlodlarning ehtiyojlarini qondirish, balki kelajakdagi avlodlar uchun ehtiyojlarning kafolatlanishini ham maqsad qiladi.

Bozor muhofazasi – milliy bozorning yoki ayrim tovarlar bozorining, davlatning eksport-importini tartibga soluvchi tadbirlar vositasida himoya qilinishi. B.M. chetdan tovar keltirishni cheklash, ta'qiqlash yoki boj to'lovini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Boykot (ing. boycott) – norozilik bildirish uchun biron-bir iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan bosh tortish. Iqtisodiy aloqa qiluvchi tomonlarning manfaati o'zaro zid kelib qolganda ularning biri boykot e'lon qiladi, kelishilgan shartnomani bajarish to'xtatiladi. Savdo-sotiq ishlarida boykot tovarlarni yetkazib turishdan bosh tortish, oldin belgilangan narxdan voz kechish ko'rinishlarida yuz beradi.

Byurokratizm – 1) totalitar davlatga xos boshqarish sistemasi; bu boshqarish sistemasi amaldorlarning (davlat xizmatchilarining), hukmron partiya va militsiya (politsiya) apparatining keng quloq yoygan tarmoqlari va xalq ommasi ustidan hukmronlik qiladigan, totalitar davlat yoki bir xovuch partokratiyaning manfaatini ko'zlab, mehnatkashlarga zulm o'tkazuvchi va ular ustidan zo'ravonlik qiluvchi

boshqa rasmiy ma'muriy shaxslar yordamida amalga 290 oshiriladi; 2) quruq rasmiyatchilik, qog'ozbozlik, sansalorlik, masalani ishning mohiyatiga va mehnatkashlarning ehtiyojiga zarar yetkazgan holda yuzaki hal qilish.

Valyuta siyosati – davlat va markaziy banklar tomonidan pul va valyuta muomalasi doirasida pulning xarid quvvatiga hamda mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmuasi.

Davlat qarzi – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, xorijiy mamlakatlardan qarzi. Davlat o'z xarajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o'z byudjetining kamomadini vaqtincha qoplaydi. Davlat zayomlar chiqarib, ularni aholiga, korxonalar va tashkilotlarga sotadi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital kiritish (qo'yish). Moliyaviy investitsiya, aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish; real investitsiya mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital kiritish (qo'yish), shuningdek, yosh mustaqil davlatlarga qarz va subsidiyalar berish shakllarida amalga oshiriladi.

Informatsion xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlarining axborot urushi, intervensiya hamda dezinformatsiya tazyiqlaridan himoyalanganligidir. Informatsion xavfsizlikning mohiyati davlatning informatsion resurslarini saqlash, axborot sohasida shaxs va jamiyatning qonuniy huquqlarini himoyalashdan iboratdir.

Informatsion xavfsizlik ob'ektlari – axborot resurslari, ularning shakllanish, tarqalish va foydalanish tizimi, infrastrukturasi, tizim faoliyatini ta'minlovchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar. Informatsion xavfsizlik resurslari – davlat va korxonalar, tashkilot va muassasalarning hujjatlar shaklidagi (kutubxona, arxiv, fond) axborotlar, kompüter dasturlari, bilim va axborot bazalari hamda boshqa tashkilot turlaridan iborat.

Inflyatsiya (lot. inflatio – shishish, ko'chish, ko'tarilish) – pulning qadrsizlanishi; muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

Ishsizlik – aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish topa olmasdan qolishi. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi.

Iqtisodiy jinoyatlar – milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga, korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolarga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan, jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Bunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jamiyat, davlat, xo'jalik sub'ektlariga, ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi. Ularga: 1) o'zgaruvchi mulkini talon-taroj qilish; 2) o'zgaruvchi mulkini talontaroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar; 3) iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar; 4) xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar kiradi.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar - mamlakat manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish, valyuta bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, chet el valyutasini yashirish, soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish, rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda sotish qoidalarini buzish kabilar kiradi.

Iqtisodiy manfaatlar – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari (sub'ektlari)ning o'zlari tomonidan anglangan va ularni faoliyatga undovchi hayotiy ehtiyojlari, iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch. Amal qilish darajasiga ko'ra yakka shaxs, guruh yoki korporativ, milliy yoki umumdavlat miqyosidagi iqtisodiy manfaatlar mavjud.

Iqtisodiy mustaqillik – milliy iqtisodiyotning chet davlatlarga bog'liqligini kamaytirish va milliy manfaatlariga xizmat qilishi uchun shart-sharoitlarning ta'minlanishi. Uning quyidagi mezonlari mavjud:

Iqtisodiyotning ochiqligi – mamlakat iqtisodiyotining chet el tovarlari, kapitali, ishchi kuchi migratsiyasi uchun muayyan darajada ochiq bo'lishini taqozo etadi. Mamlakat chet el bilan iqtisodiy aloqalarini o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda va erkin yuritadi;

Iqtisodiy siyosat – mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga muayyan yo'nalish berish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish sohasidagi davlat, hukumat faoliyatining bosh yo'nalishi, tadbirlari tizimi. I.S. agrar, tarkibiy, investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalaridagi siyosatni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarining himoyalangandagi holatini ifodalaydi. I.X.milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'zo'zidan takomillashib borishga qodirligini taüminlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisidir. I.X.iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatdagi, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoya qilinganligi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ijtimoiy yo'naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlarining eng noqulay sharoitlarida ham mudofaa salohiyati yetarli darajada taüminlangan bo'ladi.

Ichki iqtisodiy xavfsizlik – tabiiy, texnikaviy, iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makro iqtisodiy rivojlanishning hamda turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar taüsiridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni – iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy xolatni baholash. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko'rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarining miqdor jihatdan ifodalanishi.

Iqtisodiy razvedka – xorijiy davlatlarning, raqobatchi korxonalar (firma) larning iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy siyosati va iqtisodiy holatiga, doiralariga oid muhim mahfiy ma'lumotlarni yashirincha to'plash.

Iqtisodiy tahdid – jamiyat, davlat va ularning sub'ektlari alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi,

ularga ziyon, zarar-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar tug'diruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqeliklarni ifodalaydi.

Iqtisodiy shpionaj – raqibiga zarba berish, raqobat kurashida yengish, xo'jalik faoliyatida o'zib ketish maqsadida tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni yashirincha to'plashga qaratilgan xufyona faoliyat.

Iqtisodiy qonunbuzarlik – xo'jalik yuritish amaliyotida belgilangan va qaror topgan qonun-qoidalar va mezonlarga zid xatti-harakat yoki harakatsizlik.

Kompensatsiya – ko'rilgan zararni, xarajatlarni qoplash, qarzni qaytarish, o'rnini qoplash, tovon to'lovlari majmui.

Kontrabanda (ital. contrabando) – davlat chegarasidan mollar, qimmatbaho buyumlar va boshqa narsalarni qonunga xilof (yashirincha) usullarda o'tkazish, shuningdek, ta'qiqlangan mollarni olib o'tish uchun noqonuniy harakatlar qilish.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – uning hayotiy muhim manfaatlariga xavf soluvchi ichki va tashqi tahdid, tajovuzlardan ma'muriyat va personal tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, injenerliktexnika tavsifdagi chora- tadbirlar tufayli vujudga keltirilgan himoyalanganlik holatidir.

Korrupsiya – mamlakat iqtisodiy resurslariga, davlat mulkini taqsimlash jarayonlarida uning bir qismiga ega bo'lish maqsadida uyushgan jinoiy guruhning shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yuvchi davlat xizmati amaldorlarini o'z domiga ilintirib, ulardan foydalanishi va ular bilan birikib, qo'shilib ketishidir.

Moddiy zarar – 1) talofat, katta xarajat, mol-mulk va pul mablag'lardan mahrum bo'lish, to'liq olinmagan foyda; 2) istalmagan o'zgarish va yo'qotishlar, bir sub'ekt faoliyati, harakatlari orqali boshqa sub'ekt, tabiiy atrof-muhitga, odamlarga yetkazilgan zarar. Moddiy zarar korxonaga yoki xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarning daromaddan oshib ketishi natijasida vujudga keladi.

Narkobiznes – sof narkotik moddalar va tarkibida shunday moddalar bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish orqali daromad topish. Protektsionizm (fran. protectionnisme, lot. protectio – himoya) – davlatning milliy iqtisodiyotining chet el

raqobatidan ichki bozorni chet el tovarlarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati. Proteksionizm eksportni rag'batlantirish, importni cheklash, import mollaridan boj haqlarini oshirish va shunga o'xshash boshqa tadbirlarida o'z ifodasini topadi.

Raqobatchilik qobiliyati, raqobatga bardoshlilik – tovarning bozordagi shunga o'xshash tovarlarga nisbatan barcha sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlarini taqqoslovchi tavsifi. Agar tovarning iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ustunligi sezilsa, uning raqobatchilik qobiliyati yuqori bo'ladi. Uning raqobatchilik qobiliyati uni ishlab chiqargan korxonaga va mamlakatning nufuzini, obro'-e'tiborini bildiradi, ularga bozorning ishonchini oshiradi. Bu qobiliyat qanchalik yuqori bo'lsa, mol shunchalik ko'p va tez sotiladi, ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) shunchalik ko'p foyda ko'radi.

Resurslar – 1) resurs, imkoniyat, boylik manbai; vosita, chora, iloj; 2) ishlab chiqarishni ta'minlaydigan omil va vositalarni bildiradi. Iqtisodiy resurslar o'z ichiga kapital (ishlab chiqarish vositalari), mehnat (mehnat layoqatiga ega aholi, inson kapitali), yer (tabiiy resurslar), tadbirkorlik qobiliyati va axborotni oladi.

Sabotaj – ishni buzish, o'zini ishlagan qilib ko'rsatish va shu yo'l bilan ishga to'sqinlik qilish. Davlat yoki jamiyat muassasasi, korxonaga va tashkilotlarida me'yoridagi ishga oldindan o'ylab qo'yilgan va yashirin xarakterga ega bo'lgan qarshi harakat.

Soxta ishbilarmonlik (tadbirkorlik) – kredit olish, soliqlardan ozod bo'lish, foyda ko'rish yoki taqiqlangan faoliyatni yashirish maqsadida hech qanday ishbilarmonlik yoki bank faoliyatini olib borishni mo'ljallamagan kommertsiya tashkilotini tuzish. Fuqarolarga, tashkilot yoki davlatga katta zarar keltiruvchi iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy faoliyat sohasidagi jinoyatchilik hisoblanadi.

Strategiya - korxonaning resurslarini taqsimlash va nazorat qilish orqali belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan amallarning umumlashtiruvchi majmuidir.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi – tadbirkorlik sub'ekti tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy,

ijtimoiy-iqtisodiy va injener texnik tavsifdagi chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavfxatarlardan himoyalanganlik holatidir.

Tahdid – jamiyat, davlat va ularning sub'ektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyon–zahmat keltiradigan, xavf–xatar tug'diradigan omillar va shart–sharoitlar. Ichki tahdidlar – mamlakat ichida vujudga keladigan tahdidlar.

Tashqi iqtisodiy sohada xavfsizlik – mamlakatning jahon bozorlaridagi raqobatga bardoshlilik, milliy valyutaning barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvolining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Siyosiy terrorizm – siyosiy arboblarga, ular o'tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar. **Axborot sohasida terrorizm** – jamiyat a'zolarining ruhiyatiga, xulq – atvoriga ta'sir ko'rsatish. Iqtisodiy sohadagi terrorizm – terroristlarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta'sir o'tkazishi.

Ijtimoiy terrorizm – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi. Tijorat siri – ishlab chiqarish va savdo-sotiqning bevosita ishtirokchilarigagina ma'lum bo'lgan va boshqalarga e'lon qilinmaydigan ma'lumotlar.

Yangi texnika- texnologiya, ishlab chiqarishni yangichasiga tashkil etish, yangi materiallarni qo'llash, boshqalarda bo'lmagan, hayotiy sikli uzun bo'lgan tovarlarni o'zlashtirish sir tutiladi.

Firibgar – firib beruvchi, hiylagar, aldoqchi; aldamchilik, tovlamachilik, makru hiyla bilan shug'ullanuvchi kimsa.

Xo'jalik faoliyati sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar – sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish etil spirtli, alkagolli mahsulot va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish, qonunga xilof

ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish, raqobatchilikni obro'sizlantirish kabilardan iborat.

Xorij kapitali ustidan samarali nazorat – xorij kapitali tomonidan milliy tabiiy boyliklarning talon-taroj qilinishiga, ekologiyaga zarar yetkazishga, ish o'rinlarini qisqartirishga, milliy kapitalni siqib qo'yishga yo'l bermaslik maqsadida qo'llaniladiagn nazorat vositalari va usullari majmuasi.

Xavfsizlik – har qanday xavf-xatardan o'zini himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holati; insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatar, tahdidlardan himoyalanganlik, kafolatlangan.

Xavf-xatar – jamiyat, davlat, xo'jalik sub'ekti, shaxs hayot faoliyatiga, rivojlanishga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil, shart-sharoit, vaziyat.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – har bir davlat, ya'ni dunyo hamjamiyati a'zosining o'z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta'minlangandagi holati.

Xufyona (yashirin) iqtisodiyot – davlat statistika organlarida hisobga olinmagan, g'ayriqonuniy va iqtisodiy faoliyatga teskari bo'lgan harakatlar yig'indisi.

Xufyona iqtisodiyot – bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning harajati. Alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

Yashirish yoki norasmiy iqtisodiyot – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo'jalik munosabatlari yig'indisi.

Chayqovchilik – turli mollarni arzon olib, qimmat sotish bilan daromad topishni ko'zlaydigan faoliyat, man etilgan tijorat ishi; xufyona iqtisodiyotning bir qismi. Chayqovchilik ob'ekti taqchil (defitsit) tovarlardir.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini

saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi.

Embargo (isp. ta'qiqlab qo'yish) – 1) Mamlakat tashqarisiga mol, oltin, valyuta va boshqalarni chiqarish yoki kiritishni ta'qiqlab qo'yish, chet mamlakatga qarashli kemalar, yuklar va jihozlarni ushlab qolish; 2) Boshqa mamlakatlarning huquqni buzish harakatlariga javoban hukumat tomonidan boshqa mamlakat yoki o'z kemalarining mamlakat portidan chiqib ketishini talab etishi. Embargo iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra hukumat tomonidan joriy etiladi.

O'zgar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq iqtisodiy jinoyatlarga – moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va mehnat mahsuloti bo'lgan boyliklarni taqsimlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi jinoyatlardan eng xavflisi hisoblanadi. O'zgar mulkini o'zlashtirish usuliga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida talon-taroj qilishning: bosqinchilik, tovlamachilik, o'zlashtirish (rastrata) firibgarlik, o'g'rilik kabi shakllari kiritilgan. (164-169- moddalar). Talon-tarojning predmeti moddiy qiymati, pul bahosiga ega bo'lgan va o'zgar mulki hisoblangan pul, qimmatbaho qog'ozlar va shakllardir. O'zgar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlarga - aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish, jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish, mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, axborotlashtirish qoidalarini buzish kabi qilmishlar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Qonunlar va boshqa huquqiy, siyosiy, rasmiy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017 yil
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 apreldagi PQ-2895-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 25 maydagi PF5057-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 4 sentyabrdagi PQ-3254-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga 299 muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 18 maydagi PF-5995-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 sentyabrdagi «Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ564-son Qonuni) 2020 yil 22 apreldagi PF-5983-sonli Farmoni.

12. “O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida”gi 2018 yil 5 apreldagi O'RQ-471-sonli Qonuni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asar va ma'ruzalari

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak: Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. - T.: “O'zbekiston”, 2017.

14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

16. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy yettirishning mustaxkam poydevoridir // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2018 yil 30 dekabr.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

III. Kitob va risolalar

18. “Mehnatni muhofaza qilish” H. Rahimov, A. Azamov, T. Tursunov., //T.: “O'zbekiston” nashriyoti 2003 y.
19. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” O. Qudratov, T. G'aniyev., 111.: “Mehnat” - 2004 u
20. “Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi” O. Qudratov, T. G'aniyev., /GG.: “Yangi asr avlodi” - 2005 u
21. Abduraxmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”, 2013. - 476 b. 19. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot // Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyot davlat korxonasi, 2018. - 592 b.
22. Averchenkov V.I. Системы защиты информации в ведущих зарубежных странах: Учебное пособие. – Bryansk, 2007.
23. Alferov A.P., Zubov A.Yu., Kuzmin A.S, Cheremushkin A.V. Основы криптографии: Учебное пособие. – M., 2002.
24. Aripov M., Pudovchenko Yu. Ye., Aripov M. Основы Internet. – T., 2003.
25. Bezbogov A.A. Методы и средства защиты компьютерной информации. Учебное пособие. – Tambov, 2006.
26. Davыдов A.S., Maslova T.V. Информационные технологии деятельности органов внутренних дел: Учебное пособие. Челябинск, 2007.
27. Zaysev A.P., Golubyatnikov I.V., Meshcheryakov R.V. Программно-аппаратные средства обеспечения информационной безопасности: Учебное пособие. – M., 2006.
28. Melnikov V.P. i dr. Информационная безопасность и защита информации: Учебное пособие. – M., 2008.
29. Karimov I.M. va boshqalar. Axborot texnologiyalari: Darslik. – T., 2011.
30. Karimov I.M. va boshqalar. Informatika: Darslik. – T., 2012.
31. Melnikov V.P. Информационная безопасность. Учебное пособие. – M., 2005.

32. Mirodova Sh. Проблемы обеспечения информационной безопасности Республики Узбекистан в условиях глобализации. – Т., 2008.
33. Muhammadiev J.O'. Axborot xavfsizligi: muammo va yechimlar: Monografiya. – Т., 2011.
34. Партыка Т. Л., Попов И. И. Информационная безопасность: Учебное пособие. – М., 2002.
35. Abduraxmanov K.X., Abdullaev A.M., Dadabaev Sh.X. Regionalnaya ekonomika i upravlenie. Uchebnik // Pod red. Akad. S.S.Gulyamova. - Т.: Izd-vo “Fan va texnologiya”, 2007.
36. Avdiyskiy V.N., Dadalko V.A., Sinyavskiy N.G. Natsionalnaya i regionalnaya ekonomicheskaya bezopasnost Rossii. Uchebnoe posobie. - М.: Infra-M, 2017. – s. 364.
37. Безденежных Т.И. Разработка стратегии обеспечения экономической безопасности на макро-, мезо- и микроуровнях: учебное пособие. СПб.: СПбГЭУ, 2015. – s. 119.
38. Vechkanov G.S. Ekonomicheskaya bezopasnost. - SPb: Izd. “Vektor”, 2007.
39. Gafner V.V., Petrov S.V., Zabara L.I. Opasnosti sotsialnogo xaraktera i zashchita ot nix: ucheb. posobie. - М.: Flinta: Nauka, 2012. - 320 s.
40. Gordienko D.V. Osnovy ekonomicheskoy bezopasnosti gosudarstva. Kurs leksiy: ucheb-metod posobie. - М.: Финансы и статистика, 2012.
41. Gordienko D.V. Osnovy ekonomicheskoy bezopasnosti gosudarstv. Analiticheskii doklad. - М., 2009.
42. Dmitriev Yu.A., Vasileva L.P. Regionalnaya ekonomika. Uchebnik. - М.: KnoRus, 2016. – s. 262. 302
43. Yelfimova O.S. Osnovy natsionalnoy i ekonomicheskoy bezopasnosti. Uchebnoe posobie. Yelfimova O.S. – 2-ye izd. – SPb.: Troiskiy most, 2018. – s. 226.
44. Karanina Ye.V. Ekonomicheskaya bezopasnost. Na urovne gosudarstva, regiona, predpriyatiya. - SPb.: Intermediya, 2017. – s. 412.

45. Kardashova I.B. Osnovy teorii natsionalnoy bezopasnosti. Uchebnik. - M.: Yurayt, 2018. – s. 302.

46. Kochergina T.E. Ekonomicheskaya bezopasnost. - Rostov na Donu: Feniks, 2007.

47. Kunsman M.V. Ekonomicheskaya bezopasnost: uchebnoe posobie // M.V.Kunsman. - M.: MADI, 2016. – c. 152.

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 29.12.2022.

49. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.– Toshkent : O‘zbekiston, 2016.- 56 b.

50. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

51. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

52. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. O‘zbekistonda ijtimoiy islohot-lar strategiyasini amalga oshirishda raqobat muhitidan samarali foydalanish yo‘nalishlari. Monografiya. - T.: “VneshInvestProm”, 2017. - 82 b.

53. Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik (Kasbiy faoliyat asoslari) fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Monografiya. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. - 42 b.

54. B.O.Tursunov, X.F.Uktamov, M.N.Sobirova. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2022

55. Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’min-lashning nazariy jihatlari va yo‘nalishlari. Monografiya. T.: “Fan va texnologiya”, 2017. - 152 b.

IV. Xorijiy nashrlardagi kitob va maqolalar

56. Ellul, J., Wilkinson, J., & Merton, R. (1964). . Nueva York: Random House. The technological society

57. Jasanoff, S. (2016). . WW Norton & Company. The Ethics of Invention: Technology and the Human Future

58. Jasanoff, Sheila. (2003). Technologies of humility: citizen participation in governing science. , (3), *Minerva* 41 223-244.

59. Jasanoff, Sheila. (2009). (1st ed.). Cambridge Science at the bar: Law, science, and technology in America England etc.: Harvard University Press.

60. Martínez-Quirante, R., & Rodríguez-Alvarez, J. (2018). Inteligencia artificial y armas letales autónomas: un . Oviedo: Trea. Retrieved from nuevo reto para Naciones Unidas <https://www.trea.es/books/inteligencia-artificial-y-armas-letales-autonomas-un-nuevo-reto-para-naciones-unidas>

61. Marx, L. (2000). . Oxford: Oxford The machine in the garden: technology and the pastoral ideal in America University Press.

62. Postman, N. (2011). Nueva York: Vintage Books. Technopoly: The surrender of culture to technology

63. Rodríguez, J. (2016). (1st ed.). La civilización ausente: Tecnología y sociedad en la era de la incertidumbre Oviedo: Trea.

64. Neil Postman. Technopoly: The Surrender of Culture to Technology. Knopf Doubleday Publishing Group, 2011. p-240.

65. James Q. Wilson. *Technological Slavery*. Fitch & Madison Publishers, LLC; Third Edition, Revised and Expanded, Revised and Expanded (July 2, 2019)

V. Statistik tuplam va manbalar

66. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Statistik to‘plam 2015-2019 yil. - Toshkent, 2020.

67. O‘zbekiston raqamlarda. Statistik to‘plam 2015-2019 yil. - Toshkent, 2020.

68. Ekonomika Uzbekistana: informatsionno-analiticheskiy byulleten za 2019 god. - T., 2020.

VII. Internet saytlar

69. www.gov.uz
70. www.lex.uz
71. <http://parliament.gov.uz>
72. <http://strategy.regulation.gov.uz>
73. <https://www.shs-conferences.org> - System performance indicators of regional economic security
74. <https://dspace.kpfu.ru> - Economic Security Policy of the Russian Federation
75. <https://www.researchgate.net> - Threats to economic security of the region
76. <https://journals.aserspublishing.eu> - Economic Security of Regions

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB	“Iqtisodiy xavfsizlik” faniga kirish, iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va tarkibiy elementlari.....
1.1.	Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
1.2.	Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi, obyektlari, subyektlari va tarkibiy elementlari.....
1.3.	Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tamoyillari.....
II-BOB	Iqtisodiy xavfsizlikning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....
II-BOB	Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy ko‘rsatkichlar.....
2.1.	Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari.....
2.2.	Iqtisodiy xavfsizlikning darajalari va tahdidlari.....
2.3.	Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari va makroiqtisodiy indikatorlari.....
III-BOB	Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi.....
3.1.	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining kontseptual asoslari va strategiyasi.....
3.2.	Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.....
3.3.	Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tartibga soluvchi organlarining vazifalari.....
IV-BOB	Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash muammolari
4.1.	Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi.....
4.2.	Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar.....
4.3.	Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari va vositalari.....
V-BOB	Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash.....
5.1.	Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.....
5.2.	Korxonaning xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilish va boshqarish
5.3.	Korxonaning tijorat siri va uni himoyalash usullari.....
VI-BOB	Aholi turmush darajasi iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatorlari sifatida.....
6.1.	Ijtimoiy manfaatlar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari.....
6.2.	Aholining turmush darajasini oshirish mexanizmi.....
6.3.	Mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari.....
VII-BOB	Iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishdagi xavfsizlik shartlari.....

7.1.	Innovatsiyalar-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omili
7.2.	Investitsiyalarning iqtisodiy xavfsizlikdagi roli.....
7.3.	Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni takomillashtirish.....
VIII-BOB	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.....
8.1.	Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta'minlash muammolari.....
8.2.	Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlatning iqtisodiy roli.....
8.3.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qabul qilingin me'yoriy huquqiy hujjatlar va ularning mohiyati.....
IX-BOB	Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari
9.1.	Axborot xavfsizligining iqtisodiy mazmuni.....
9.2.	Axborot xavfsizligining mohiyati va unga tahdidlar.....
9.3.	Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi.....
X-BOB	Xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash.....
10.1.	Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari. Xufyona iqtisodiyotning turlari.....
10.2.	Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari.....
10.3.	Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....
XI-BOB	Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.....
11.1.	Mintaqaviy xavfsizlik tarkibi. Mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik idikatorlari.....
11.2.	Mintaqa iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat.....
11.3.	Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.....
XII-BOB	Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.....
12.1.	Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash.....
12.2.	Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar.....
12.3.	Mamlakat milliy manfaatlarini himoyalash va iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash.....
	GLOSSARIYLAR.....
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....